O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULNORA SHARIPOVA

G'AYRAT NAJMEKDINOV

# MUSIQA O'QITISH METODIKASI PRAKTIKUMI

*5111100 – "Musiqa ta'limi yo'nalishi"dagi*
*Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma*

**O'QUV QO'LLANMA**

TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2014

**UO'K 78(075)**
**KBK 74.268.53**
**Sh 26**

**Sharipova G.**
Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi: o'quv qo'llanma / G. Sharipova. - Toshkent: Turon-Iqbol, 2014. 208-bet.

**Tuzuvchilar:**
**G.M. Sharipovaova** – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti dotsenti;
**G'.M. Najmekdinov** – Qo'qon Davlat pedagogika instituti dotsenti, ped.fan.nom.

**Taqrizchilar:**

**D.A. Karimova** – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti, musiqa o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent.
**D.F. Asamova** – Yunus Rajabiy nomidagi Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi pedagogika oliy o'quv yurtlari san'at fakulteti (musiqa ta'limi yo'nalishi) talabalari uchun mo'ljallangan. Unda bo'lg'usi musiqa madaniyati o'qituvchilari egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar minimumi belgilab berilgan.

O'quv qo'llanma mazmunida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ish mavzulari, talabalarning ijodiy faolligini oshirish uchun yangicha yondashuvlarni hisobga olib tuzilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma 5111100 – "Musiqa ta'limi yo'nalishi" bo'yicha bo'lajak o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

**UO'K 78(075)**
**KBK 74.268.53**
**Sh 26**

O'zbekiston Respublirasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 28 fevraldagi 51-sonli buyrug'iga asosan nashr qilish uchun ruxsat etilgan.

ISBN 978-9943-14-289-3
© «Turon-Iqbol», 2014

# KIRISH

«Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» fanidan yaratilgan ushbu o'quv qo'llanma namuna sifatida tavsiya etiladi. Fanning asosiy mazmunida, talabalar ma'ruzalar kursida o'zlashtirgan bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda mustahkamlab, pedagogik amaliyotda, musiqa madaniyati darslarini olib borishga qaratilgan.

«Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» fanining asosiy maqsadi, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalarini, musiqa madaniyati darslarini va sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi ishlarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etib, musiqa o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash. Amaliy mashg'ulotlar, nazariy bilimlarni mantiqiy davomi bo'lib, talabalar o'zlashtirib olgan bilimlarini amalda sinab ko'rish imkonini yaratib beradi hamda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ijodiy hamkorlik faoliyatini tashkil etadi. «Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» fani talabalarni kelajakda maktabda o'quvchilar bilan ishlashga, ularning ovozini saqlash va rivojlantirish, xor jamoasini tashkil etish, vokal-xor ishlashlarini rivojlantirish, musiqiy asarlarni ijroda ko'rsatish va tahlil qilish malakalarini shakllantiradi. «Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» fani pedagogika, psixologiya, musiqa nazariyasi, vokal, dirijyorlik, musiqa tarixi, maktab repertuari, musiqa o'qitish metodikasi va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Qo'llanma bakalavr talabalarni dunyoqarashini boyitadi, bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish imkonini yaratadi. Tavsiya etilgan adabiyotlarni va musiqiy asarlarni talabalar o'rganib, amaliy mashg'ulotlarda, dars fragmentlarini, talabalar guruhi bilan ishlashda foydalanadilar. Talabalarni mustaqil ishi, ularning ijodiy faoliyatini takomillashtiradi, mustaqil bilim olish malakalarini rivojlantiradi Amaliy mashg'ulotlar talabalardan ijodiy faollikni, yangicha yondashuvni, ijodkorlikni talab etadi.

Hozirgi kunda, ta'lim jarayonida zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan – kompyuter, multimedia, slaydlardan foydalanish davr talabi bo'lib, o'qituvchilardan mavzularni yoritishda ijodiy yondashishni talab etmoqda.

Ushbu o'quv qo'llanma – pedagogika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari san'at fakulteti (musiqa ta'limi yo'nalishi) talabalari uchun moljallangan. Unda bo'lg'usi musiqa madaniyati o'qituvchilari egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar minimumi belgilab berilgan. Ushbu o'quv qo'llanmaga bildirilgan xolisona fikr va mulohazalar uchun o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

# I BOB

# MUSIQA O'QITISH METODIKASI PRAKTIKUMI FANINING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi fanining maqsad va vazifalari

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolarini hal etishda erkin fikr yurita oladigan, o'z ishini mohir ustasi bo'lishini talab etadi. "Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi" fani pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan nazariy bilimlarni umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Bu fan o'qituvchidan iste'dod, qobiliyat va chuqur bilimga ega bo'lishini talab etadi. "Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi" fanining maqsadi, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini, musiqa o'qitish metodikasi fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rishdan iborat.

"Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi" fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

– Talabalarni nazariy olgan bilimlarini mustahkamlash va amaliyotda sinab ko'rish.

– Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash.

– Izlanuvchanlik va o'z ustida ishlash mahoratini singdirish.

– Kasbiy faoliyatga doir tajriba va bilimlarni o'zlashtirib, yangi pedagogik texnologiyalardan – kompyuter, multimedia, slaydlardan musiqa darslarida foydalanishga o'rgatish.

– Musiqa madaniyati darslari faoliyatlarini alohida-alohida o'rganish (jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish) va tajribada sinab ko'rish.

– Ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallarni tayyorlashga o'rgatish.

– Musiqa darslarini rejalashtirishga o'rgatish (Taqvim, mavzuli reja, reja bayoni).

– Sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan ommaviy va to'garak ishlarini talabalar bilan amaliyotda tajriba o'tkazish.

– Musiqa madaniyati darslarini kuzatib, tahlil qilishga o'rgatish.

– O'zbek milliy cholg'u asboblaridan foydalanib dars o'tishga o'rgatish.

"Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi" fani musiqa madaniyati darslarining samaradorligini oshiradi, talabalarni ko'proq fikrlashga, yangi metod va usullarni izlashga o'rgatadi. Bo'lajak o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, Davlat Ta'lim Standartlari dasturidan, darslik, o'quv qo'llanmalardan foydalanishi lozim. Shu bilan birga, bu fan talabalarni umumta'lim maktablarida, litsey kollejlarda, musiqa madaniyati darslarini hamda musiqa mashg'ulotlarini olib borishga tayyorlaydi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi shunga intilishi kerakki, bolalar musiqa darsida o'rganib olgan kuy va qo'shiqlarni, ongli ravshida anglab, ta'sirli qilib ijro eta oladigan bo'lsinlar. Bu esa o'qituvchining musiqiy asarni qanday o'rgatganligiga, asardagi badiiy obrazni nechog'lik ishonarli qilib ochib bera olganligiga bog'liq.

Talaba-o'qituvchi, har bir asarni hatto eng oddiysini ham badiiy-g'oyaviy mazmunini bilib olib sinchiklab tahlil qilib, qanday ifoda vositalari bilan aks ettirilishini aniqlab olishi zarur. Shuningdek, qo'shiqni ijro etish texnikasini ham puxta o'rganib, qanday joylarda nafas olish kerak, talaffuz, sof intonatsiya, ikkiovozlik kabi tomonlari murakkabligini, qaysi tomoni oson ekanligini aniqlab, murakkab joylarini osonlashtirib o'rgatish joylarini topa olishi kerak. Talabaga o'qituvchi har qanday musiqiy asarni o'rgatishdan oldin, yuqoridagi amallarga rioya qilish kerakligini eslatib turishi kerak. Talaba-o'qituvchi o'quvchilarga musiqiy asarni boshidan oxirigacha yoki qisman ijro etib berishi mumkin. Musiqiy asar ijro etib berilgandan keyin, o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi, ammo bu suhbat cho'zilib ketmasligi shart, talaba-o'qituvchi suhbatni kuzatib, boshqarib turishi kerak.

Bunda bolalarni savol-javoblariga quloq solib, ularning fikrini umumlashtirib turishi lozim. Shu tariqa musiqiy asarda ifodalangan mazmunidan, bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanishi mumkin. «Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» fani bo'lajak o'qituvchini o'z ustida tinimsiz ishlashga, berilgan topshiriqlarni vaqtida, ijodiy yondoshib aniq bajarishga o'rgatadi. Shuningdek, musiqa o'qituvchisiga DTS dasturidan, darslik, oquv qo'llanma, tavsiyanomalardan foydalanish, musiqa madaniyati darslarini va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga yordam beradi. Musiqa madaniyati darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarni mustaqil fikr yuritib, erkin so'zlashga o'rgatadi. Bu esa, bugungi kunda bo'lajak o'qituvchidan ish mazmuni va uslubini yangilashni talab etadi. Pedagogika fani o'ziga xos o'quv fani sifatida bo'lg'usi o'qituvchilarni pedagogika kasbiga tayyorlash jarayonida pedagogika oliy o'quv yurtlari tizimida muhim o'rin tutadi. Chunonchi, pedagogika fani bakalavr-o'qituvchilarni kasbga oid pedagogik bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantiradi. Eng muhimi bo'lajak o'qituvchiga pedagogik faoliyatda innovasion pedagogik texnologiyalar asosida ijodiy yondashishni o'rgatadi. Shuningdek bo'lajak o'qituvchining pedagogik madaniyati, muomala madaniyati kabi faoliyatlarni shakllantirish bilan birga, yoshlar murabbiysi kabi vazifalarini bajarish, ish usuli va uslublari bilan tanishtiradi va yangi zamonaviy tafakkurni tarkib topishiga ko'maklashadi.

O'qituvchilik kasbini egallash uchun albatta kasbiy qobiliyatlar bilan birga jismoniy hamda sog'lom bo'lishi va ruhiy hislatlari ham shakllangan bo'lmog'i darkor. Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida «Tarbiyachi – ustoz, yosh avlodni aql-idrokini o'stirish, barkamol yetuk inson etib yetishtirish uchun eng avvalo, o'zi shu talablarga javob berishi va shunday fazilatlarga ega bo'lishi kerak» – degan edi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o'rganib, shunday deydi: «Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanoat tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi».

Al Forobiy fikricha: «Musiqa - nodir san'at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir». «Kimki ilm hikmat o'rganmoqchi bo'lsa, avvalo ma'naviy barkamollikka erishmog'i lozim» – deydi Abu Rayhon Beruniy. – «Har kimki hikmat o'rganaman desa, yoshlikdan boshlasin, ilmli va dono kishlardan saboq olsin, shundagina u komillik darajasiga yetadi» deydi taniqli mutafakkir. Olim Ibn Sino esa: «Musiqa inson ruhini yo'ldoshidir», deydi. Shunday ekan. hozirgi davrda musiqa o'qituvchidan mas'uliyatni fanga yangicha yondashuvni, uning metodologiyasini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish orqali, kuylash, musiqa tinglash vositasida musiqiy madaniyatni tarkib toptirish. Musiqani san'at sifatida ongli idrok etish, undan ma'naviy ozuqa olish Vatanga muhabbat, tabiatga muhabbat, kattalarga hurmat, vatanparvar, komil inson qilib tarbiyalab voyaga yetkazish.

### Tekshirish uchun savollar

1. «Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» fani pedagogik fan sifatida qanday ahamiyatga ega?
2. «Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» fanining maqsad va vazifalari.
3. «Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi» fani qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega.
4. "Pedagogika" fani bo'lajak o'qituvchini shakllantirishda qanday o'rin tutadi.
5. O'qituvchilik kasbini egallash uchun insonda yana qanday xislatlar bo'lishi kerak.
6. Bu haqda olimlarimiz qanday fikrlar bildirganlar?

### Adabiyotlar


1. I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». –T. 2008.
2. M. Inomova «Pedagogika» ma'ruzalar matni. –T.: 2000.
3. O. Fayziyev. «O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish yo'llari». –T.: 1992.
4. R. Qodirov «Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash» o'quv qo'llanma. –T.: 1998.
5. D. Omonullayev, H. Nurmatov va boshqalar «Umumiy ta'lim maktablarda DTS o'quv dasturi». –T.: 1999.

## 1.2. Musiqa o'qituvchisining musiqa madaniyati darslariga tayyorgarligi

Xalqimiz kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning dunyoqarashiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslariga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini amalga oshirilishi munosabati bilan o'qituvchilarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlar diqqat markazidadir.

O'qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. o'qituvchi musiqa nazariyasini egallash bilan birga, pedagogik amaliyotni ham o'tgan bo'lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Mustaqil O'zbekistonimizning umumiy ta'lim maktablarida musiqa o'qituvchisi zimmasiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

– Ijodkor, ishbilarmon bo'lish.

– Milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallash.

– Musiqiy ixtisoslikka doir bilimlarni, psixologiya, pedagogik bilim va mahoratni hamda nazariy ilmlarni puxta bilish.

– Vatanparvarlik burchini to'g'ri anglash.

– O'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'rish hamda inson sifatida kamol topishiga ko'maklashish.

– Erkin va ijodiy fikrlay olish, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Dars shaklida olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari, o'qituvchining kundalik o'quv material tizimini bayon qilib berish, xilma-xil metodlardan foydalanish, o'qituvchilarni bilim ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borish hamda o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilik kasbini egallagan har bir inson avvallo, o'qituvchi shaxsiga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etmog'i lozim. Maxsus (musiqiy) kasbiy tayyorgarlikning to'la hajmi va mazmunini o'zlashtirgan bo'lishi, tanlangan maxsus (musiqa) ixtisosi yuzasidan kerakli darajada pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak. Bilimlarni bolalarga yetkaza olish qobiliyatiga, ziyraklik, kuzatuvchanlik, malakalariga ega bo'lmog'i lozim. Zero, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgata olishi, o'z ustida ishlashga jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga munosabat bildira olish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

**Musiqa o'qituvchisi musiqa madaniyati darslariga quyidagi talablar asosida tayyorlanishi kerak:**

– Har bir dars ma'lum bir maqsadni, amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lishi kerak.

– Har bir dars o'quvchilarni hayot tajribasiga va amaliyot bilan bog'langan bo'lishi shart.

– Har bir dars xilma-xil metod, usullar, innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda olib borilishi kerak.

– Darsga ajratilgan har bir daqiqadan unumli foydalanishi lozim.

Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, texnik vositalar va kompyuterlardan foydalanish kerak. Har bir musiqa darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Darslarga tayyorlanish jarayonida foydalanadigan musiqiy asarlar, bolalar didiga, yoshiga, qiziqishi, ovoz diapozoniga hamda fikrlash qobiliyatlariga mos kelishi zarur. Bu o'quvchilar orasida bir-biriga hurmat, do'stlik alomatlarini tarbiyalash bilan birga musiqadan zavq, madaniy ozuqa olish kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi. Shu bilan birga musiqa o'qituvchisi, musiqa darsida qo'shiqni sozsiz, ovoz bilan, soz bilan chiroyli ijro etish uslubi alohida o'rin tutadi. Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi

maqsad va vazifalar mazmunan bir soatlik dars samaradorligini oshiradi va o'quvchilarni musiqa darsiga qiziqishi, bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi, fikrlash qobiliyatini, faolligini takomillashtiradi.

O'qituvchi musiqa darslarida o'quvchilarni yalpi tarzda qamrab olish bilan birga, har qaysi o'quvchini individual xususiyatlarini va mavzuni o'zlashtirish darajasini hisobga olishi lozim. Har bir darsda mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda pedagogika va axborot texnologiyalardan foydalaniladi. O'qituvchi sinfni o'ziga jalb etib, yangi mavzuni yoritishi uchun o'zining jonli ijrosi, ovozi, mimikasi, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, texnika vositalaridan foydalanishi lozim. Albatta, o'qituvchi o'z fikrini qo'shiq haqidami, musiqa tinglashmi, musiqa savodini ishonchli dalillar bilan isbot qilib berishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'sir o'tkazishi uchun o'qituvchi maydonga **tashkilotchi** bo'lib tushadi. O'quvchilarni har bir kichik narsaga bo'lsa ham e'tiborni jalb qilib, fikrlashga va savollarga javob berishga o'rgata boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari quvnoq, o'yinqaroq, serharakat bo'lishadi shuni hisobga olgan holda, o'qituvchi bolalarni to'liqtirmasdam dars faoliyatlarini tez-tez o'zgartirib, ularni diqqat-e'tibordan chetda qoldirmasligi, ularni nazorat qilib, turli savollar, harakatlar, o'yinlar bilan musiqani idrok etishga o'rgatib borishi lozim. Bunday munosabatlar, o'quvchilarda o'ziga ishonchni, hozirjavoblikni, hamkorlikni tarbiyalaydi. O'rta sinflarda esa, musiqa o'qituvchisi o'quvchilar uchun **do'st** sifatida namoyon bo'lishi kerak. Ularga beradigan vazifalarni mohirlik, ishonch, mas'uliyat bilan tanishtirishi lozim. O'rta (5 sinf) sinf o'quvchilari o'qituvchini, rahbar, yo'l ko'rsatuvchi, muammolarni hal eta oluvchi, mehribon, dono, dunyodagi eng zukko, aqilli, mas'uliyatli, talabchan inson deb biladilar. Shuning uchun ham o'qituvchi bu dars maydoniga **yo'l ko'rsatuvchi**, rahbar bo'lib tushadi.

6-7 sinf o'quvchilarini musiqa darslarida esa **maslahatchi** sifatida maydonga tushib, muammoli savollarni birgalikda hal qilib, o'zi namuna sifatida ularni e'tiborini jalb etishi kerak. O'qituvchini o'zi dars jarayonida kiyinish madaniyati, nutq madaniyati, muomala madaniyati, ovozi, qarashlari, biror voqea-hodisalarga munosabat bildirishlari bilan o'quvchilar uchun ibrat bo'lishi lozim. Shunda o'quvchilar ustozni dars jarayonida o'rtaga tashlagan muammolarini, bergan vazifalarini astoydil bajarib kelishga harakat qiladilar. O'qituvchi o'quvchilar diqqat-e'tiborini yanada qozonishi uchun o'quvchilar darsga faol qatnashish, mustaqil fikr yurita olishi uchun darsdan tashqari paytda ham o'quvchilarni kuzatishi, to'garaklarga jalb etishi, ular bilan turli tadbirlarda qatnashishi, teatrlarga olib borishi, tarbiyaviy soatlar o'tkazib, oilasi bilan ham muloqotda bo'lishi yaxshi natijalar beradi. Buning uchun o'qituvchi zamon bilan hamnafas qadam tashlab, axborot texnologiyasi va ilg'or pedagogik texnologiya masalalarini yaxshi o'zlashtirishi va shular asosida milliy dastur talablarini hayotga tatbiq etishi lozim.

### Tekshirish uchun savollar

1. Dars samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilarni nimalarga o'rgatishi kerak?
2. Musiqa o'qituvchisi darsga qanday tayyorgarlik bilan boradi?
3. Musiqa o'qitivchisining musiqa darsidagi muomala madaniyati haqida so'zlab bering.
4. Musiqa o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi deganda nimani tushunasiz?

### Adabiyotlar

1. A.Q. Munavvarov. «Pedagogika». –T.: 1996.
2. G. M. Sharipova. «Musiqa o'qitish metodikasi» ma'ruza matni. –T.: 2001.
3. J. Majidov, R. Rajabov. «Maktabda musiqa ta'limi samaradorligini oshirishning didaktik asoslari». –T.: 1991.

## 1.3. Pedagogik mahorat va uning musiqa o'qituvchisi faoliyatidagi o'rni

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning asosiy maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, milliy tizimini yaratish. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Respublikamiz o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'qituvchi eng yuksak natijalarga erishib, faoliyatning yuksak darajada baholanishini va hamma tomondan tan olinishi har bir o'qituvchi oldida turgan asosiy vazifadir.

Chunki, ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki inson, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kechayotgan pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi. Buning uchun o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim.

Pedagogik mahorat – bu o'z ishini mohir ustasi, o'z kasbini mukammal egallagan, ijodkor, madaniyatli, kuchli intuitsiyaga ega bo'lgan, fahm-farosatli, bolalar qalbini qandayligini his eta olgan, pedagogik malakalar majmuasidir. Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan asosiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Pedagogik insonparvarlik yo'nalishi.
2. Ixtisos-mutaxassislikka doir bilimlar.
3. Pedagogik qobiliyat.
4. Pedagogik texnika (ko'nikma-iqtidor) (O'qituvchilik dunyodagi eng qadimgi kasblardan biridir).

Hozirgi davrda biz mustaqil O'zbekiston qurayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Hozirgi zamon o'qituvchisining shaxsi uchun eng muhim narsa insonparvarlik yo'nalishidir. O'qituvchi – juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega inson. U juda ko'p narsani bilishi uchun o'zi o'qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'lishi, o'z o'quvchilarini har kuni o'qishga o'rgatib borishi uchun o'zi muntazam o'qib o'rganishi, o'z bilimini to'ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak. Demak, o'qituvchining pedagogik mahoratini asosi o'z ustida ishlab borishi va mustaqil o'qitishidir.

Fan va madaniyatni rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarini qay yo'sinda olib borilishiga bog'liq. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta yoshlarni chuqur bilimli, axloq-odobli insonlar bo'lib voyaga yetishishlariga bog'liqdir.

**Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari**

Nutq malakalari: savodli gapirish, qisqa, lo'nda, hikoya qilish, ilmiy tushuntirish, suhbat, fikr va his-tuyg'ularni so'zda aniq ifodalash, mimika va pantomimika, aniq imo-ishora, ma'noli qarashlardan iborat.

Pedagog kasbini tanlagan har bir inson o'qitayotgan va tarbiyalayotgan o'quvchilarni javobgarligini o'z zimmasiga olishi kerak. U o'zining kasbiy tayyorgarligiga javob berish bilan birga o'qituvchi, tarbiyachi, muallim bo'lish huquqiga ega bo'lishi uchun juda ko'plab majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak. Muallimlik kasbining sharafliligi, nafaqat uning o'qituvchi, turli bilimlarni o'rgatuvchi va mohir tarbiyachi bo'lganligi uchungina emas, balki uning o'zi tanlagan kasb-hunar yo'nalishidagi barcha mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo'lgan fundamental fanlarni o'qitish va tarbiya berishni, psixologiya va pedagogika asoslarini a'lo darajada egallagan bo'lishi shart. Shu bilan birga haqiqiy muallim, turli darajadagi bilimga, xohish va irodaga hamda turli xil tarbiyaga ega bo'lgan talabalarni, ajoyib san'atkor kabi o'ziga

ergashtira olishi zarur. Bunday kasbiy pedagogik xususiyatga ega bo'lgan muallim o'ziga quyidagi majburiyatlarni olishi kerak:

**Birinchidan** – bo'lajak o'qituvchi, bo'lajak pedagoglik faoliyati uchun o'zining imkoniyatlarini baholashi, o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik davrida qanday kasbiy zaruriy sifatlarni shakllantirish kerakligini bilishi kerak.

**Ikkinchidan** – bo'lajak pedagog intellektual faoliyatining umumiy tomonlari (tafakkur, xotira, qabul qila olishi, ko'z oldiga keltirishi, e'tibor)ni xulq-atvor madaniyatini egallagan bo'lishi shart.

**Uchinchidan** – pedagog uchun majburiy bo'lgan dastlabki shart-sharoiti turli bo'lgan o'quvchilarini, o'zini tengquri deb qarashi va ularning xulq-atvori o'zaro aloqasidagi qonun-qoidalarni bilishi kerak. Pedagog o'quvchini va tarbiyalanuvchini uning barcha ijobiy va salbiy xususiyatlaridan qat'i nazar yaxshi bilishi va qabul qilishi shart.

**To'rtinchidan** – pedagog nafaqat talabalarni o'qitish faoliyatining tashkilotchisi, ma'lum ma'noda bilim, tarbiya berish bilan birga ularning kasbdoshi sifatida qatnashishi zurur. Bu esa, talabalar oldiga doimo o'zlarining tashkilotchilik, kommunikativ xususiyatlarini, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini rivojlantirib, amaliyot davrida samarali foydalanishga intilishlarini yuzaga keltiradi.

Pedagog talabadagi insoniylikni hurmat qilishi, o'zingizga qanday munosabatda bo'lishlarini xohlasa boshqalar ham shunday munosabatda bo'lishi lozim:

Pedagog doimo o'zini o'sishga, o'qishga undashi lozim, chunki kimki o'zi o'qimasa, boshqalarda o'qishga ishtiyoq tug'dira olmaydi.

Talabalarga bilimni shunday beringki, toki ular mavzularini o'zlashtirishga qiziqsin va bilimlarini o'zlashtirishga nazorat qilsin.

O'qitishning maqsadi faqat talabaga ma'lum bilimlarni berishdan iborat bo'lmay, ularga mustaqil ravishda o'qituvchini yordamisiz yuqori cho'qqilarni egallashga intilsin.

### Tekshirish uchun savollar

1. Pedagogik mahorat nima?
2. Pedagogik mahorat fanining mazmunini ochib bering.
3. Pedagogik mahorat fanining maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
4. Pedagogik mahorat tarkibiy qismlarini sanab bering.
5. Pedagogik kasbni tanlagan inson qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?

### Adabiyotlar

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.:1997.
2. I.A. Karimov. O'zbekiston: milliy itsiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: 1993.
3. M. Imomova. Pedagogika ma'ruzalar matni. –T.: 2000.

## 1.4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarini rejalashtirish

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari asosida, ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ko'ra 9 yillik umumiy o'rta ta'limi joriy etildi va majburiy-ixtiyoriy 3 yillik maxsus, jami 12 yillik ta'lim joriy etildi.

Musiqa fanidan Davlat Ta'lim Standartini joriy etilishi, milliy musiqiy merosimizdan foydalanishni hamda hududiy vohalarni san'ati va madaniyati, shu yerdagi mahalliy xalq an'analari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, DTS o'zining tuzilishiga va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va muvozanatini aks ettiradi. O'quvchi shaxsi uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda (1-7) sinflar uchun yangi dastur tuzildi. Dastur asosida, metodik qo'llanmalar, darsliklar, tavsiyanomalar yaratilmoqda. Yetti yillik musiqa o'qitish davrida o'quvchilarni go'zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Yangi dastur asosida musiqa darsini sifati, pedagogik va metodik jihatdan yuqori talab darajasiga ko'tariladi. Buning uchun o'qituvchi, ijodkor, o'z kasbini va o'quvchilarni sezuvchi, yaxshi cholg'uchi, metodika va pedagogika fanlarini puxta o'zlashtirgan inson bo'lishi kerak. Musiqa ta'limining milliy asosini tarkib toptirishda, fortepiano asbobi bilan birgalikda o'zbek xalq cholg'u asboblaridan ham foydalana olishi maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi, shuningdek, o'zbek xalq musiqa merosimiz tarixi va hozirgi kun talablarini kuzatib, o'rganib borishi shart. Chunki, maktabda musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Musiqa o'qituvchisi darslarga mavzularni tanlab, rejalashtirishda, ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan ham foydalanishi kerak. Musiqa darsida musiqa faoliyatlarini oddiydan murakkabga o'tish prinsipi asosida o'zaro mantiqiy bir butunlikka erishish o'qitishning rivojlantiruvchi, ta'limi va tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirish uchun zarur.

Umumiy ta'lim maktablarida o'qituvchi boshlang'ich (I–IV) sinf musiqa fani bo'yicha, quyidagi vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Chunki, boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limi poydevori qo'yiladi va shakllanadi.

1. O'quvchilarni musiqiy qobiliyatini (musiqiy o'quvi, ritmi tuyg'usi, diqqati, xotirasi, nutqi) ni o'stirish.
2. O'quvchilarni mehnatga, o'qishga, hayotga o'z-o'zini va atrofdagilarni hurmat qilishga, o'zgalar mehnatini qadrlashga o'rgatish.
3. Vatanga muhabbat, tabiatga muhabbat his-tuyg'ularini tarbiyalash.
4. Kuy va qo'shiqlar vositasida axloqiy-estetik tarbiyalash.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi har bir darsga ijodiy yondashib, yangi dastur talablariga muvofiq dars o'tish lozim ekan.

Musiqa fanidan bir o'quv yilda 2 marta, yarim yillik taqvim-mavzuli ish rejasi va har bir dars uchun reja-konspekt tuziladi. Yarim yillik ish rejasi boshlang'ich va o'rta sinflar uchun alohida-alohida tuziladi. Bunda o'quvchilarni yoshi (sinfi), ovoz diapozoni, musiqaga qiziqishi va qobiliyati, yil fasllari, bayramlar, yil, chorak, dars mavzulari) hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanib dars strukturasi asosida tuziladi. Ba'zi qo'shiqlarni, tinglash uchun asarlarni, o'qituvchi o'quvchilar istagi va yangi zamonaviy qo'shiqlar bilan dars rejasiga mos keladigan asarlarga o'zgartirish mumkin. Musiqa darslari asosan bir haftada bir soat o'tiladi. O'quv yili davomida esa quyidagi tartibda:

**I chorak = 9 soat**
**II chorak = 7 soat**
**III chorak = 10 soat**
**IV chorak = 8 soat**

Jami bir yilda 34 soat dars o'tiladi. Shuningdek, har bir o'quv yilida 10-12 ta qo'shiq o'rgatiladi, shunga qarab, musiqa savodi va musiqa tinglash uchun asarlar tanlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari

asosan, bir ovozli qo'shiqlari sof unisonda kuylash malakalarini puxta o'zlashtiradi va asta-sekin ko'p ovozlikka o'tishga tayyorgarlik ko'riladi.

Ikkinchi sinfning ikkinchi yarmidan boshlab, ikki ovozli elementi bor qo'shiqlar kiritilgan. III-IV sinflarda o'quvchilarni ovoz apparatlari shakllangan bo'lib, ikki ovozli qo'shiqlarni kuylash, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shunga ko'ra oddiydan murakkabga prinsipi asosida musiqiy asarlar tanlanadi. Boshlang'ich sinfda dars strukturasi beshta faoliyat turidan iborat bo'ladi:

**1. Xor bo'lib qo'shiq kuylash.**
**2. Musiqa savodi.**
**3. Musiqa tinglash.**
**4. Musiqiy ritmik harakatlarni bajarish.**
**5. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish.**

O'rta (V–VII) sinflarda esa, dars faoliyati birmuncha kamayadi. Chunki, o'quvchilar ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Dars mazmuni chuqurlashib, o'quvchilar bilim va malakalarni kengaytirishga xizmat qiladi. O'rta sinflarda musiqa darsi uchta faoliyat asosida olib boriladi:

**1. Xor bo'lib qo'shiq kuylash.**
**2. Musiqa savodi.**
**3. Musiqa tinglash.**

Bunda boshlang'ich sinf (1–4) o'quvchilarini ovoz apparatlari shakllangan, musiqiy qobiliyatlari rivojlangan, musiqani tuzilishi, shakli musiqa ifoda vositalari va musiqa tinglash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'rta sinfdagi o'quvchilar uchun V-VII sinf dasturi asosida darslarni rejalashtirib, ikki ovozli mashqlar, ikki ovozli qo'shiqlar, musiqa savodi va musiqa tinglash uchun murakkabroq asarlar tanlanadi. Har bir faoliyat bir-biri bilan bog'liq bo'lib, dars mazmunini ya'ni bir butunlikni ta'minlaydi. Chorak mavzulari yil mavzusiga bo'ysunadi. Dars samaradorligini oshirishda o'quvchilarni bilim va malakalarini baholash muhim pedagogik ahamiyatga egadir. Qo'shiq kuylash bilan birga, ularni ko'proq fikr bildirishga, bahsga tortish va amaliy faoliyatga ko'proq jalb etish va odilona baholash lozim bo'ladi. Shunday qilib, musiqa darslari yangi dastur asosida rejalashtirib, o'quvchilarni milliy musiqamizga mehr-muhabbat va qiziqish uyg'otib, barkamol yetuk inson qilib tarbiyalaydi. Musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish va musiqiy taassurotni tarkib toptirish hamda musiqani san'at sifatida ongli idrok etishdan iborat. Natijada bolalarda musiqa haqida mushohada qilishning boshlang'ich asoslari vujudga keladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

– O'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
– Musiqani (tinglash) idrok etish malakasini o'stirish.
– Kuylash malakasini o'stirish
– Musiqiy badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy-estetik tarbiyalash.
– Musiqani idrok etish orqali, musiqiy o'quvni o'stirish va musiqa tinglash madaniyatini shakllantirish.

Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarni musiqa madaniyati darslariga yanada ko'proq jalb etish, musiqa san'atiga, musiqa tinglash, qo'shiq kuylashga qiziqtirish, o'zbek xalq musiqasi janrlari, mumtoz asarlar, maqomlar mahalliy uslubdagi asarlar bilan tanishtirib va ularni dunyoqarashini boyitish. Musiqa darslari boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqa darsi eng avvalo tarbiya darsidir. Musiqa darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal,

ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsini hayot bilan bog'lashga, darsni mazmunli, qiziqarli qilib olib borishga yordam beradi. Shunday qilib, musiqa darslaridagi barcha faoliyatlarining maqsadi va mazmuni musiqani hayot bilan bog'lab darsning hamma faoliyatlarini bir-biri bilan uzviy olib borishdan iborat.

## Tekshirish uchun savollar

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darsining ahamiyati nimadan iborat?
2. Musiqa madaniyati darslarini rejalashtirganda DTS o'quv dasturining ahamiyati.
3. Musiqa madaniyati darslari boshlang'ich sinflarda qanday rejalashtiriladi?
4. Musiqa madaniyati darslari o'rta sinflarda qanday rejalashtiriladi?
5. Musiqa o'qituvchisining zamonaviy talablarga mos qilib darslarni rejalashtirishda nimalarga ahamiyat berishi kerak?

## Adabiyotlar

1. D. Omonullayev. «O'zbek maktablarida musiqa ta'limi mazmuniga bo'lgan zamonaviy talablar» –T.: 1990.
2. H. Nurmatov, Q. Mamirov. «Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi». –T.: 1999.
3. G. Sharipova. «Musiqa o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanma. –T.: 2004.

# II BOB

# MUSIQA O‘QITISH METODIKASI PRAKTIKUMI FANINING METODOLOGIK ASOSLARI

## 2.1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqamadaniyati darslarini rejalashtirish

(yil, chorak mavzulari nomlari)

### 1-amaliy mashg‘ulot

<table>
<tr><td>1-sinf<br>Yil mavzusi: «Biz musiqani sevamiz»<br>I chorak: Biz yoqtirgan kuy va qo‘shiqlar.<br>II chorak: Musiqali – ritmik o‘yinlar, raqs va qo‘shiqlar.<br>III chorak: Musiqa olamiga sayohat.<br>IV chorak: Xushnavo milliy cholg‘ularimiz.</td><td>2- sinf<br>Yil mavzusi: «Ijrochilik turlari. Musiqa ifoda vositalari».<br>I chorak: Yakkanavozlik, jo‘rnavozlik.<br>II chorak: Yakkaovozlik va yakkaxonlik cholg‘u va xonandalar dastalari.<br>III chorak: Kuy nima? Kuyda nimalar ifodalanadi?<br>IV chorak: Musiqaning ifoda vositalari</td></tr>
<tr><td>3-sinf<br>Yil mavzusi: «Musiqada shakl va mazmun»<br>I chorak: Musiqada ifoda vositalari<br>II chorak: Xor va orkestr.<br>III chorak: Musiqaning tuzilishi.<br>IV chorak: Oddiy musiqa shakllari. Band va naqarot.</td><td>4-sinf<br>Yil mavzusi: «O‘zbek xalq musiqa ijodi»<br>I chorak: O‘zbek xalq aytishuvlari va cholg‘ulari<br>II chorak: Bayram va marosim qo‘shiqlari.<br>III chorak: Mavsum qo‘shiqlari.<br>IV chorak: Bahor fasli qo‘shiqlari.</td></tr>
<tr><td>5-sinf<br>Yil mavzusi: «Kompozitorlik musiqa janri»<br>I chorak: O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri. Xor san’ati.<br>II chorak: Simfonik orkestr. Musiqada vokal-simfonik janrlar.<br>III chorak: Sahnaviy musiqa asarlari. Balet va raqs san’ati. Musiqali drama va komediya.<br>IV chorak: Opera sa’nati. O‘zbek musiqasida opera janri.</td><td>6-sinf<br>Yil mavzusi: «Mumtoz musiqa»<br>I chorak: Mumtoz musiqa haqida ma’lumot.<br>II chorak: Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari.<br>III chorak: Sharq xalqlari mumtoz musiqasi.<br>IV chorak: Yevropa mumtoz musiqasi bilan tanishuv.</td></tr>
<tr><td colspan="2">7-sinf<br>Yil mavzusi: «O‘zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari»<br>I chorak: Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand-Buxoro vohalarining musiqiy uslublari bilan tanishuv.<br>II chorak: Farg‘ona-Toshkent hamda Xorazm vohalarining musiqiy uslublari bilan tanishuv.<br>III chorak: Maqom. Shashmaqom.<br>IV chorak: Xorazm maqomlari. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari.</td></tr>
</table>

## 1-SINF

## YIL MAVZU: «BIZ MUSIQANI SEVAMIZ»

## 1-CHORAK MAVZUSI: «BIZ YOQTIRGAN KUY VA QO'SHIQLAR»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | O'rgatilgan qo'shiqlar nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqaga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O'quvchilarga tanish bo'lgan qo'shiqlarini takrorlab, mustahkamlash. «Shamol, shamol», S.Abramova musiqasi, X. Muhammadaliyev she'ri. Qo'shiqni xor bo'lib kuylash. | Ashulachilik holati va nafasni to'g'ri olishga o'rgatish | Musiqa xonasidagi cholg'u asboblar bilan tanishtirish | «O'zbekiston Davlat Madhiyasi» M. Burxonov musiqasi, A. Oripov she'ri. Musiqa tinglash jarayonida o'quvchilarning o'zini tutishi haqida ma'lumot | Qo'shiq, raqs, marshga doir harakatlar bajarish | - | 1 |
| 2. | O'tgan darsda o'rgatilgan «Shamol, shamol» qo'shig'ini oxirigacha o'rgatish. Intonatsiyasi ustida ishlash | Talaffuz ustida ishlash. «Oftob chiqdi olamga» mashqini kuylatish | Baland, past tovushlar haqida ma'lumot | «Marsh» S. Abramova musiqasi | «Marsh» ostida harakatlar bajarish | - | 1 |
| 3. | «Baxtiy erkatoy», T. Toshmatov musiqasi, X. Muxammad she'ri | Unli tovushni yumaloq ovozlar bilan kuylash. Da-de-di-do-du | Uzun-qisqa tovushlarni ajratish | «Chamanda gul» o'zbek xalq qo'shig'ini o'rganish | Raqsga mos harakatlar bajarish | - | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish badiiy ijrosiga erishish | Erkin va ravon kuylash uchun mashq kuylash | «Registr» haqida ma'lumot | «Chertmak» o'zbek xalq musiqasi | Raqs va marshga mos harakatlar | - | 1 |
| 5. | «Shirintoy», A. Berlin musiqasi, Abduazimova she'ri | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | «Kuy» haqida ma'lumot | «Jamalagim» D. Zokirov musiqasi. «Dilxiroj» o'zbek xalq kuyi | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | - | 1 |
| 6. | Qo'shiqni 2-kupletini o'rgatish, badiiy ijroga erishish. | Ansambl ustida ishlash | Kuyning grafik chiziqlari bilan tanishtirish | «Jamalagim» D. Zokirov musiqasi. «Dilxiroj» o'zbek xalq kuyi | «Chertmak» kuyiga mos harakatlar bajarish | - | 1 |
| 7. | «Kuz», S. Abramova musiqasi , N. Ro'zimuxammedov she'ri | Ravon va tekis ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Skripka kaliti haqida ma'lumot | «Andijon polkasi» o'zbek xalq kuyi | Qo'shiq va raqsga mos harakatlarni o'rgatish | - | 1 |
| 8. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish, badiiy ijroga erishish | Talaffuz ustida ishlash | Nota yo'llari bilan tanishtirish | «Andijon polkasi» O'zbek xalq kuyi | Marsh, raqs kuylariga mos harakatlar bajarish | - | 1 |
| 9. | CHORAK | DAVOMIDA | O'TILGANLARNI | TAKRORLASH | | | 1 |

## 1-SINF

## 2-CHORAK MAVZUSI: «MUSIQALI – RITMIK O'YINLAR, RAQS VA QO'SHIQLAR»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | O'rgatilgan qo'shiqlar nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqaga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Ayiqpolvonlar bog'chasi», T.Toshmatov musiqasi, X. Muxammad she'ri | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar | Kompozitor haqida ma'lumot | «Marsh», S. Abramova musiqasi. Janr haqida ma'lumot | «Ayiqpolvonlar bog'chasi» qo'shig'iga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblari bilan tanishtirish | 1 |
| 2. | Qo'shiqni sof intonatsiyaga erishib kuylash | Talaffuzga xos mashq kuylash | Ijrochi haqida ma'lumot | «Oq terakmi – ko'k terak» xalq qo'shig'i | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarining turlari | 1 |
| 3. | «Nisholda», D. Omonullayeva musiqasi, R. Tolipov she'ri | Yengil, jonli, jozibali qilib mashqlar kuylash | «Raqs» janri haqida suhbat | Tinglangan asarni aniqlash «Raqs» | «Laylak qor» qo'shig'iga mos harakatlar bajarish | Uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | «Nisholda» qo'shig'ini ritmik sur'ati ustida ishlash. Sof intonatsiyaga erishish. | Sof unisonga erishish uchun mashqlar kuylash | Lad haqida ma'lumot | «Qo'g'irchog'im», S. Abramova musiqasi | Marshga mos harakatlar bajarish | Uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Yangi yil archasi», A. Berlin musiqasi, A. Abdushukurova she'ri | Nafasni to'g'ri olib, rejalab kuylash uchun mashqlar | Tinglovchi haqida ma'lumot | «Jamalagim» kuyiga mos harakat bajarish | Raqs harakatlarini bajarish | Kuyga uchburchak cholg'u asbobida jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | «Yangi yil archasi» qo'shig'ini to'liq o'rgatish, qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish | Unli tovushlarni yumaloq ovozlar bilan kuylash | Mayin yumaloq ovozda kuylash | «Jamalagim» o'zbek xalq kuyi. D. Zokirov f-no uchun moslashtirgan | Raqs harakatlarini bajarish | Kuyga chapak chalib jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish. Dinamik belgilari ustida ishlash | Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashq | Qo'shiq, raqs, marsh haqida ma'lumot | «Qo'zichog'im – o'yinchoq» kuyini tinglash | «Jamalagim» kuyiga mos harakatlar bilan raqsga tushish | Uchburchak va doirachada jo'r bo'lish | 1 |

# 1-SINF

## 3-CHORAK MAVZUSI: «MUSIQA OLAMIGA SAYOHAT»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | O'rgatiladigan qo'shiqlar | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqaga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Berilgan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Laylak qor», S. Abramova musiqasi, Yo. Isxoqov she'ri | Sof intonatsiyaga va diksiyaga erishish uchun mashqlar | Majo'r va minorladi bilan tanishtirish | «Qorda o'yin», S. Abramova musiqasi | «Marsh» musiqasiga mos yengil qadam tashlash | «Laylak qor» qo'shig'iga uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish va badiiy ijrosiga erishish | Nafas olish ustida ishlash | Skripka kalitini joylanishi | «Dutor bayoti», o'zbek xalq kuyi | Qo'shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish | Doira va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 3. | "Etikcham», D. Omonullayeva mus., P. Mo'min she'ri | Tovush qatorni barmoqlar yordamida ko'rsatib kuylash | Sol notasini joy-lanishi, notalar nomini rebusda tuzish | «Dutor bayoti» kuyiga jo'r bo'lish | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Chapak va doirachalarda «Hazil» musiqa asariga jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | «Etikcham» qo'shig'ini to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Mayin va ravon ovoz hosil qilish | Mi notasini joylashishi | O'zbek cholg'u asbobi, «Dutor» haqida ma'lumot berish | Qo'shiqni harakatlar bilan ijro etish | Chapak bilan baraban cholg'u asbobida jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Dilorommning qo'shig'i», D. Omonullayeva mus., I. Donish she'ri | Undosh tovushlarni qisqa, unli tovushlarni cho'zib kuylash | Si notasining joylanishi | «Olmacha anor», o'zbek xalq kuyi | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Chapak bilan baraban cholg'u asbobida jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish va badiiy ijrosiga erishish | Chiziq ustidagi notalarni kuylash (mi, sol, si) | Fa notasining joylanishi | «Chitti gul», o'zbek xalq kuyi | Qo'shiq ostida harakatlar bajarish | Raqsga mos cholg'u asboblarda jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | «Buvijonim», D. Omonullayeva mus., Y. Suyarov she'ri | Yengil, jonli, jozibali qilib mashq kuylash | Lya notasining joylanishi | «Chamanda gul», o'zbek xalq kuyi | Raqsga mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 8. | Qo'shiqni 2-kuple-tini o'rgatish | Nafasni rejaga solish uchun mashq | Do 2-notasining joylashishi | «Navro'z», o'zbek xalq kuyi | Raqsga mos harakatlar bajarish | Raqs kuyini ifodali ijro etish | 1 |
| 9. | Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish | Tovush qatorini mayin va ravon qilib barmoqlar yordamida kuylash | Do notasining joylanishi | «Navro'z», o'zbek xalq kuyi | «Navro'z» kuyiga mos harakatlar bajarish | Uchburchak va doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 10. | CHORAK | DAVOMIDA | O'TILGANLARNI | TAKRORLASH | | | |

## 1-SINF
## 4-CHORAK MAVZUSI: «XUSHNAVO MILLIY CHOLG'ULARIMIZ»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | O'rgatilgan qo'shiqlar nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqaga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Qadim Turon», N. Norxo'jayev mus., P. Mo'min she'ri | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar | Tovushqator bilan to'liq tanishtirish | «Olmacha anor», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos harakatlar bajarish | Rumba, doiracha va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish badiiy ijrosiga erishish | Talaffuz ustida ishlash | Rebuslar tuzish | «Bahor valsi», M. Mirzayev musiqasi | Valsga mos harakatlar bajarish | Uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 3. | «Kapalak», S. Boboyev musiqasi, Z. Diyor she'ri | Sof unisonga erishish uchun mashqlar kuylash | Repriza haqida ma'lumot | «Dutor bayoti», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos harakatlar bajarish | Barabancha, doiracha, shaqildoqda jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Nafasni yo'lga qo'yish uchun mashqlar | Notalarni bo'linishi va sanalishi | "Dutor bayoti", o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Bolalar va g'ozlar», N. Najmiddinov musiqasi | Unli tovushlarini cho'zib, undosh tovushlarni uzib kuylash | Nuqtali notalar haqida ma'lumot | «Dilxiroj», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos harakatlar bajarish | Rumba va doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Erkin va ravon kuylash uchun mashqlar | Pauzalar bilan tanishtirish | «Dilxiroj», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | «Oy bo'lamiz – toy bo'lamiz», X. Rahimov musiqasi, S. Barnoyev she'ri | Ansambl va soz ustida ishlash | Pauzalarning bo'linishi va sanalishi | «Chertmak», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos chapak harakatlarini bajarish | Rumba va doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 8. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar | Notalar va pauzalar haqidagi ma'lumotlarni mustahkamlash | «Chertmak», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | 1 |



Y-7768/1
Nizomiy nomli TDPU Axborot-resurs markazi

## 2-SINF
## YIL MAVZUSI: «IJROCHILIK TURLARI. MUSIQA IFODA VOSITALARI».
## 1-CHORAK MAVZUSI: «YAKKANAVOZLIK, JO'RNAVOZLIK»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «O'zbekiston Davlat Madhiyasi», M. Burxonov musiqasi, A. Oripov she'ri | «Salom bolalar», mashqini kuylash | Fortapiano va rubob asboblari haqida ma'lumot | O'tilgan qo'shiq-larni eslash, yozgi ta'til haqida suhbat | «Andijon polkasi" kuyiga mos harakatlar bajarish | – | 1 |
| 2. | "O'zbekiston Davlat Madhiyasi"ni ifodali, tantanavor qilib kuylashga o'rgatish | Tekis va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Qo'shiq, raqs, Marsh janrlari bilan tanishuv | Ushbu janrlarga mos kuy ijro etish | Marshga mos qadam tashlash | – | 1 |
| 3. | «Bolalar qo'shig'i», X. Hasanova musiqasi, Mirshakar she'ri | «Oftob chiqdi *olamga» mashqini* kuylash | Qo'l harakatlari yordamida mayin va osoyishta kuylash | «Futbolistlar», S. *Abramova* musiqasi | Marshga mos harakatlar bajarish | Barabanda qoshiq, doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Talaffuz uchun mashqlar kuylash | Skripka kaliti, nota yo'llari bilan tanishuv | "Polka», M. Glinka musiqasi | "Polka"ga mos harakat bajarish | Uchburchak cholg'u asbobida jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Xumo qushim», D. Omonullayeva mus., X. Muxammad she'ri | «Do majo'r» tovush qatorini kuylash | Sol kaliti va chiziq ustidagi notalar bilan tanishuv | «Dutor bayoti», o'zbek xalq musiqasi | Kuyga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Dinamik belgilari ustida ishlash | Intonatsiyaga doir mashqlar kuylash | Chiziq orasidagi notalar bilan tanishuv | O'zbek xalq cholg'u asboblarini eslash | O'zbek raqs harakatlarini bajarish | – | 1 |
| 7. | «Xakkalar», N. Norxo'jayev musiqasi, N. Orifjonov she'ri | Sof unison ustida ishlash | Kompozitor haqida ma'lumot, notalar nomiga rebus tuzish | «Oromgoh», o'zbek xalq kuyi | «Xakkalar» qo'shig'iga mos harakatlar bajarish | Metalafonda jo'r bo'lish | 1 |
| 8. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Diksiyaga mos mashqlar kuylash | Grafik chizmalarga qarab qo'l harakati yordamida kuylash | Raqs, marsh, qo'shiq kuylarini tinglash | Raqsga mos harakatlar bajarish | – | 1 |
| 9. | CHORAK | DAVOMIDA | O'TILGANLARNI | TAKRORLASH | | | 1 |

## 2-SINF
## 2-CHORAK MAVZUSI: «YAKKANAVOZLIK VA YAKKAXONLIK. CHOLG'U VA XONANDALAR DASTALARI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Paxtaoy», F. Nazarov musiqasi, T. Ilxomov she'ri | Erkin, mayin, ovozda mashqlar kuylash | Turg'un tovushlar | O'zbek xalq kuylari haqida suhbat | «Dutor bayoti», o'zbek xalq kuyiga mos harakatlar bajarish | Doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish | Intonatsiya ustida ishlash | Tovush qatoridagi turg'un bo'lmagan tovushlar | «Durdona», T.Azimov musiqasi | Musiqaga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | 1 |
| 3. | «O'ynasangchi tipratikon» N. Norxo'jayev mus., P. Mo'min she'ri | Nafasni rejaga solish uchun mashq | Sol notasini joylashishi | «Cho'li iroq», o'zbek xalq kuyi | Tinglangan asarni tasvirlash, kuyga mos harakatlar bajarish | Doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Uzib-uzib kuylashni o'rganish | Mi-sol-si notalarini joylashishi | «Cho'li iroq», o'zbek xalq kuyi | Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish | Uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Yangi yilim – yaxshi yilim» D. Zokirov musiqasi, P. Mo'min she'ri | Legatto va stakatto kuylash | Fa, lya, do notalarini ijro etish | «Usmoniya», o'zbek xalq kuyini tinglash | Kuyga mos harakatlar bajarish | Chapak chalib jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish. Badiiy ijrosiga erishish | Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar | Yordamchi chiziqdagi notalar bilan tanishtirish | «Usmoniya», o'zbek xalq kuyini tinglash | Kuyga mos harakatlar bajarish | Uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH | | | | | | 1 |

## 2-SINF

## 3-CHORAK MAVZUSI: «KUY NIMA? KUYDA NIMALAR IFODALANADI»?

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Qish chog'lari», F. Nazarov musiqasi, P. Mo'min she'ri | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar | Sol kalitini joylashishi haqida ma'lumot | «Polka», M. Glinka musiqasi | Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish | – | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Zatakt talaffuzi ustida ishlash | Tovushlar qatorini legatto va stakattoda kuylash | Sol, si, mi notalarining joylashishi | «Polka», M. Glinka musiqasi | Kuyga mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 3. | Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish | Nafasni rejalab ishlatish uchun mashqlar | Notalarni barmoqlar yordamida kuylash | «Durdona», T. Azimov musiqasi | Kuyga mos chapak chalish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | «Inoq o'ynaymiz», F. Nazarov musiqasi, G'. Komilov she'ri | Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylash | Fa, lya, do notalarining joylanishi | «Durdona», T. Azimov musiqasi | Kuyga mos chapak chalish | Doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | Notalarga rebus tuzish | «Chaman ichra», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | «Nevaralar qo'shig'i», N. Norxo'jayev mus., S. Barnoyev she'ri | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Tovush qatoridagi notalarni barmoqda ko'rsatish | «Chaman ichra», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos harakatlar bajarish | Uchburchak va doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | Qo'shiqni to'liq o'rganish | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | Qo'shiq, raqs, marsh janrlarni eslash | «Marsh», F. Nazarov musiqasi | Musiqaga mos qadam tashlash | – | 1 |
| 8. | Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishib kuylash | Ansamblga erishish uchun mashq kuylash | Qo'shiq haqida ma'lumot | «Marsh», F. Nazarov musiqasi | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Doirachada va shaqildoqda jo'r bo'lish | 1 |
| 9. | «Qo'shig'imiz avjida», T. Azimov musiqasi, G'. Komilov she'ri | «Chitti gul» qo'shig'ini kuylash diksiyaga erishish | Raqs haqida ma'lumot | «Chitti gul», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | 1 |
| 10. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | CHORAK | DAVOMIDA | O'TILGANLARNI | TAKRORLASH | | 1 |

## 2-SINF
## 4-CHORAK MAVZUSI: «MUSIQANING IFODA VOSITALARI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqaga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «O'ynadik, hech to'ymadik», Sh. Yormatov musiqasi P. Mo'min she'ri | Erkin va mayin ovozda mashqlar kuylash | Lad haqida ma'lumot | «Bahor valsi», M. Mirzayev mus. tinglab fikr bildirish | Valsga mos harakatlar bajarish | Chapak chalib jo'r bo'lish | 1 |
| 2. | Qoshiqni talaffuzi ustida ishlash | Nafasni rejaga solish uchun mashqlar kuylash | Major ladi haqida ma'lumot | «Bahor valsi», M. Mirzayev mus. | Valsga mos harakatlarni mustahkamlash | Uchburchak va doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 3. | Qoshiqni badiiy ijrosiga erishish | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | Minor ladi haqida ma'lumot | «Olmani otdim» musiqasini tinglash | Musiqaga mos harakatlar bajarish | Doiracha va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | «Muzqaymoq», A. Mansurov musiqasi, X. Qayumov she'ri | Nafasni rejaga solish uchun mashqlar kuylash | «Tembr» haqida ma'lumot | «Qo'shiq va raqs», F. Nazarov musiqasi | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Doiracha va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | Qo'shiqni naqaroti ustida ishlash | Tovushqatorni barmoqlar yordamida kuylash | «Repriza» haqida ma'lumot | «As bo'laman», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos harakatlar bajarish | Shaqildoq va rubobda jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | «G'ildiragim», Sh. Yormatov musiqasi, T. Baxromov she'ri | Artikulyatsiya apparatini ishga solib mashqlar kuylash | Dinamik belgilar bilan tanishtirish f-fortepiano | «Vals» – «Mahallada duv-duv gap» filmidan | Valsga mos harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | Qoshiqni sof intonatsiyaga badiiy ijrosiga erishish | Ikki ovozli mashqlar kuylash | S. Kreshchendo va Diminuendo haqida ma'lumot | «Chamanda gul», o'zbek xalq kuyi | Raqsga mos harakatlar bajarish | Uchburchak, rumba, doiracada jo'r bo'lish | 1 |
| CHORAK DAVOMIDA OTILGANLARNI TAKRORLASH | | | | | | | 1 |

# 3-SINF

## YIL MAVZUSI: «MUSIQADA SHAKL VA MAZMUN»

## 1-CHORAK MAVZUSI: «MUSIQADA IFODA VOSITALARI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | "O'zbekiston Davlat Madhiyasi», M. Burxonov musiqasi, A. Oripov she'ri | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashq | 2-sinfda o'tilganlarni takrorlash | «Olmacha anor», o'zbek xalq kuyi | Raqsga mos harakatlar bajarish | – | 1 |
| 2. | Qo'shiq intonatsiyasi ustida ishlash, tantanavor mardona ijro etish | Stakatto va legattoga ovoz sozlash | Notalarning bo'linishi, Ladlar, janrlar haqida ma'lumot | «Jonon», M. Mirzayev musiqasi | Marshga mos harakatlar bajarish | – | 1 |
| 3. | «Salom bergan bolalar», N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri | Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar | Kuplet shakli bilan tanishtirish | M. Mirzayev hayoti va ijodi bilan tanishtirish | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Kuyga shaqildoq, uchburchak va doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Tovush qatorni barmoq bilan ko'rsatish | Repriza haqida ma'lumot | «Marsh» janrini eslatish | Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish | Rumba va marakassada jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Vatanjonim – Vatanim», D. Omonullayeva musiqasi, P. Mo'min she'ri | Nafas kengligiga mos qilib kuylash | O'lchov 2/4, 3/4 haqida ma'lumot | «Bayram marshi», D.Zokirov musiqasi | Marshga mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | Intonatsiya ustida ishlash. Qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish | Bir notada sof intonatsiyaga erishish | Mustahkamlash | D. Zokirovning hayoti va ijodi. «Bayram marshi» | Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish | Doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | «Oy vatanim», Sh. Yormatov musiqasi, P. Mo'min she'ri | Nafasni rejaga solish uchun mashq | Pauza haqida ma'lumot. | «Jamalagim», D.Zokirov musiqasi | Pauzali asarlarni tinglab harakatlar bajarish | Doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 8. | Qo'shiqni to'liq o'rganish Badiiy ijroga erishish | Artikulyatsiya apparatini ishga solib kuylash | Pauzalarning bo'linishi | «Rohat», o'zbek xalq kuyi | Raqs harakatlarini bajarish | Rumba va marakassada jo'r bo'lish | 1 |
| 9. | CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLANI TAKRORLASH | | | | | | 1 |

# 3-SINF
## 2-CHORAK MAVZUSI: «XOR VA ORKESTR»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Ochil paxtajon», M. Burxonov musiqasi, P. Mo'min she'ri | Mayin va ravon ovoz hosil qilish | Takt chizig'i haqida ma'lumot | «Rohat», o'zbek xalq kuyi | Tinglagan asarga mos raqs harakatlarini bajarish | Uchburchak va doirada jo'r bo'lish | 1 |
| 2. | Qo'shiqni ritmik usuli ustida ishlash. Badiiy ijrosiga erishish | Nafasni to'g'ri olish uchun mashq | Kuchli va kuchsiz hissalar haqida ma'lumot | «Boychechak», «Polvonim», M. Otajonov mus., Qambar Ota she'ri | Qo'shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish | Doirachada, qo'shiqqa va shaqildoqda jo'r bo'lish | 1 |
| 3. | «Qo'zichog'im o'yinchoq», A. Mansurov musiqasi, P. Mo'min she'ri | Talaffuz uchun mashqlar kuylash | Notalarning joylanishi | Xor haqida ma'lumot. Xor ijrosida qo'shiq matnlash | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Ritmik usuli ustida ishlash | «Oftob chiqdi olamga» mashqini kuylash | Notaga qarab tovushlarni kuylash | Xordagi ovozlar haqida ma'lumot | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Qish chog'lari», F. Nazarov musqasi, P. Mo'min she'ri | «O'ynaymiz kuylaymiz baxtli zamonda» mashqini kuylash | Temp haqida ma'lumot | Orkestr haqida ma'lumot. «Hosil to'yi» bayrami | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish. Dinamik belgilariga ahamiyat bergan holda badiiy ijro etish | Talaffuz uchun mashq | Ritm haqida ma'lumot | Orkestr turlari. Orkestr ijrosida kuy tinglash | Kuyga mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH | | | | | | 1 |

# 3-SINF
## 3-CHORAK MAVZUSI: «MUSIQANING TUZILISHI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Qor», Sh. Yormatov musiqasi, Zulfiya she'ri | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun | Major va minor ladi haqida ma'lumot | «Lazgi», Xorazm xalq kuyi | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Uchburchakda qo'shiqqa jo'r bo'lish | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijroga erishish | Artikulyatsiya apparati ishga solish uchun | Major va minor uchtovushligi | «Norim-norim» Xorazm xalq kuyi | Chapak chalib jo'r bo'ling | Shaqildoq, marakasada jo'r bo'lish | 1 |
| 3. | «Biz askarmiz», N. Norxo'jayev musiqasi, I. Rahmon she'ri | Sof intonatsiyaga erishish uchun | Ton va yarim ton haqida ma'lumot | «Andijon polkasi», o'zbek xalq kuyi | Chapak chalib kuyga jo'r bo'lish | Doiracha va rumbada jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | Qo'shiqni naqaroti ustida ishlash | Keng va ravon ovoz hosil qilish uchun | Alteratsiya belgilari haqida ma'lumot | «Rok qashqarchasi», o'zbek xalq kuyi | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Onajonim», S. Abramova musiqasi, Nurbek she'ri | «O'ynaymiz kuylaymiz baxtli zamonda» | Musiqa asarlarida alteratsiya belgilari joylanishi | «Lolacha», o'zbek xalq kuyi | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish. Solist va xor ijrosida kuylash | «Oftob chiqdi olamga» mashqini kuylash | Ladning asosiy bosqichlari. | «Oyijon boshginam og'ridi-yo», o'zbek xalq kuyi | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | - | 1 |
| 7. | «Gul terdi gullar», N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri | Talaffuz uchun mashq | Ritm haqida ma'lumot | «Laylak», G'. Qodirov qayta ishlagan | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | - | 1 |
| 8. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish. Dinamik belgilariga ahamiyat bergan holda badiiy ijro etish | Aniq va ravon ovoz hosil qilish uchun | O'lchov haqida ma'lumot | «Yallama yorim», o'zbek xalq kuyi | Tinglagan asarga mos harakatlar bajarish | - | 1 |
| 9. | «Navro'zim sho'x sozim», N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri | Talaffuz uchun mashq | Tovushqatorini kuylab, dirijyorlik qilish 2/4, 4/4 o'lchovi | «Yallama yorim», o'zbek xalq kuyi | — | Marakassa, uchburchak, doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 10. | CHORAK DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH | | | | | | 1 |

## 3-SINF

## 4-CHORAK MAVZUSI: «ODDIY MUSIQA SHAKLLARI. BAND VA NAQAROT»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Gullar mening kulganim», N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri | Sof intonatsiya va ansambl hosil qilish uchun mashq | Dinamika belgilari haqida ma'lumot | Musiqa shakllari haqida ma'lumot. Qo'shiqni ifodali ijro etish | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | – | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish. Diksiya ustida ishlash | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Piano r Forte f | «Farg'onacha tanovor», o'zbek xalq kuyi | Raqs harakatlarini bajarish | Uchburchak, marakassa, doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 3. | «Chumoli va Nor», A. Mansurov musiqasi, M. Qaxxorov she'ri | Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashq | Metstso piano mr | Band va naqarot haqida ma'lumot. Qo'shiq tinglash | Chapak chalib jo'r bo'lish | – | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o' rgatish. Talaffuz ustida ishlash | Undosh tovushlarni dona-dona qilib kuylash | Kreshchendo va Diminuendo haqida ma'lumot | «Quvnoq bolalar», A. Mansurov musiqasi, X. Muxammad she'ri | Musiqaga mos harakatlar bajarish | Uchburchak va doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Yalpiz», L. Mujdaboyeva musiqasi, Qambar Ota she'ri | Mayin va ravon ovoz hosil qilish | Dinamika belgilarini musiqa asarlaridagi o'rni | «Rondo» shakli haqida ma'lumot | Raqs harakatlarini bajarish | – | 1 |
| 6. | Qo'shiqni jozibali, jarangdor qilib o'rganish | Tovush qatorini har xil cho'zimda kuylash | Temp, o'lchov, alteratsiya belgilarini mustahkamlash | «Qo'zichog'im – o'yinchoq», A. Mansurov musiqasi, P. Mo'min she'ri | Qo'shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish | Doiracha, uchburchak va rumbada jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | «Quvnoq bolalar», A. Mansurov musiqasi, P. Mo'min she'ri | Ikki ovozli mashq kuylash | «Dinamika belgilari» mavzusini mustahkamlash | Band va naqarot shaklidagi qo'shiqlarni kuylash | Qo'shiqqa mos harakatlar bajarish | Ansambl bo'lib jo'r bo'lish | 1 |
| 8. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish | CHORAK | DAVOMIDA | O'TILGANLARNI | TAKRORLASH | | 1 |

# 4-SINF

## YIL MAVZUSI: «O‘ZBEK XALQ MUSIQA IJODI»

## 1-CHORAK MAVZUSI: «O‘ZBEK XALQ AYTISHUVLARI VA CHOLG‘ULARI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo‘shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi», M. Burxonov musiqasi, A. Oripov she’ri | Tekis va ravon ovoz hosil qilish | O‘tgan o‘quv yilida o‘tilganlarni takrorlash | O‘zbek xalq musiqasi haqida ma’lumot | Tinglangan kuyga mos harakatlar bajarish | – | 1 |
| 2. | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish. Badiiy ijroga erishish | Talaffuz uchun mashq | Tovush qatori haqida ma’lumot | O‘zbek xalq musiqasi haqida ma’lumot | Tinglangan kuyga mos harakatlar bajarish | – | 1 |
| 3 | «O‘zbekistonim», L. Mujdaboyeva musiqasi, Qambar Ota she’ri | Sof intonatsiya uchun mashqlar kuylash | Lad haqida ma’lumot | Ommaviy janrlar bilan tanishtirish | Kuyga mos harakatlar bajarish | Doirachada, uchburchakda jo‘r bo‘lish | 1 |
| 4 | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish. Badiiy ijroga erishish | Nafasni rejalab kuylash uchun mashqlar | Major va minor ladi haqida ma’lumot | Lirik qo‘shiqlar «Qari navo», o‘zbek xalq kuyi | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Doirachada, uchburchakda jo‘r bo‘lish | 1 |
| 5. | «Oq paxta terdik, terdik», N. Norxo‘jayev musiqasi, P. Mo‘min she’ri | Ikki ovozli mashqlar | Major uch tovushligining tuzilishi | Terma qo‘shiqlar haqida ma’lumot | Qo‘shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish | Rumba va marakassada jo‘r bo‘lish | 1 |
| 6. | Qo‘shiqni badiiy ijrosiga erishish | Stakatto kuylash uchun mashq | Minor uch tovushligining tuzilishi | «Katta ashula» klassik qo‘shiqlar | Qo‘shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish | Uchburchakda va marakassada jo‘r bo‘lish | 1 |
| 7. | «Aziz ustozlar», S. Boboyev musiqasi, To‘lqin she’ri | Nafasni yo‘lga qo‘yish uchun mashqlar | O‘lchov haqida ma’lumot | «Ona allalaridan» tinglash | Qo‘shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish | Doirachada, uchburchakda jo‘r bo‘lish | 1 |
| 8. | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Tekis va ravon kuylash uchun mashqlar | Dirijyorlik qilish harakatlari 2/4, 3/4. | «Lapar» haqida ma’lumot «Ililla yor» | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Rumba va marakassada jo‘r bo‘lish | 1 |
| 9. | Qo‘shiqni badiiy ijrosiga erishish | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Murakkab o‘lchovlar | «Ey nozanin», Muqimiy she’ri, xalq kuyi | Qo‘shiqqa mos raqs harakatlarini bajarish | Uchburchakda va marakassada jo‘r bo‘lish | 1 |
| 10. | CHORAK DAVOMIDA O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH | | | | | | 1 |

# 4-SINF
## 2-CHORAK MAVZUSI: «BAYRAM VA MAROSIM QO'SHIQLARI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bulish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «O'zbekistonim», L. Mujdaboyeva musiqasi, Qambar Ota she'ri | Sof intonatsiyaga erishish | Tovush qatorlarini 2/4, 3/4 o'lchovlarida kuylash | «Qari navo», lirik qo'shiqlar haqida ma'lumot | Kuyga mos harakatlar bajarish | Uchburchakda, doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 2. | Qo'shiq naqaroti ustida ishlash | Ikki ovozli mashqlar kuylash | «Pauza» haqida ma'lumot | Bastakorlar haqida ma'lumot | | | 1 |
| 3. | «O'zbekiston» qo'shig'ini badiiy ijrosiga erishish | Ravon va tekis ovoz hosil qilish uchun mashq | Pauzalarning bo'linishi | «Yangi tanovar», M. Mirzayev musiqasi | Kuyga mos raqs harakatlarni bajarish | Marakassa va rumbada jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | «Yangi yil tilaklari» E.Shvars musiqasi, P. Mo'min she'ri | Talaffuz uchun mashqlar kuylash | Repriza haqida ma'lumot | «Mirzacho'l» suitasi S. Yudakov musiqasi | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Uchburchakda, doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | Qo'shiqni to'liq o'rganish Badiiy ijrosiga erishish | Legatto hosil qilish uchun mashq | Volta haqida ma'lumot | «Dilxiroj», o'zbek xalq kuyi | Raqsga mos harakatlar bajarish | Doirada, uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | «Soglom avlod qo'shig'i», Sh. Yormatov musiqasi, S. Barnoyev she'ri | Ikki ovozli mashqlar kuylash | «Temp» haqida ma'lumot | Bolalar uchun o'zbek xalq qo'shiqlari, «Boychechak» | Raqsga mos harakatlar bajarish | Doirada, uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashq | Musiqa savodidan o'tilganlarni mustahkamlash | «Chamanda gul», o'zbek xalq kuyi | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Marakassa va rumbada jo'r b'lish | 1 |

# 4-SINF
## 3-CHORAK MAVZUSI: «MAVSUM QO'SHIQLARI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalalar cholg'u as-boblarida jo'r bo'lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | «Biz askarmiz», N. Norxo'jayev musiqasi, I. Rahimov she'ri | Jadal va yengil ovoz hosil qilish | Takt haqida ma'lumot | O'zbek xalq cholg'u asboblari va ularning turlari | Tinglagan asarga mos raqs harakatlarini bajarish | Doirada, uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 2. | Qo'shiqni mayin, chiroyli, yoqimli qilib kuylashga erishish | Ikki ovozli mashqlar kuylash | «Zatakt» – to'liqsiz takt haqida ma'lumot | Torli sozlar va urib chalinidigan asboblar haqida tushuncha | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Rumba va marakassada jo'r bo'lish | 1 |
| 3. | «Yaxshi bola», N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri | Do major tovush qatorini kuylash uchun mashq | Alteratsiya belgilari haqida ma'lumot | Puflab chalinadigan asboblar haqida ma'lumot | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 4. | Qo'shiqni ifodali qilib, aniq talaffuzga erishib kuylash | Artikulyatsiya apparatini ishga solish | Diez belgisi haqida ma'lumot | S. Yudakovning «Mirzacho'l» suitasi haqida suhbat | Tinglagan asarga mos raqs harakatlarini bajarish | Rumba va marakassada jo'r bo'lish | 1 |
| 5. | «Yaxshi bola» qo'shig'ini badiiy ijrosiga erishish | Nafasni to'g'ri olib kuylash uchun mashq | Bemol belgisi haqida ma'lumot | S. Yudakovning «Terimchilar» | Tinglagan asarga mos raqs harakatlarini bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 6. | «Hey lola», o'zbek xalq kuyi | Artikulyatsiya apparatini ishga solish | Bekar belgisi haqida ma'lumot | Tinglangan asarlarni mustahkamlash | Raqs harakatlarini bajarish | Shaqildoqda va doirachada jo'r bo'lish | 1 |
| 7. | Qo'shiqni aniq talaffuzi, sof intonatsiyasiga erishish | Legatto va sakattoga doir mashqlar kuylash | Musiqa savodini, o'tilganlarni mustahkamlash | «Bahor valsi", M. Mirzayev musiqasi | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |
| 8. | «Bizdan sizga kim kerak?», M. Nasimov musiqasi, Yamin Qurbon she'ri | Uch tovishni legatto va stakatto qilib kuylash | Takt haqida ma'lumot berish | Orkestr haqida tushuncha berish | Tinglagan asarga mos raqs harakatlarini bajarish | Rumba va marakassada jo'r bo'lish | 1 |
| 9. | «Bizdan sizga kim kerak?» qo'shig'ini to'liq o'rganish | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashq | Takt chizig'i haqida ma'lumot berish | Ansambl haqida ma'lumot berish | Kuyga mos raqs harakatlarini bajarish | – | 1 |
| 10. | Chorak davomida o'tilgan qo'shiqlarni takrorlash | Ijodiy va yengil ovoz hosil qilish uchun mashq | Chorak davomida o'rgatilganlarni mustahkamlash | Xor haqida ma'lumot berish | Tinglangan asarga mos raqs harakatlarini bajarish | Doirachada va uchburchakda jo'r bo'lish | 1 |

# 4-SINF
## 4-CHORAK MAVZUSI: «BAHOR FASLI QO‘SHIQLARI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo‘shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Musiqiy ritmik harakatlar bajarish | Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Bulbulcham», M. Nasimov musiqasi, M. Qo‘shoqov she’ri | Chuqur nafas hosil qilish uchun mashq | O‘lchovlarni takrorlash | Xor turlari. Bolalar xori | Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish | Rumba va marakassada jo‘r bo‘lish | 1 |
| 2. | Qo‘shiqni 2-kupletini o‘rganish | Mayin va ravon ovoz hosil qilish | Do major tovush qatorini butun, yarim, chorak o‘lchovlarda kuylash | Erkaklar xori, xotin-qizlar xori haqida | Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo‘r bo‘lish | 1 |
| 3. | «O‘zbekiston», G‘. Qodirov musiqasi, X. Muxammad she’ri | Diksiya, soz ansambl ustida ishlash | Alteratsiya belgilari haqidagi mavzuni mustahkamlash | B. Umidjonovning hayoti va ijodi haqida ma’lumot | – | – | 1 |
| 4. | Qo‘shiqni 2-kupletini o‘rganish | Keng nafas hosil qilish uchun mashq | «Temp» haqida ma’lumot. Tez temp, o‘rtacha temp, og‘ir temp | Sh. Yormatovning hayoti va ijodi haqida ma’lumot | – | – | |
| 5. | «Ikki qo‘ymang o‘qituvchim», Sh. Yormatov mus., P. Mo‘min she’ri | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashq | Nuqtali notalar haqida ma’lumot | «Qari navo», «Qari chumchuq», «Islom bobo» asarlarini tinglash | Tinglangan asarga mos harakatlar bajarish | Doirachada va uchburchakda jo‘r bo‘lish | 1 |
| 6. | Qo‘shiqni 2-kupletini to‘liq o‘rgatish | Sof intonatsiya va ansamblga erishish uchun mashq | Pauzalar haqida ma’lumotni takrorlash | Yalla, lapar, katta ashula asarlaridan namunalar tinglash | Tinglangan asarlarga mos harakatlar bajarish | O‘zbek xalq cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish | 1 |
| 7. | «Bolaligim gulbahor» J. Najmiddinov mus., O‘. Rashid she’ri | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashq | Musiqa savodidan o‘tilganlarni mustahkamlash | F. Nazarov, D. Zokirov, N. Norxo‘jayevlar ijodlari bilan tanishtirish | Tinglangan asarlarga mos harakatlar bajarish | Rumba va marakassada jo‘r bo‘lish | 1 |
| 8. | CHORAK | DAVOMIDA | O‘TILGANLARNI | TAKRORLASH | | | |

## 2.2. Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari strukturasi

### 2-amaliy mashg'ulot

**Darsning mavzusi:**

1. Qo'shiq kuylash (qo'shiqning nomi va mualliflari)

2. Musiqa savodi (mavzuning nomi)

3. Musiqa tinglash (asarning nomi va mualliflari)

4. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish (kuy va cholg'u asboblar nomi)

5. Musiqiy ritmik harakatlar bajarish (kuy nomi va ritmik harakatlar)

**Darsning maqsadi:**

Tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi.

Tarbiyaviy (odob, axloq, Vatanga muhabbat h. k.)

Ta'limiy (asarning musiqa ifoda vositalari ustida ishlash)

Rivojlantiruvchi (qo'shiq ustida ishlash, tinglash uchun asarni tahlil qilish)

**Darsning turi:**

Amaliy, noan'anaviy, aralash, yangi mavzu bayoni, mustaqil, o'yin, reja-konspekt

**Darsni jihozlash:**

Reja konspekti, kartochka, rasmlar, plakatlar, ko'rgazmali qurollar, notalar, cholg'u asboblar (pianino, rubob, doira), texnika vositalar (magnitafon, tasmadagi yozuvlar, kompyuter, disklar, slayd) darslik, notalar, o'quv qo'llanmalar.

**Darsning borishi:**

1. Tashkiliy qism: (davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifani tekshirish) (3-5 daq)

2. Vokal xor ishlari: (ovoz sozlash (5-7) daqiqa, oldingi qo'shiqni mustahkamlash, yangi qo'shiqni o'rgatish). (15-18 daq.)

3. Musiqa savodi: (mavzuni musiqiy misollar yordamida o'zlashtirish). (4-5 daq.)

4. Musiqa tinglash: (asarni tinglab tahlil qilish va ko'rgazmali qurollardan foydalanish) (5-8 daq.)

5. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish: (bolalar cholg'u asboblarini darsga tayyorlash) (3-4 daq.)

**O'quvchilarni baholash:**

O'quvchilarni baholash va ovoz chiqarib e'lon qilish. (3-4 daq.)

**Darsga yakun yasash va uyga vazifalar berish (1-2 daq.)**

# I-SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

## MAVZU: "OLTIN KUZ"

**Darsning mavzusi:** "Oltin kuz".

1. Qo'shiq: "Kuz" N. Ro'zimuhammedov she'ri, S. Abramova musiqasi.
2. Musiqa savodi: skripka yoki sol kaliti bilan tanishtirish.
3. Musiqa tinglash: «Dutor bayoti» o'zbek xalq kuyi.
4. Bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lish: «Kuz»qo'shig'iga mos bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish.
5. Musiqali ritmik harakatlar bajarish: «Yurish marshi» F. Nazarov musiqasi.

**Darsning maqsadi:**

1. Tarbiyaviy: Qo'shiq orqali tabiatga, Ona Vatanga, mehnatga muhabbat tuyg'usini tarbiyalash.
2. Ta'limiy: Notalarni nomlarini aniqlashga yordam beradigan belgi "Sol" kaliti bilan tanishtirish.
3. Rivojlantiruvchi: Marsh musiqasiga va qo'shig'iga mos ritmik harakatlarni bajarib o'quvchilarni ritm tuyg'usini rivojlantirish.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsni jihozlash:**

Darslik, notalar, reja-konspekt. musiqa cholg'u asbobi, SD disk, bolalar cholg'u asboblari: uchburchak, marakassa, doirachalar, rumba, yog'och qoshiqlar, kuz fasli tasvirlangan rasm.

**Darsning borishi:**

Marsh musiqasi ostida o'quvchilar sinfga kiradilar. Salomlashib o'tirishga ruxsat beraman. Davomatni aniqlab, uyga berilgan vazifani tekshiraman. O'quvchilarga kuylash holatini eslatib, (gavdani to'g'ri tutib, qo'llar tizzada, oyoqlar yerga tekkan holatda) ovozlarini sozlayman.

1. Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylataman.
2. Nafasni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun mashqlar kuylataman.

Olding darsda o'rgatilgan «Qadim Turon» (N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri) qo'shig'ini o'quvchilar bilan takrorlab, mustahkamlab, badiiy ijroga erishaman.

Song'ra yangi «Kuz» qo'shig'ini (I. Ro'zimuhammedov she'ri. S. Abramova musiqasi) ifodali qilib ijro etib beraman va musiqiy jumlalarga bo'lib o'rgataman.

Qo'shiqni mazmunini ochib beraman. Bu qo'shiq mazmunida «Kuz» fasli kelganligi, bog'lar sahovatliligi, mevalarni xil-xil pishganligi paxtalarni ochilganligi va ularni terish kerakligi haqida kuylanadi. Qo'shiq o'rtacha tez tempda, re major ladida, quvnoq xarakterda yozilgan.

Bu qo'shiqni mualliflari shoir Ibrohim Ro'zimuhammedov, kompozitor Sonya Abramova bastalagan. Sonya Abramova Buxoro shahrida tug'ilgan. Yoshligidan quvnoq, sho'x, musiqiy qobiliyatga ega qiz bo'lgan. Dastlab musiqa maktabida, Hamza nomidagi bilim yurtida a'lo baholar bilan o'qib, Toshkent Davlat Konservatoriyasini kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirgan. O'qishni muvaffaqiyatli tugatib, musiqa maktablarida va Hamza nomidagi pedagogika bilim yurtida o'qituvchi bo'lib ishlagan. U kattalar va bolalar uchun juda ko'p qo'shiqlar, pyesalar, marshlar, raqslar yozgan. Bolalarni juda yaxshi ko'rganligi uchun ularga atab 100 dan ortiq qo'shiqlar yaratgan. Bunga «Qo'g'irchog'im», «Laylak qor», «Onajonim», «Fil», «Buvijonim – buvijon», «Paqircham», «Shamol», «Soatim» kabi qo'shiqlarni misol keltirishimiz mumkin.

Endi mavzuni mustahkamlash uchun savollar beraman:

1. Qo'shiqni nomi nima?
2. Uning mualliflari kim?
3. Kuzda qanday mevalar pishadi?
4. Kuz faslining fazilatlarini sanab bering.
5. Qo'shiq qanday janrda yozilgan?

6. Bu qo'shiqqa mos qanday ritmik harakatlar bajarish mumkin?

Hozir or'gangan qo'shig'imiz mayin, yoqimli xarakterda ijro etiladi. Qo'shig'imizdagi notalar nomini aniqlash uchun nota chiziqlari boshiga sol kaliti qo'yiladi. Sol kaliti ikkinchi chiziqda yoziladi. Sol kalitini skripka kaliti deb atash mumkin. Skripka kaliti nota chiziqlarining boshida yozilib, I oktavadan boshlab, notalar kaliti aniqlab beradi.

CD diskda O'zbek xalq cholg'u asboblari ijrosida kuy tinglaymiz. Bu kuyning nomi «Dutor bayoti», siz uni qanday xarakterda va qanday janrda yozilganini aniqlab izohlab berasiz. Ushbu kuyga mos raqs harakatlarini bajarasiz. So'ngra «Kuz» qo'shig'iga bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lamiz. Oldin chapak chalib ritmini aniqlab, xotiramizda saqlab qolamiz. Hozir doskaga chiqib 5 ta o'quvchi cholg'u asbobida jo'r boladi. Shu tarzda navbatma-navbat doskaga chiqib bolalar cholg'u asbobida ushbu kuyga jo'r bo'ladilar. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholayman.

Darsdga yakun yasab uyga vazifa beraman.

Bugun sizlar bilan «Kuz» qo'shig'ini o'rgandik, lad haqida ma'lumotga ega bo'ldik. O'zbek xalq cholg'u asboblari bilan tanishdik. Uyga vazifa «Kuz» qo'shig'iga mos rasm chizib, qo'shiq so'zlarini yodlab keling. O'zbek xalq cholg'u asboblaridan dutor asbobini ham rasmini chizib keling. Shu bilan darsimiz tamom. Xayr.

## 2-SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

## MAVZU: «KUY NIMA? KUYDA NIMALAR IFODALANADI?»

**Darsning mavzusi:** «Kuy nima? Kuyda nimalar ifodalanadi?»

**Darsning maqsadi:**

O'quvchilarni mustaqil fikrlash, erkin so'zlash, o'zining mehnati bilan ko'proq natijaga erishishga o'rgatish.

**Darsni jihozlash:**

Reja-konspekt, 2-sinf uchun darslik, rasmlar, tarqatma kartochkalar, test savollari.

**Darsning turi:** Noan'anaviy.

**Darsning borishi:**

O'quvchilar bilan salomlashib, davomatni aniqlayman. O'quvchilarga bugungi darsimiz noan'anaviy tarzda, o'yin shaklida o'tilishini tanishtirib o'taman. Buning uchun turli xil rasmli kartochkalar yordamida sinf o'quvchilarini uch guruhga bo'lib, maxsus tayorlangan partalar atrofiga o'tkazaman. Uch guruhni gullar tasvirlangan kartochkalar yordamida nomlayman.

I guruh: «Rayhon» guruhi

II guruh: «Lola» guruhi

III guruh: «Binafsha» guruhi

Har bir guruhda (7-8 tadan o'quvchi bo'lishi mumkin)

O'quvchilarga o'yin shartlari va mezonlari tushuntiriladi. Har bir guruh belgilangan vaqtda, berilgan topshiriqni shoshmasdan o'ylab ko'rib, fikrlab, hamjihat bo'lib savollarga javob berishi kerakligini eslatib o'taman. Javoblar quyidagicha baholanadi:

5 ball – qizil kartochka (to'g'ri, to'liq, tez javob uchun)

4 ball – yashil kartochka (to'g'ri lekin to'liq emas)

3 ball – oq kartochka (javobda kamchiligi bor)

O'yinimiz uch shartdan iborat bo'ladi.

Shunday qilib I shart bilan tanishtiraman.

Aqliy hujum texnologiyasi: fikriy bog'liqlik, xotira, mantiqni shakllantirish uchun.

Uch guruh uchun sharlar ichiga savollar solib doskaga ilib qo'yaman (har bir guruh uchun 3 tadan savol solingan sharlar). Har bir guruhdan bittadan o'quvchilarni navbat bilan doskaga chiqarib, sharni yorib savolga komanda bilan muhokama qilib javob berish uchun topshiriq beraman.

**1-shart**

**I guruh uchun sharlar ichidagi savollar:**

1. Musiqiy asarni cholg'u asboblarida birgalikda ijro etilishi nima deb ataladi?
2. Kuyni bir qo'shiqchi yoki sozanda ijro etishi nima deb ataladi?
3. Kompozitor Shermat Yormatovning qanday qo'shiqlarini bilasiz?

**II guruh uchun sharlar ichidagi savollar:**

1. Kuy nima?
2. Cholg'uchilar dastasi qanday milliy cholg'u asboblardan tuziladi?
3. Kompozitor Dilorom Omonullayevaning qanday qo'shiqlarini bilasiz?

**III guruh uchun sharlar ichidagi savollar:**

1. Kuyda nimalar ifodalanadi?
2. «Tonika» deb nimaga ataladi?
3. Kompozitor Nadim Norxo'jayevning qanday qo'shiqlarini bilasiz?

**2-shart**

O'yinimizning ikkinchi shartiga o'tamiz.

"Tarozu" texnologiyasi. Bunda qaysi guruh asar nomini va mualliflarini topib, qo'shiqni chiroyli ijro etib bersa, o'sha guruh ko'proq ball to'playdi. Bunda men pianinoda yoki rubobda o'rgangan qo'shiqlarimizdan har bir guruh uchun alohida parcha ijro etib beraman. O'quvchilar qo'shiq nomi va mualliflarini topib, qo'shiqni birinchi kupletini ijro etib beradilar.

I guruh uchun – «Nevaralar» qo'shig'i, N. Norxo'jayev musiqasi, S. Barnoyev she'ri;

II guruh uchun – «Buvijonim» qo'shig'i, D. Omonullayeva musiqasi, Yu. Suyunova she'ri;

III guruh uchun – «G'ildiragim» qo'shig'i, Sh. Yormatov musiqasi, P. M'omin she'ri.

Endi o'yinimizni 3-shartiga o'tamiz. (Test savollari).

**3-shart**

**Test savollari**

| 1. Tonika qanday tovush? | 2. Yakkaxon qo'shiqni kim aytadi? | 3. Pauza nima? |
|---|---|---|
| A) uchinchi tovush | A) yozuvchi | A) tinish belgisi |
| B) beqaror tovush | B) solist | B) takrorlash belgisi |
| C) tayanch tovush | C) dirijo'r | C) ohang |

Ya'ni har bir guruhdagi ishtirokchi uchun test kartochkalari tarqataman. Qaysi guruh savollarga ko'proq javob bersa, o'sha guruh ko'proq ball to'playdi.

Har bir shartdan keyin guruh ishtirokchilarini rag'batlantirib, kartochkalardagi ballar bilan baholab turaman. Eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib bo'lib olqishga va rag'batga sazovor bo'ladi. Qolgan guruhlar ham shu tarzda e'tibor qozonib baholanadilar.

Darsdga yakun yasab uyga vazifa beraman.

Darsga yakun yasab, o'quvchlarga hozirjavob bo'lish kerakligini, ko'proq kitoblar o'qib darsga e'tiborli bo'lib xotirani charhlab, mustahkamlab, o'z ustida ishlash lozimligini eslatib o'taman.

# 3-SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI
# MAVZU: «MUSIQANING IFODA VOSITALARI»

**Dars mavzusi:** «Musiqaning ifoda vositalari».
1. «Onajon», S. Abramova musiqasi, Nurbek she'ri.
2. Alteratsiya belgilari haqida ma'lumot.
3. «Dilxiroj», o'zbek xalq kuyi.

**Darsning maqsadi:**
1. Tarbiyaviy: Bolalarni onalariga muhabbat, Vatanga muahabbat his-tuyg'ularini qo'shiq vositasida tarbiyalash.
2. Ta'limiy: musiqaga bezak berish uchun va insonlarni ovoziga musiqiy tovushlarni moslashtirish, ya'ni musiqiy tovushni yarim parda yuqoriga ko'tarish yoki pastga tushirish haqida ma'lumot berish.
3. Rivojlantiruvchi: o'quvchilarga qo'shiqni birinchi bandini ifodali qilib o'rgatish, alteratsiya belgilari va raqs haqida ma'lumot berish.

**Darsni jihozlash:** reja konspekt, darslik, ko'rgazmali qurollar, tarqatma kartochkalar, musiqa cholg'u asbobilari.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning borishi:**

O'quvchilar bilan salomlashib davomatni aniqlayman. Uyga berilgan vazifani tekshirish uchun savollar beraman.
1. O'tgan darsda qanday mavzu o'tgan edik?
2. O'rgangan qo'shig'imizni nomi nima va uni mualliflari kim?
3. O'tgan darsda qanday musiqiy asarni tinglagan edik va u nima haqida edi?

So'ngra o'quvchilarga kuylash holatini eslatib, ularni ovozini sozlayman.
1. Artikulyatsiya apparatini ishga solish (talaffuz uchun mashq).
2. Nafasni yo'lga qo'yish uchun mashqlar kuylataman.
3. Musiqiy o'quvni o'stirish uchun ikki ovozli mashqlar kuylataman.

O'tgan darsda o'rgatgan D. Omonullayeva musiqasi, Yu. Suyunov she'riga bastalangan «Buvijonim» qo'shig'i mazmunini, tempini eslatib, takrorlab mustahkamlayman.

So'ngra «Onajonim» qo'shig'ining mualliflari S. Abramova va A.Nurbeklar hayoti va ijodi bilan tanishtiraman. Bu qo'shiq onajonimizning bizga mehribonligi, do'ppi tikib, alla aytib erkalashi, g'amxo'rligi haqida. Bu qo'shiq major ladida yozilgan, sho'x, quvnoq, raqsona xarakterda Hozir sizlarga qo'shiqni fortopiano cholg'u asbobi jo'rligida kuylab beraman.

Qoshiqni kuylab bo'lgandan so'ng o'quvchilarga savollar beraman:
1. Qo'shiqni nomi nima va mualliflari kim?
2. Bu qo'shiq qanday xarakterda yozilgan va qanday to'nlikda?
3. Bu qo'shiqni mazmunida onalarning qanday xislatlari haqida kuylanadi?
4. Bolalar tarbiyasida onalarning shunday g'amxo'rligini ahamiyati nimada?

Hozir sizlar bilan qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib o'rganamiz

Endi qo'shiqni musiqiy ritmik harakatlar bilan bajaramiz (raqs)

Hozir kuylagan qo'shig'imizda sol kaliti yonida alteratsiya belgilari uchradi. Bu belgilarni nomi diyez, bemol, bekar. Bu belgilar musiqiy tovushni yarim parda yuqoriga ko'tarish va yarim parda pastga tushirish uchun foydalaniladi.

Diyez – tovushni yarim parda yuqoriga ko'taradi.

Bemol – tovushni yarim parda pastga tushiradi.

Bekar – diyez va bemolni rad etadi.

Hozir sizlar bilan o'zbek xalq kuyi "Dilxirojni" tinglaymiz. Bu kuy o'zbek xalqining mumtoz kuylaridan bo'lib, uzoq tarixga ega. Sho'x, quvnoq, raqsona xarakterda yozilgan. Endi bu kuyni rubobda sizlarga ijro etib beraman. Sizlar diqqat bilan tinglab, mening savollarimga javob berasiz.

Savollar:

1. Bu kuyni qanday cholg'u asboblarida ijro etsa bo'ladi?
2. Bu kuyga kimlar raqsga tushsa bo'ladi?
3. Bu asar qanday ladda yozilgan, alteratsiya belgilari bormi?
4. Kim bu kuyni biror parchasini kuylab bera oladi?

Endi musiqaga mos milliy raqs harakatlarni bajaramiz

O'quvchilarni darsda faol qatnashganliklarini hisobga olib, ularni reyting ball asosida baholayman va ovozimni chiqarib baholarni o'quvchilarga e'lon qilaman.

Darsni yakunlab, uyga vazifa beraman va bolalar bilan xayrlashaman.

## 4-SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

## MAVZU: "O'ZBEK XALQ MUSIQASINING OMMAVIY JANRLARI"

**Darsning mavzusi:** «O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari».

1. Qo'shiq: «Oq paxta terdik, terdik», N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri.
2. Musiqa savodi: Major ladi haqida ma'lumot.
3. Musiqa tinglash: O'zbek xalq kuyi. «Qari navo».

**Darsning maqsadi:**

1. Tarbiyaviy: Qo'shiq kuylash orqali o'quvchilarda o'zaro mehr-oqibat, do'stlik, tabiatga muhabbat tuyg'usini o'stirish.
2. Ta'limiy: Lad haqida ma'lumot berish, asarni tahlil qilish.
3. Rivojlantiruvchi: qo'shiq kuylash vositasida o'quvchilarni musiqiy, o'quvchini o'stirish, ikkiovozli kuylash malakalarini rivojlantirish.

**Darsni jihozlash:**

Musiqa cholg'u asbobi (pionino, rubob), ko'rgazmali qurollar (paxtazor rasmi tasvirlangan), musiqa savodidan tarqatma kartochkalar, tinglash uchun SD va DVD disklari, rasmlar, kompyuter, slaydlar.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning borishi:**

O'quvchilar bilan salomlashib, davomatni aniqlayman. Uyga berilgan vazifalar bo'yicha o'quvchilarga savollar beraman.

1. Uyga qaysi qo'shiq vazifa qilib berilgan?
2. Repriza nima?
3. Lad nima?
4. O'tgan darsda qanday asarni tinladingiz?

So'ngra o'quvchilarga qo'shiq kuylash holatini eslatib, diqqatini o'zimga jalb etib ovozlarni sozlayman.

Artikulyatsiya apparatini ishga solib kuylashni hamda ikki ovozda kuylash mashqini takrorlataman.

Oldingi darsda o'rgatilgan qo'shiqni o'quvchilar bilan takrorlab mustahkamlayman.

So'ngra yangi «Oq paxta terdik, terdik», N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri hamda qo'shig'ini ifodali qilib kuylab beraman.

Qo'shiqni mazmunini ochib beraman. Bu qo'shiqda dalalarimizda paxtalarni lo'ppi-lo'ppi ochilib, shoxchalarda chiroqlardek osilishi, bolalarni yuzlari oftobda shirmoy nonga o'xshashi. Bolalar paxtalarni etaklab terib xirmonga hissa qo'shishlari haqida kuylanadi.

Bu qo'shiq sho'x, quvnoq xarakterda, o'rtacha tempda yozilgan. Re major tonligida, kuplet shaklida 4/4 o'lchovida yozilgan.

Bu qo'shiqni kompozitor Nadim Norxo'jayev yozgan. U 1947-yil 26 dekabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. U yoshligida musiqaga qiziqib, musiqa maktabi, musiqa bilim yurtida va Toshkent Davlat Konservatoriyasining kompozitorlik fakultetini tamomlagan. U fortepiano uchun pyesa, preludia, sonatalar, asarlar, konsertlar, kattalar va bolalar uchun juda ko'p qo'shiqlar yozgan. Bulardan «Xakkalar», «Salom bergan bolalar», «Balig'im», «Navro'zim», «Diyor madhi», «Biz askarmiz» nomli qo'shiqlarni yozgan.

She'rini esa sevimli bolalar shoiri Po'lat Mo'min yozgan. U «Yaxshi bola», «Sho'x qizaloq», «Chamandagi gullarmiz», «Oftob yaxshimi, odob yaxshimi» nomli juda ko'p she'rlar yozgan. So'ng qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib qo'shiqni o'rgataman.

Qo'shiqning 1-qatorini, naqaroti bilan o'rgataman. Sof intonatsiya, nafas, talaffuz ustida ishlayman. So'ngra musiqa savodidan major ladi haqida ma'lumot beraman.

Tovushlarni muayyan tartibga o'zaro bog'lanib kelishiga lad deyiladi. Ladlar ikki turga bo'linadi: major va minorlar. Quvnoq, sho'x, tantanavor asarlar major ladida yoziladi. Hozir kuylagan qo'shig'imiz va tinglagan asarlarimiz ham major ladida. Qo'shiq-raqs shaklida yozilgan, quvnoq, tantanavor xarakterda. Sizlar bilan hozir SD diskida «Oq paxta terdik, terdik» asarini tinglaymiz. Ommaviy qo'shiqlar xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lib avloddan-avlodga o'tib keladi. Bunday kuy-q'shiqlarga «Alla», «Ililla yor», «lapar», «Oyijon boshginam og'ridi-yo», «Dutor bayoti», «Yallama yorim» kabi asarlar kiradi. Bu asarlar sho'x, quvnoq, raqsona xarakterda yozilgan.

Asarni tinglab bo'lgach, mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga savollar beraman:

1. Tinglagan asarimizni nomi qanday?
2. Asar qanday ladda, qanday tempda, qanday shaklda yozilgan?
3. Kuylagan qo'shig'imizni mualliflari kimlar?
4. Bu qo'shiqda bolalar yuzlarini nimaga o'xshatishyapti?
5. Bolalar paxtalarni etaklab yig'ib nimani to'ldirishdi?

Berilgan savollarga javob bergan o'quvchilarni baholayman, darsga yakun yasab, uyga vazifa beraman.

## 2.3. Boshlang‘ich sinflarda qo‘shiq kuylash malakalarini shakllantirish

### 3-amaliy mashg‘ulot

Bolalarni musiqiy o‘quvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa vokal-xor ishlarining ahamiyati katta. Bunda o‘quvchilarni kuylashga qiziqtira olish ko‘p jihatdan o‘rganadigan har bir mashq yoki o‘qituvchi tomonidan qo‘shiqni chiroyli qilib kuylab berishga bog‘liq. Chunki yosh bolalar bilan olib boriladigan vokal-xor ishi ko‘pincha o‘qituvchi ovoziga taqlid qilib kuylashga asoslanadi. Shuning uchun o‘qituvchi yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borishi kerak. Vokal-xor ishlarini amalga oshirishda o‘qituvchi ovoz sozlash, qo‘shiq o‘rgatish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ovoz diapazoni ***(do1-do2)***, ishchi diapazoni (***mi1-fa1-sol1***) primar tovushlarida kuylash uchun qulay bo‘lgan (***sol1-lya1***) tovushlarini aniq bilishi lozim.

Musiqa madaniyati darslarida qo‘shiq o‘rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi:

– Bolalar diqqatini qo‘shiqqa jalb qilish va chiroyli qilib kuylab berish.

– Qo‘shiq haqida o‘qituvchining kirish so‘zi (qo‘shiq mualliflari, asarining mazmuni, tarixiy xususiyatlari haqida qisqacha hikoya qilish).

– Qo‘shiqni tahlil qilish.

– Qo‘shiqni musiqiy jumlalarga bo‘lib o‘rgatish (to‘g‘ri nafas olib, jumlani oxirigacha tejab yetkazish, ijrochilik sifatlari ustida ishlash).

– Qo‘shiqni badiiy ijrosiga erishish (qo‘shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish, ya’ni umumlashtirish).

«Qo‘shig‘imiz avjida», Tursun Azimov musiqasi, G‘iyos Komilov she’ri.

O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini jalb qilib, qo‘shiq nomi va mualliflarini aytib, ifodali qilib, baland ovozda ijro etib beradi. So‘ngra, qo‘shiq mazmunini ochib berib mualliflar bilan tanishtiradi. Bu qo‘shiqda bolalarni quvnoq, shodon o‘ynab, Mavjuda ismli qiz o‘rtaga chiqib raqsga tushib qo‘shiq kuylaydi. Qo‘shiq avjiga chiqqanda hamma bolalar jo‘r bo‘lishadi. Bu qo‘shiq sho‘x, quvnoq xarakterda o‘rtacha tempda kuplet shaklida major ladida qo‘shiq-raqs janrida yozilgan. Bu qo‘shiq yakkaxon va xor uchun yozilgan. Naqarot qismi ikki ovozda kuylanadi.

Bu qo‘shiqni kompozitor Tursun Azimov, she’rini shoir G‘iyos Komilov yozgan.

Kompozitor **Tursun Azimov** 1935-yil 1 martda Toshkent shahrida ishchi oilasida tug‘ilgan. Bolaligidan musiqaga qiziqib, to‘garaklarga qatnashgan. Toshkentdagi Hamza nomidagi bilim yurtini va Toshkent Davlat Konservatoriyasining kompozitorlik fakultetini tugatgan. Asosan xor yakkaxon va xalq cholg‘u asboblari uchun yirik asarlar yaratgan. Bolalar uchun ham juda ko‘p qo‘shiqlar yozgan. Jumladan, «Qoraqalpoq qizi», «Tinchlik bog‘i», «Qo‘shig‘imiz avjida» kabi qo‘shiqlardir.

## I SINFDA KUYLASH UCHUN QO'SHIQLAR

### Shirintoy

Umida Abduazimova she'ri

Aleksandr Berlin musiqasi






Shavkatjonning sevgani
Shirin choy, shirin choy.
Shunga hamma der uni
Shirintoy, Shirintoy.

Ichar novvot, qand solib
Shirin choy, shirin choy.
Qo'l yuvmas o'zi bilib
Shirintoy, Shirintoy.

Qo'li tugul, yuz quloq
Shirin choy, shirin choy.
Dangasa ham erkatoy
Shirintoy, Shirintoy.

Shunday qilsa bermaymiz
Shirin choy, shirin choy.
Erkalatib demaymiz
Shirintoy, Shirintoy.

# Kuz

Ibrohim Ro'zimuhamedov she'ri

Sonya Abramova musiqasi

**Allegretto**



## Shamol, shamol

Haydar Muhammad she'ri

Sonya Abramova musiqasi






Shamol, shamol, jon shamol,
Hammadan chaqqon shamol.
Bog'imizga kel tezroq,
Pishgan, pishgan o'rik qoq.

Shamol, shamol, jon shamol,
Qayerlardan kelasan,
Bizlarga nimalarni
Yana olib kelasan.

# Laylak qor

Yoqub Is'hoqov she'ri

Sonya Abramova musiqasi




Dehqonlarga tilak qor,
Paxta oyga kelar qor

Goho meni quvalab
Kirar uyga tentak qor.

## II SINFDA KUYLASH UCHUN QO‘SHIQLAR

### Qo‘shig‘imiz avjida

G‘iyos Komilov she’ri

Tursun Azimov musiqasi




Shod, baxtiyor yoshlarmiz
Lay-lum, la-la-lum.
Quvnoq o‘yin boshlaymiz,
Lay-lum, la-la-lum.

Qo‘lda soz, doiramiz,
Lay-lum, la-la-lum.
Kengayaversin davramiz,
Lay-lum, la-la-lum.

# Do‘ppi kiygan bola

Po‘lat Mo‘min she’ri

Nadim Norxo‘jayev musiqasi

**Allegro moderato**




Assalom degan so‘zi,
Hammaga hurmatlidir.
Do‘ppi kiygan bolaning
Odobi qimmatlidir.

Do‘ppi kiygan bolalar,
Hayotda o‘sib unsin.
Peshonasi yarqirab,
Boshlariga baxt qo‘nsin.

# Futbol qo‘shig‘i

Solijon Sodiqov she'ri
va musiqasi

Ra’no Yusupova fortepiano
uchun moslashtirilgan

**Marsh tempida**






Bo‘lganda futbol
Yana bitta gol
Deb ishqibozlar
Silkishardi qo‘l.

O‘shanda men ham
Quvnatib to‘pni
Raqiblar tomon
Tepdim-ku to‘pni

Haq yoqdan birdan,
Chalishar xushtak
Boqsam to‘p uchgan
Tepadan qushdek

Shiddatli tag‘in
Kirgandim jangga.
Oh, bu galgasin
To‘sdi shtanga.

# Buvijonim kelyapti

Po'lat Mo'min she'ri

Sonya Abramova musiqasi






Hassa do‘q-do‘q qilyapti,
Buvijonim kelyapti.
Men ochaman eshikni,
Keng ochaman eshikni.

Buvim yuzi marjon ter,
Yelpig‘ichni menga ber.
Men yelpiyman buvimni.
Tez yelpiyman buvimni.

Uyga kirdi buvimiz
Nurga to‘ldi uyimiz.
Men qo‘yman par yostiq,
Tez qo‘yaman par yostiq.

# III SINFDA KUYLASH UCHUN MASHQLAR

## Vatanionim – Vatanim

Po'lat Mo'min she'ri — Dilorom Omonullayeva musiqasi




Vatanjonim – Vatanim,
Ko'zim quvnab ko'rganim.
Istiqloldan kulganim,
O'zbekiston – gulshanim.

Bahra olib bag'ringdan,
Ulg'ayaman mehringdan.
Vatanjonim – Vatanim,
O'zbekiston – gulshanim.

# Kulcha non

Alijon Ergashev she'ri va musiqasi






Oyijonim tandirga
Yopadilar kulcha non.
Issig'ida yeb ko'ring
Mazasi zo'r kulcha non.

**Naqarot**

Kulcha non, kulcha non,
Mazasi zo'r kulcha non.
Kulcha non, kulcha non,
Mazasi zo'r kulcha non.

Jizzali non yopilsa
Hidi tez taraladi.
Kelsa gar uyga mehmon
Dasturxon yoziladi

**Naqarot**

Dasturxon, dasturhon,
Dasturxon yoziladi.
Dasturxon, dasturhon,
Issiq non qo'yiladi.

# Ko‘ylagim

Po‘lat Mo‘min she’ri

Doni Zokirov musiqasi




Chir aylanib o‘ynasam,
Gir aylanib o‘ynasam

Yelpinadi ko‘ylagim
Yaltiraydi ko‘ylagim

# Quvnoq bolalar

Qambar Ota she'ri | Avaz Mansurov musiqasi









1. Biz baxtiyor bolalar,
Quvnoq o‘g‘il-qizlarmiz.
Oq paxtadan shonalar
Oydek yorug‘ yuzlarmiz.

Naqarot:
Oppoq-oppoq bog‘chamiz,
Opajonlar parvona.
Qo‘l ushlashib barchamiz
Sayr etamiz shodona.

2. Salqin gulzor maydonda
Sirpanchig‘u arg‘imchoq.
Qushlar sayrar har yonda
Bog‘chamizdan vaqti chog‘.

3. Hammasidan o‘tadi,
Musiqali soati.
O‘ynab qo‘shiq aytadi
Kimning bo‘lsa talanti.

# IV SINFDA KUYLASH UCHUN QO‘SHIQLAR

## Oy Vatanim

Erkin Qambarov she’ri

Shermat Yormatov musiqasi

**Allegro Moderato**






Oy Vatanim,
Boy Vatanim.
Noming dilda,
Jo Vatanim.

Bog‘laring keng,
Shakariston.
Bag‘ring go‘zal
Chin guliston.

Sen tanamga
Jon erursan.
Suv-havodek
Ko‘p zarursan.

Noming tildan
Hech olmayman.
Vatan sensiz
Yasholmayman.

## Polvon bo'laman

Barot Isroil she'ri

Sonya Abramova musiqasi

**Tempo di marcia**




10
uch Jis-mo-niy mashq: ko‘p bo‘l-sin kuch, Jis-mo-niy mashq bir, ik-ki
ik-ki, uch. bo‘l-sin kuch.
uch, Jis-mo-niy mashq: ko‘p bo‘l-sin kuch,
ik-ki, uch. bo‘l-sin kuch.
Ram-, pa-ra, pam, ram, pa-ra, pam, pa-ra, pa-ra, pam, pam, pam,




Men ham polvon bo‘laman,
Katta toshlar ko‘tarib.
Jismoniy mashq qilaman
Har kun ertalab turib.

Naqarot:

Jismoniy mashq: bir, ikki, uch
Jismoniy mashq: ko‘p bo‘lsin kuch,

Men ham polvon bo‘laman,
Kichiksan demang menga.
Kuch-qudratga to‘laman,
Ulg‘ayib kundan-kunga.

Naqarot:

Jismoniy mashq: bir, ikki, uch
Jismoniy mashq: ko‘p bo‘lsin kuch.

# Bulbulcham

K. Muhammadjon she'ri

Mardon Nasimov musiqasi






O‘zing kichkina,
Ovozing yaxshi,
Qani, bulbulcham,
Bir sayrab berchi.

– Mayli o‘rtoqjon,
Mayli, sayrayman,
Ko‘m-ko‘k bog‘ingda
Uchib yayrayman.

– Shirin bulbulcham,
Kuylayver chaq-chaq...
Tinglab qo‘shig‘ing
Dillar xushchaqchaq.

– Mehnat qilibsan,
Ekibsan gullar,
Gulni sevamiz,
Bizlar – bulbullar.

# Buvijonim yaxshisiz

G'iyos Komilov she'ri | Nadim Norxo'jayev musiqasi






Olamda eng mehribon
Sizsiz aziz buvijon.
Erkalaysiz har qachon
Buvijonim yaxshisiz.

Oftobdayin bag'ringiz
Jozibali mehringiz.
Bormi biror sehringiz
Buvijonim Buvijon.

Urushmaysiz sira siz,
Ta'lim berib turasiz.
Ertak aytib berasiz,
Buvijonim yaxshisiz.

Nuroniydir siymongiz,
Hech qarishni bilmaysiz.
Boqib-boqib to'ymaysiz,
Buvijonim yaxshisiz.

## 2.4. Boshlang'ich sinflarda musiqa tinglash madaniyatini shakllantirish

### 4-amaliy mashg'ulot

**Musiqa tinglash**

Musiqa tinglash, musiqa madaniyati darslarining asosiy faoliyati hisoblanadi. O'quvchilarni hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asari zamirida ma'lum his-tuyg'u va fikr aks ettiriladi. Biz musiqa darsining qaysi faoliyatini olmaylik, u avval musiqani tinglab idrok etishdan boshlanadi.

Musiqa tinglash bir necha bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

– O'quvchilar e'tiborini musiqiy asarga jalb qilish va o'qituvchining kirish so'zi.

– O'qituvchi ijrosida yoki magnit yozuvda asarni tinglash.

– Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy va badiiy-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish.

— Asarni bir butunligicha tinglash yoki asarni biror qismini tinglash.

### Musiqa tinglash metodlari

**1. Ko'rgazmali metodi:**

O'qituvchining jonli ijrosi, rasmlar vositalari orqali bolalar cholg'u asbobi, musiqiy-ritmik harakatlar.

**2. Amaliy metod:**

O'quvchilar musiqiy asarga qiziqishini oshirib ularni hayotiy tajribasiga bog'lab, asar mazmunini ochib berish va musiqiy asarga munosabatini faollashtirish.

**3. Taqqoslash metodi:**

Bunda asarlarning janri, ijrochilik xususiyatlari temp lad, mazmunlari taqqoslanadi, musiqiy didini o'stirishga yordam beradi.

## Musiqa tinglash uchun asarlar

### Marsh Teodoro

("Karmen" operasidan parcha) Jorj Bize musiqasi




### Chitti gul

O'zbek xalq kuyi



# Vals

Dmitriy Shostakovich musiqasi





## Do'loncha

O'zbek xalq kuyi

**Allegro**



## Musiqiy ritmik harakatlarni bajarish va bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish uchun asarlar

### Yugurish

Sonya Abramova musiqasi

**Allegretto**




### Marsh

**Tempo di marshe**

Dilorom Omonullayeva musiqasi



## Paxta raqsi

Allegro moderato

Sonya Abramova musiqasi




## Vals

**Allegro**

R. Rizayeva musiqasi



# Lentalar bilan raqs

Sonya Abramova musiqasi

**Moderato**



# MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. I sinfni 1-choragida berilgan «Marsh» kuyini iro etib, mazmunini ochib berib harakatlarini o'rgatish jarayonini ko'rsatib bering.
2. I sinf 3-choragida tinglash uchun berilgan «Yallama yorim» asarini ijro etib tahlil qiling.
3. I sinfda «Chamanda gul» kuyi bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lib ijro etish jarayonini ko'rsatib bering.
4. I sinfni 2-choragida berilgan «Laylak qor» qo'shig'ini o'rgatish jarayonini ko'rsatib bering.
5. O'zbek xalq kuyi «Do'loncha»ga bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lish fragmentini ko'rsatib bering.
6. I sinf o'quvchilariga musiqa tinglash uchun o'zbek xalq kuylaridan ijro etib tahlil qilib bering.
7. II sinfda berilgan «Qo'shig'imiz avjida» asarini ikki ovozda o'rgatish uslubini ko'rsatib bering.
8. «Farg'onacha» o'zbek xalq kuyini musiqa tinglash uchun ijro etib, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish jarayonini ko'rsatib bering.
9. II sinfni 1-choragida berilgan asarlardan musiqa tinglash uchun namuna ijro etib bering.
10. II sinf o'quvchilarini o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan tanishtirib, milliy cholg'u asbobida kuy ijro etib bering.
11. II sinfda yakkaovozlik va jo'rovozlik haqida tushuncha berib, namuna ijro etib bering.
12. II sinfda musiqa ifoda vositalarini musiqiy misollar asosida tushuntirish yo'llarini ko'rsatib bering.
13. III sinfni 1-choragida berilgan «Vatanjonim – vatanim» qo'shig'ini ifodali ijro etib ikki ovozda o'rgatish uslubini ko'rsatib bering.
14. III sinfni 3-choaragida musiqa tinglash uchun berilgan asarlardan namuna ijro etib, tahlil qilib bering.
15. III sinfni 3-choragida berilgan ikkiovozlik qo'shiqlarda namuna ijro etib, o'rgatish uslubini ko'rsatib bering.
16. III sinfni 1-choragida berilgan asarlarda 1 darsni rejalashtiring.
17. III sinfni 4-choragida berilgan "Polka" asarini bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish uslubini ko'rsatib bering.
18. III sinfni 4-choragida berilgan asarlardan namuna ijro etib tahlil qilib bering.
19. 4-sinfni 1-choragida berilgan "Quvnoq bolalar" qo'shig'ini ifodali ijro etib ikki ovozda o'rgatish uslubini ko'rsatib bering.
20. 4-sinfni 1-choragida berilgan "Bilakuzuk" o'zbek xalq kuyini chapak chalib ritmik jo'r bo'lish va qo'shiqqa mos ritmik harakatlarni bajarib bering.
21. 4-sinfni 2-choragida berilgan musiqa tinglash uchun "Alla"lardan birini ijro etib mazmunini yoritib bering.
22. 4-sinfni 2-choragida berilgan "Bizdan sizga kim kerak" qo'shig'ini ikki ovozda o'rgatib mazmunini yoritib bering.
23. 4-sinfni 3-choragida berilgan "Sog'lom avlod" qo'shig'ini yakkaxon va xorga o'rgatish uslubini ko'rsatib bering.
24. 4-sinfni 3-choragida berilgan "Bayram marosim" mavzusiga mos asarlardan namuna ijro eting.
25. 4-sinfni 4-choragida berilgan asarlardan 3-darsni rejalashtiring.
26. 4-sinfda berilgan "Aziz ustozlar" qo'shig'ini xor jamoasiga o'rgatish uslubini ko'rsatib tahlil qiling.
27. 4-sinfda musiqa tinglash uchun berilgan asarlardan birini ijro etib tahlil qilib bering.

## 2.5. O‘rta sinflarda musiqa madaniyati darslarini rejalashtirish

### 5-amaliy mashg‘ulot

### 5-SINF

### YIL MAVZUSI: «KOMPOZITORLIK MUSIQA JANRI»

### I-CHORAK MAVZUSI: «O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRI. XOR SAN’ATI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo‘shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi», M. Burhonov musiqasi, A. Oripov she’ri | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar | 4-sinfda o‘tilgan mavzularni eslash. Skripka kaliti. Notalarni joylashishi. | «O‘zbekison Respublikasi Davlat Madhiyasi» va Davlat ramzlari haqida suhbat | 1 |
| 2. | «Salom quyoshjon», N. Norxo‘jayev musiqasi, P. Mo‘min she’ri | Artikulatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylash | Notalarni bo‘linishini eslash. Nuqtali notalarni tushuntirish. | «Shodiyona», F. Alimov musiqasi, o‘zbek xalq musiqasi haqida ma’lumot | 1 |
| 3. | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Nafasni rejalab ishlatish uchun mashqlar kuylash | «O‘lchovlar» haqida ma’lumot. Kuchli hissa va kuchsiz hissa | O‘zbek xalq cholg‘u asboblari haqida ma’lumot. «Qalbimda», S. Jalil musiqasi | 1 |
| 4. | «Oq paxta terdik», N. Norxo‘jayev musiqasi, P. Mo‘min she’ri | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Takt va takl chizig‘i haqida ma’lumot | O‘zbek cho‘lgu asboblarining turlari. “O‘zgancha”, B. Umidjonov musiqasi | 1 |
| 5. | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Soz va ansamblga erishish uchun mashqlar kuylash | «Do major» tovushqatori tuzilishi | «Xor» haqida ma’lumot. «Boychechak», o‘zbek xalq qo‘shig‘i, Sh. Yormatov qayta ishlagan. | 1 |
| 6. | «Aziz ustozlar», S. Boboyev musiqasi, T. Ilhomov she’ri | Unli tovushlarni cho‘zib, undosh tovushlari qisqa, burro kuylash uchun mashqlar | «Do major» tovushqatoridagi tovushlarni kuylash | «Naqshlar», M. Bafoyev musiqasi (Xor va orkestr uchun) | 1 |
| 7. | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish, badiiy ijrosiga erishish | Ikki ovozli mashqlar kuylash | «Lya minor» tovushqatorini tuzilishi | «Childirma chalay», D. Omonullayev musiqasi, G. Komilov she’ri | 1 |
| 8. | «Sho‘x qizaloq», D. Omonullayeva musiqasi, P. Mo‘min she’ri | Aniq talaffuzga erishish uchun mashqlar kuylash | Major va minor uchtovushlari bilan tanishish | «Go‘zal qizga» M. Burhonov musiqasi | 1 |
| 9. | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Ravon va tekis ovoz hosil qilish uchun mashqlar | Notaga qarab uchtovushliklarni kuylash | «Oq kaptar», B. Umidjonov musiqasi (Bolalar xori uchun) | 1 |

# 5-SINF
## 2-CHORAK MAVZUSI: «SIMFONIK ORKESTR. MUSIQADA VOKAL-SIMFONIK JANRLAR»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Islom bobo», Sh. Yormatov musiqasi, M. Raxmonov she'ri | Nafasni rejalab ishlatish uchun mashqlar kuylash | Major va minor uch tovushliklarimng tuzilishi | O'zbek xalq cholg'u ansambl lari «Orkestr»haqida ma'lumot | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish, ritmik surati ustida ishlash | Unli tovushlarni mayin kuylash | Notalarni cho'zimlarini uzaytiruvchi belgilar d | III simfoniyadan parcha N. Tojiyev musiqasi | 1 |
| 3. | «Chumoli», A. Rasulov musiqasi, Raim Isxoqov she'ri | Sof unisonga erishib kuylash | «Liga» haqida ma'lumot | Simfonik orkestr haqida ma'lumot | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Ikki ovozli mashqlarni "Kanon" usulida kuylash | «Fermata» haqida ma'lumot | Yog'och damli cholg'u asboblar haqida ma'lumot. «To'yona», T. Qurbonov musiqasi | 1 |
| 5. | «Bolalarning ko'zlari», M. Otajonov musiqasi, Qambar Ota she'ri | Tovushqatorni legatto va stakatto qilib kuylash | "Repriza" haqida ma'lumot | Unna zarbli va kamonchali cholg'ular «Navro'z bayrami» asarini tinglash | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijroga erishish | Tovushqatorni qo'l harakatlari bilan (dirijorlik) kuylash | Ansambl, xor, orkestr haqida ma'lumot | Mis damli cholg'ular, «Alisher Navoiyga qasida» (libretto) A. Oripov she'ri, M. Burxonov musiqasi | 1 |
| 7 | CHORAK | DAVOMIDA | O'TILGANLARNI | TAKRORLASH | 1 |

# 5-SINF

# 3-CHORAK MAVZUSI: «SAHNAVIY MUSIQA ASARLARI. BALET VA RAQS SAN'ATI». MUSIQALI DRAMMA VA KOMEDIYA. BOLALAR UCHUN MUSIQALI ERTAK TOMOSHALAR

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilan-gan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Qish zavqi», Sh. Yormatov musiqasi, A. Yunusov she'ri | Mayin, zanjirband ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Ton va yarim ton haqida ma'lumot | Sahnaviy asarlar haqida ma'lumot. "Tohir va Zuhra" musiqali drammasidan parchlar tinglash | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish Nafasni ritmik sur'ati ustida ishlash | Yengil jonli va tez ijro etish uchun mashqlar kuylash | Alteratsiya belgilari haqida ma'lumot | «Fotimaning sarguzashtlari» musiqali ertagidan parcha tinglash | 1 |
| 3. | «Sumalak», Sh. Yormatov musiqasi, T. Bahromov she'ri | Tovushqatorni har bir cho'zimda sof intonatsiyada kuylash | O'lchov haqida ma'lumot 2\4, 3\4, 4V4 | «Raqs san'ati» haqida ma'lumot. "Bahor valsi", M. Mirzayev musiqasi | 1 |
| 4. | Qo'shiqni ikki ovozli jumlalari ustida ishlash | Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylash | Do major tovushqatori-ning 2\4, 4\4 o'lchovlarida qilib kuylash | «Balet va raqs» san'ati haqida ma'lumot. "Oq qush ko'li" baletidan parchlar P. Chaykovskiy | 1 |
| 5. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish badiiy ijrosiga erishish | Keng nafas olish va nafasni tejab ishlatish uchun mashqlar kuylash | 6\8 o'lchov bilan tanishtirish | «Sharq afsonasi» baletidan parchalar A. Mansurov musiqasi | 1 |
| 6. | «Gul tutaman onajon» Yefim Shvars musiqasi, H. Qayumov she'ri | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Do major tovushqatorini tuzilishi | Musiqali drama va komediya haqida suhbat. "Maysaraning ishi" operasi fragmentini tinglash | 1 |
| 7. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish, badiiy ijrosiga erishish | Sof intonatsiya va ansambl hosil qilish uchun mashqlar | Do major uch tovush tuzilishi | «To'maris», U. Musayev musiqasi | 1 |
| 8. | «Aziz bo'ston – O'zbekiston», D. Omonullayev musiqasi, M. Mirzo she'ri | Aniq va ravon tovush hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Lya minor uch tovush tuzilishi | «Fotima va Zuhra», F. Alimov musiqasi | 1 |
| 9. | Qo'shiqni to'liq o'rgatish, badiiy ijrosiga erishish | Yengil jonli va tez ijro etish uchun mashqlar kuylash | Ton va yarim ton haqida ma'lumot | Musiqali dramma va komediya haqida suhbat | 1 |
| 10. | CHORAK | DAVOMIDA | O'TILGANLARNI | TAKRORLASH | 1 |

# 5-SINF

## 4-CHORAK MAVZUSI: «OPERA SAN'ATI. O'ZBEK MUSIQASIDA OPERA JANRI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Zavqing soch – qaldirg'och», N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Uchtovushliklarning tuzilishi | «Opera» san'ati haqida ma'lumot | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Bir notadan turli xil diksiya uchun mashqlar kuylash | Melodik uchtovushlik haqida ma'lumot | «Sehrli nay» operasidan parchalar, B. Motsart musiqasi | 1 |
| 3. | «Parvozdagi qushchlar», R. Abdullayev musiqasi, M. Mirzo she'ri | Jadal va yengil ovoz hosil qilish uchun mashqlar | Garmonik uchtovushlik haqida ma'lumot | «Hayvonlar sultoni» operasi, A. Mansurov musiqasi | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Sof intonatsiya ansambl hosil qilish uchun mashqlar | «Temp» haqida ma'lumot | Solo, duet, trio, kvartet ansambl haqida ma'lumot | 1 |
| 5. | «Oymo'majon rom bo'ldi», Sh. Yormatov musiqasi, Q. Muhammadiy she'ri | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Lad va tonallik haqida ma'lumot | Milliy cholg'u orkestrni simfonik orkestrdan farqi | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylash | Dinamik belgilar haqida ma'lumot | Simfonik asarlar haqida ma'lumot | 1 |
| 7. | «Quvnoq bolalar», A. Mansurov musiqasi, X. Muhammad she'ri | Tovushqatorni legatto va stakatto qilib kuylash | «Kreshchendo» va «Diminuendo» haqida ma'lumot | «Maktabjon va oftobjon» G'.Qodirov musiqasi. Vokal simfonik syuitasini tinglash | 1 |
| 8. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | CHORAK DAVOMIDA | O'TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH | 1 |

# 6-SINF
# YIL MAVZUSI: «MUMTOZ MUSIQA»
# 1-CHORAK MAVZUSI: «MUMTOZ MUSIQA HAQIDA MA'LUMOT»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O'zbekiston Respublikasi muslaqilligiga bag'ishlangan suhbat o'tkazish, «O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi», M. Burhonov musiqasi, A. Oripov she'ri | Sof intonatsiya. Aniq talaffuzga erishish uchun mashqlar kuylash | 5-sinfda olingan bilimlarni eslash. Major va minor gammalari | «O'zberiston Respublikasi Davlat madhiyasi» va Davlat ramzlari haqida suhbat | 1 |
| 2. | «Dono bola», N. Norxo'jayev musiqasi, M. Mirzayev she'ri | Tovushqatorni har xil cho'zimda dirijorlik qilib kuylash | Tovush balandligi va oktavalar | O'zbek musiqa madaniyatining shakl topishi | 1 |
| 3. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Nafasni rejalab ishlatish uchun mashqlar kuylash | Metr va ritm haqida tushuncha | O'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari: «Alla», «Lapar», «Yalla» | 1 |
| 4. | «Qari navo», o'zbek xalq kuyi Sh. Yormatov qayta ishlagan | Aniq talaffuzga erishish uchun mashqlar kuvlash | Ritm va usul haqida tushuncha | O'zbek xalq musiqasining «Mumtoz musiqa» janri, «Katta ashula», «Dostonlar» va «Maqom» haqida tushuncha | |
| 5. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Legatto va stakatto mashqlar kuylash | Pauzalar haqida ma'lumot | Xoji Abdulaziz Rasulov hayoti va ijodi «Gulzorim» asarini tinglash | |
| 6. | «Bolalar», H. Rahimov musiqasi, J. Jabborov she'ri | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Pauzalarning bo'linishi haqida ma'lumot | Shashmaqom va uning sho'balari | |
| 7. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Aniq va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar | Nuqtali pauzalar haqida ma'lumot | «Ushoqi Samarqand» asarini tinglash | |
| 8. | «Kitob mening do'stimsan» D. Zokirov musiqasi, Z. Divor she'ri | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | Zatakt haqida ma'lumot | «Qo'sh chinor» asarini tinglash | |
| 9. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Nafasni rejalab ishlatish uchun mashqlar kuylash | Major va minor ga[illegible]arini turg'un tovushlarini [illegible]qlash | «Ufor» haqida ma'lumot. Og'ir ufor, yengil ufor | 1 |

## 6-SINF
## 2-CHORAK MAVZUSI: «ZAMONAVIY MUSIQA BA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Chamanddagi gullarmiz», N. Norxo'jayev musiqasi, P. Mo'min she'ri | Aniq talaffuzga erishish uchun o'zbek xalq qo'shiqlaridan mashqlar kuylash | Lad va unung turlari | Zamonaviy musiqa turlari haqida ma'lumot. "Qaydasan", I.Ambarov musiqasi, T.To'la she'ri | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | Ton va yarim ton haqida ma'lumot | O'tmishdagi musiqaning zamonaviyligi | 1 |
| 3. | «Dangasalik – kasallik» G'. Qodirov musiqasi, P. Mo'min she'ri | Unli tovushlarni cho'zib, undosh tovushlarni qisqa-qisqa kuylash | Alteratsiya belgilari bilan tanishtirish #-diyez b-bemol 4-bekar | Jiddiy va yengil musiqa haqida suhbat. «Yalla» ansambli ijrosida «Majnuntol», «Boychechak» qo'shiqlarini tinglash | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Intervallarning tuzilishi | «Jonon», «Norin-norin», M.Mirzayev musiqasi | 1 |
| 5. | «O'zbegimdan aylanay», G. Qo'chqorova musiqasi, D. A'zamova she'ri | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Sof intervallarning tuzilishi va turlari | D. Omonullayevaning hayoti va ijodi bilan tanishish | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Katta-kichik intervallarning tuzilishi va turlari | Botir Zokirovni hayoti va ijodi bilan tanishish | 1 |
| 7. | CHORAK | DAVOMIDA | O'TILGANLARNI | TAKRORLASH | 1 |

# 6-SINF
# 3-CHORAK MAVZUSI: «SHARQ XALQLARI MUMTOZ MUSIQASI»

| Belgilangan vaqt. kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «O'zbekiston – jannat», Dilshod X. Hasanova musiqasi Rajabov she'ri | Chuqur nafas olib uni tejab ishlatish uchun mashqlar kuylash | Intervallarni takrorlash | «Ko'rmadim't», D. Zokirov musiqasi, Alisher Navoiy g'azali | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Do major tovushqatorining tuzilishi | Sharq xalqlari mumtoz musiqasi haqida ma'lumot | 1 |
| 3. | «Ona qo'llari», D. Qodirova musiqasi, T. Ilhomov she'ri | Bir notadan turli xil intervallarni kuylash | Har xil tovushlardan major ladini tuzish | «Sharq taronalari», D. Omonullayeva musiqasi, U. Azim she'ri | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish badiiy ijrosiga erishish | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | «Lya minor» tovushqatorini tuzilishi | Turk xalq kuylari haqida ma'lumot | 1 |
| 5. | «Xush kelding», S. Boboyev musiqasi, H.G'ulomov she'ri | Aniq talaffuzga erishish uchun mashqlar kuylash | Har xil tovushlardan minor ladini tuzish | «Oltin baliqchalar», Yapon xalq qo'shig'i | 1 |
| 6. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | «Major» va «Minor» ladlarini farqi va o'xshashligi | «Tonggi shafaq» Arab xalq qo'shig'i | 1 |
| 7. | «Gushlar» (Turkmancha qo'shiq), Ahmedov musiqasi, Sh. Yormatov qayta ishlagan | Tovushqatorni har xil cho'zimda kuylash | «Repriza» va «Volta» haqida ma'lumot | «Atush», Uyg'ur xalq qo'shig'i | |
| 8 | «Ey Tojikistonam», N. Qurbonov musiqasi, H. Jo'rayev she'ri | Yengil jonli va sof ijroga erishish uchun mashqlar kuylash | Kupletli va bir qismli asarlar haqida ma'lumot | «Nayrez», Uyg'ur xalq qo'shig'i | 1 |
| 9. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | O'tgan mavzularni mustahkamlash | «Vaqt o'tganda», Hind xalq qo'shig'i | 1 |
| 10 | CHORAK | DAVOMIDA | O'TILGANLARNI | TAKRORLASH | 1 |

# 6-SINF
## 4-CHORAK MAVZUSI: «YEVROPA MUMTOZ MUSIQASI BILAN TANISHUV»

| Belgilan-gan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | «Slavsya», I.Susanin operasidan parcha, M.Glinka musiqasi | Keng nafas hosil qilish ushun mashqlar | «Lad « va «Tonlik» | M. Glinkaning hayoti va ijodi | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish. Badiiy ijrosiga erishish | Jadal va yengil ovoz hosil qilish uchun mashqlar | Nomdosh «Major» va «Minor» ladlari | V.A. Motsartning hayoti va ijodi | 1 |
| 3. | «Bahor sog'inchi», V. A. Motsart musiqasi, Overbek she'ri | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Do – major, Do – minor | V.A. Motsartning «Figaroning to'yi» asarini tinglash | 1 |
| 4. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Sof intonatsiya, ansamblga erishish uchun mashqlar kuylash | Sol – major, Sol – minor | «Kantata», «Opera», «Simfonik orkestr», «Simfoniya» haqida ma'lumot | 1 |
| 5. | «Kelajak bizniki», K. Kenjayev musiqasi M. A'zam she'ri | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | «Metr», »Ritm» va «O'lchov»ni eslash | F. Shubertning «Forel» asarini tinglash | 1 |
| 6. | Qo'shiqnito'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Mayin, zanjirband ovoz hosil qilish uchun mashlar kuylash | Musiqa nutqi haqida ma'lumot | «1-Simfoniya», S. Jalil musiqasi | 1 |
| 7. | «Chuchmo'ma», N.Norxo'jayev musiqasi, Qambar Ota she'ri | Tovushqatorni har xil cho'zimda kuylash | Xor, xorlarning turlari va orkestr haqida eslash | L.V. Betxovenning hayoti va ijodi bilan tanishtirish | 1 |
| 8 | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Yengil jonli va tez ijro etish uchun mashqlar kuylash | Bolalar ovozining tuzilishi | «Qahramonlik», L.V. Betxoven musiqasi | 1 |

# 7-SINF

## YIL MAVZUSI: «O‘ZBEK XALQ MUSIQASINING MAHALLIY USLUBLARI»

## 1 -CHORAK MAVZUSI: «QASHQADARYO-SURXONDARYO, SAMARQAND-BUXORO VOHALARINING MUSIQIY USLUBLARI BILAN TANISHUV»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo‘shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga bag‘ishlangan suhbat o‘tkazish (qo‘shiq, she’r ijro etish) | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | 6-sinfda o‘tilganlarni takrorlash | O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasini tinglash va kuylash. Davlat Ramzlari haqida suhbat | 1 |
| 2. | «Terimda», F. Nazarov musiqasi, U. Rashid she’ri | Ikki ovozli mashqlar kuylash | «Registr», «Ritm» va «Usul» haqida ma’lumot | O‘zbek xalq musiqa madaniyatini shakl topishi, «Alla», «Lapar», «Terma» asarlaridan tinglash | 1 |
| 3. | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish, badiiy ijrosiga erishish | Aniq talaffuzga erishish uchun mashqlar kuylash | «Temp»haqida ma'lumot | O‘zbek musiqasining mahalliy uslublari | 1 |
| 4. | «Ey nozanin», o‘zbek xalq kuyi, Muqimiy g‘azali. | Nafasni yo‘lga qo‘yish uchun mashqlar kuylash | Intervallar va ularning turlari | Qashqadaryo-Surxondaryo musiqa uslubi haqida ma’lumot | 1 |
| 5 | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish, badiiy ijrosiga erishish | Ansamblga erishish uchun mashqlar kuylash | Sof intervallar haqida ma’lumot | Qashqadaryo-Surxondaryo an’anaviy cholg‘ulari haqida ma’lumot | 1 |
| 6. | Qo‘shiqni o‘g‘il va qiz bolalar guruhiga bo‘lib o‘rgatish | Tovushqatorni kuylab dirijorlik qilish | Sof intervallarni kuylab dirijorlik qilish | Qashqadaryo-Surxondaryo musiqa uslubidan «Mehnat qo‘shiqlari», «Lola sayli qo‘shiqlari» va «Dostonchilik maktabi» haqida | 1 |
| 7. | «Munajjim bobo», N. Norxo‘jayev musiqasi, P. Mo‘min she’ri | Intervallarni kuylash | Katta-kichik intervallar haqida ma’lumot | Samarqand-Buxoro mahalliy uslubi bilan tanishuv | 1 |
| 8. | Qo‘shiqni ovozlarga bo‘lib o‘rgatish, naqaroti ustida ishlash | Tovushqatorni va intervallarni kuylash | Sof va katta-kichik intervallarni kuylash | Samarqand «yor-yori» va Buxoro «yor-yori»ni tinglash | 1 |
| 9. | Qo‘shiqni to‘liq o‘rganish, badiiy ijrosiga erishish | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | Intervallarni mustahkamlash | Samarqand-Buxoro musiqa uslubida «Qarsak» janri, «Sozandachilik san’ati», «Mavrigi» janri | 1 |

# 7-SINF

## 2-CHORAK MAVZUSI: «FARG'ONA-TOSHKENT HAMDA XORAZM VOHALARINING MUSIQIY USLUBLARI BILAN TANISHUV»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Eh orzular», R. Tolipov she'ri, N. Norho'jayev musiqasi | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar | «Lad» va unung turlari | Farg'ona-Toshkent mahalliy uslublari bilan tanishuv, «Tanovor», «Diyorimsan», asarlarini tinglash. Jabborov musiqasi Habibiy she'ri | 1 |
| 2. | Qo'shiqni ikki ovozga bo'lib o'rgatish. Sof intonatsiyaga erishish | Nota yo'lida kichik mashqlar kuylash | «Ton» va «Yarim ton» haqida ma'lumot | Farg'ona-Toshkent cholg'u musiqasi. «Yallachilik» san'ati bilah tanishtirish. «Sarbozcha», «Ayajon boshginam og'riydi» asarlarini tinglash | 1 |
| 3. | Qo'shiqni to'liq o'rganish badiiy ijrosiga erishish | Sho'xchan va yengil mashqlar kuylash | Majo'r va minor ladlarining tuzilishi | «Xalq ashulalari» va «Katta ashula» janrlari bilan tanishuv | 1 |
| 4. | «Yoshlik yo'llari chaman», K. Kenjayev musiqasi, X. Muhammad she'ri | Tovushqatordagi uchtovushliklarni har xil ritmda kuylash | Minor ladining tuzilishi | «Bir kelsun» A. Navoiy g'azali, xalq kuyi «Qora sochim», «Olma atirjon» asarlarini tinglash | 1 |
| 5. | Qo'shiq talaffuzi ustida ishlash | Nafasni tejab ishlatish uchun mashqlar kuylash | «Tonallik» haqida ma'lumot | Xorazm mahalliy musiqa uslubi haqida ma'lumot | 1 |
| 6. | «Ey mehribonim» Xorazm xalq qo'shig'i, Chokariy g'azali | Legatto va stakattoga mashqlar kuylash | Do majo'r tonalligi va uning ahamiyati | Xorazm xalq kuylari. Xorazm xalq laparlari «Lazgi», «Nima-nima deysiz» asarlarini tinglash | 1 |
| 7. | Qo'shiqni to'liq o'rganish badiiy ijrosiga erishish | Sof intonatsiyaga va ansamblga erishish uchun mashqlar kuylash | Lya – minor tonalligi va uning ahamiyati | Xorazm ashulachilik san'ati, Xorazm xalfachilik san'ati, «Ganji qora bog'», «Mustaxzod» qo'shiqlarini tinglash | 1 |

# 7-SINF
# 3-CHORAK MAVZUSI: «MAQOM, SHASHMAQOM»

| Belgilan-gan vaqt, kun, oy | Qo'shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Turkiston farzandimiz», D. Omonullayeva musiqasi, Toxir Mullaboyev she'ri | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Ladning turg'un va noturg'un tovushlari | «Maqom» haqida ma'lumot | 1 |
| 2. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Keng nafas hosil qilish uchun mashqlar | Tovushqatorning tuzilishi. Intervallarni mustahkamlash | «Ushshoq» va «Qora ko'zim» asarlarini tinglash | 1 |
| 3. | «Soqinomai safti kalon», o'zbek xalq kuyi, Bobur g'azali | Sof intonatsiya, talaffuz, ansambl hosil qilish uchun mashq | Melodik intervallar bilan tanishish | «Munojot» asarini tinglash | 1 |
| 4. | Qo'shiqni intonatsiyasi, ritmik surati, avji ustida ishlash | Mayin va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Garmonik intervallar bilan tanishish | «Shashmaqom» haqida ma'lumot | 1 |
| 5. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Jadal va yengil ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Major uchtovushligi tuzilishi | «Nasrulloiy» maqomini tinglash | 1 |
| 6. | «Biz tinchlikni istaymiz», K. Kenjayev musiqasi, B. Isroilov she'ri | Keng nafas hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Minor uchtovushligi tuzilishi | «Farg'ona -Toshkent maqom yo'llari | 1 |
| 7. | Qo'shiqni ikki ovozga bo'lib o'rgatish | Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylash | Intervallarni va uchtovushliklarni tuzilishini mustahkamlash | «Toshkent irog'i» asarini tinglash | 1 |
| 8. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Mayin va tekis ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Oddiy o'lchovlar va dirijo'rlik harakati | Xorazm maqomlari haqida ma'lumot. «Qari navo» asarini tinglash | 1 |
| 9. | «Bog'bon qiz», o'zbek xalq qo'shig'i | Bir notadan turli xil intervallar kuylash | Murakkab o'lchovlar | Buxoro shashmaqomi haqida ma'lumot | 1 |
| 10. | Qo'shiqni to'liq o'rganish, badiiy ijrosiga erishish | Har xil o'lchovda va tovushqatorida kuylash | Tovushqatorni, intervallarni dirijo'rlik harakati bilan ko'rsatib kuylash | «Baljuvon» kuyini tinglash | 1 |

## 7-SINF
## 4-CHORAK: «XORAZM MAQOMLARI. FARG‘ONA-TOSHKENT MAQOM YO‘LLARI»

| Belgilangan vaqt, kun, oy | Qo‘shiq nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Musiqa savodi | Musiqa tinglash | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | «Gul fasli», Sh. Yormatov musiqasi, M. Muhammedova she’ri | Sof intonatsiya hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Intervallarni takrorlab mustahkamlash | «Tanovor-2» asarini tinglash | 1 |
| 2. | Qo‘shiqni jumlalarga bo‘lib o‘rgatish | Ansamblga erishish uchun mashqlar kuylash | Fermata haqida ma'lumot | «Toshkent irog‘i» asarini tinglash | 1 |
| 3. | Qo‘shiqni badiiy ijrosiga erishish | Tovushqatorni legatto va stakatto qilib kuylash | Lad va uning turlari | «Farg‘ona-Toshkent» maqom yo‘llari bilan tanishtirish | 1 |
| 4. | «Otmagay tong», T. Jalilov musiqasi, Sobir Abdulla she’ri | Zanjirband ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | O‘lchov. Takt. Zatakt | «Olma-atirjon», o‘zbek xalq qo‘shig‘i | 1 |
| 5. | Qo‘shiqni ovozlarga bo‘lib alohida o‘rgatish | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Alteratsiya belgilarini eslash | «Bir kelsun», Alisher Navoiy g‘azali xalq kuyi | 1 |
| 6. | Qo‘shiqni mayinligi, ritmik sur'ati ustida ishlash | Keng va ravon ovoz hosil qilish uchun mashqlar kuylash | Dinamik belgilar haqida ma'lumot | Xorazm maqomlari haqida ma’lumot. Komiljon Otaniyozovning hayoti va ijodi | |
| 7. | «Ganji Qorabog‘», Xorazm xalq kuyi | Nafasni rejalab ishlatish uchun mashqlar kuylash | Repriza va Voltalarni eslash | «Farg‘ona-Toshkent» «Xorazim maqomlaridan namunalar tinglash | 1 |
| 8. | Qo‘shiqni badiiy ijrosiga erishish | Ikki ovozli mashqlar kuylash | Notaga qarab kuylash | To‘rtta asosiy mahalliy uslublardan namunalar tinglash | |

## 5-SINFDA NOAN'ANAVIY BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI
## MAVZU: SAHNAVIY ASARLAR

**Darsning mavzusi:** ''Musiqa olamiga sayohat''.

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarni mustaqil fikrlash, erkin so'zlashga, o'z ustida ishlashga o'rgatish. Oz kuch sarflab ko'proq natijaga erishish.

**Darsning jihozlari:** Reja, konspekt, plakatlar, kartochkalar, CD disklar, tarqatma materiallar.

**Darsning turi:** Noan'anaviy.

**Darsning borishi:**

O'quvchilar bilan salomlashib, davomatni aniqlayman. Bugun sizlar bilan yangi pedagogik texnplogiya bo'yicha dars o'tamiz deb, o'yin turlari va shartlari bilan tanishtiraman. Buning uchun sinf o'quvchilarini kartochkalar yordamida besh guruhga bo'laman, va tayyorlab qo'yilgan partalar atrofiga o'tqazaman. Har guruhda (6-7 tadan o'quvchi bo'lishi kerak). Birinchi guruh – «Doirachilar», ikkinchi guruh – «Rubobchilar», uchinchi guruh – «Dutorchilar», to'rtinchi guruh – «Changchilar», beshinshi guruh – «Surnaychilar».

Bolalarga o'yin mezonlarini tushuntiraman. Har bir guruh belgilangan vaqtda, berilgan topshiriqlarga aniq, lo'nda, mazmunli javob berishi kerak.

Agar guruh to'g'ri, to'liq, tez javob bersa (qizil kartochka 3ball).

Agar guruh to'g'ri javob bersa (yashil kartochka 2 ball).

Agar guruh javobida kamchiliklar bo'lsa, (sariq kartochka 1 ball) bilan baholanadi.

Buning uchun berilgan topshiriq ustida o'ylab, bir fikrga kelib, berilgan javobini diqqat bilan tinglab, ba'zi joylarini to'ldirib guruhingizga ball to'plashingiz mumkin.

Shunday qilib o'yinimizni I sharti bilan tanishtiraman.

**1. Shartning nomi** «Yelpig'ich». Bunda o'quvchilar tarmoqli muammo xarakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan bo'lib, mavzuning tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi.

I shartni boshlaymiz. (vaqt belgilanadi, shartlar tushuntiriladi) «Doirachilar» guruhiga topshiriq: O'zbekistonda balet san'atini rivojlanish tarixini ochib bering.

«Rubobchilar» guruhiga topshiriq: O'zbek musiqasida opera janri tarixini yoritib bering.

«Dutorchilar» guruhiga topshiriq: O'zbekistonda musiqali drama va komediyani rivojlanishi.

«Changchilar» guruhiga topshiriq: O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri va xor haqida ma'lumot bering.

«Surnaychilar» guruhiga topshiriq: Simfonik orkestr va uning turlari haqida ma'lumot.

**O'yinimizni II sharti bilan tanishamiz.**

"Aqliy hujum" texnologiyasi.

Bu shartda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotira, nutq, rivojlanadi, o'z fikrini erkin ifodalash mahorati shakllanadi.

Guruhlarga kartochkalar tarqatiladi. Har bir kartochkada 3 tadan savol bo'lib, o'quvchilar kartochkalarni tanlab, guruhlarda birlashib, savollarga javob beradilar.

*«Doirachilar» guruhiga savollar»*

Interval deb nimaga aytiladi?

«Parvozdagi qushchalar» qo'shig'ini mualliflari kim?

Turli cholg'u ijrochilar guruhidan tuzilgan katta jamoa qanday nomlanadi?

*«Rubobchilar» guruhiga savollar:*

Dinamik belgilar necha turga bo'linadi?

«Chumoli» qo'shig'ining mualliflari kim?

«Uvertyura» deb nimaga aytiladi?

*«Dutorchilar» guruhiga savollar:*

Intervallar necha turga bo'linadi?

«Aziz uztozlar» qo'shig'ining mualliflari kimlar?

Kamonchali cholg'ular turiga qanday asboblar kiradi?

*«Changchilar» guruhiga savollar:*

Pauzalar necha turga bo' linadi?

«Sumalak» qo'shig'ining mualliflari kimlar?

Musiqiy asarni raqs harakatlari orqali ifodalanishi nima deb ataladi?

*«Surnaychilar» guruhiga savollar:*

Alteratsiya belgilari necha turga bo'linadi va ularni vazifalari?

«Bolalarning ko'zlari» qo'shig'ining mualliflari kimlar?

Birinchi bolalar operasini kim yozgan?

**Endi III shartga o'tamiz.** "Tarozu" texnologiyasi. Bunda har bir guruh o'qituvchi pioninada yoki rubobda biror qo'shiqdan parcha ijro etib bersa, bolalar kuyni nomi va mualliflarini topib, qo'shiqni ifodali qilib ijro etib beradilar.

«Doirachilar» guruhi – «Chamandagi gullarmiz», N. Norxo'jayev musiqasi.

«Rubobchilar» guruhi – «Sumalak», Sh. Yormatov musiqasi.

«Dutorchilar» guruhi – «Salom quyoshjon», A. Mansurov musiqasi.

«Changchilar» guruhi – «Chumoli», R. Abdullayev musiqasi.

«Surnaychilar» guruhi – «Bolalar», X. Rahimov musiqasi.

Har bir guruh qo'shiqni mualliflarini topib xarakterini aniqlab, ifodali qilib, qo'shiqlarni belgilangan vaqtda kuylab beradi.

Guruhlar bajarilgan shartlar bo'yicha ball tizimida baholanadi. Faol guruhlar rag'batlantiriladi.

Dars yakunlanib, uyga vazifa berildi.

## 6-SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI

## MAVZU: MUMTOZ MUSIQA

**Darsning mavzusi:** "Mumtoz musiqa haqida ma'lumot".

Qo'shiq kuylash: «Ey nozanin», o'zbek xalq kuyi, Muqimiy g'azali.

Musiqa savodi: 2/4 o'lchovida dirijorlik qilib, notalarni nomini aytib kuylash.

Musiqa tinglash: «Baljuvon», o'zbek xalq kuyi.

**Darsning maqsadi:**

Tarbiyaviy: O'quvchilarda mumtoz musiqaga muhabbat uyg'otish.

Ta'limiy: O'quvchilarga notalarni nomini kuylab dirijorlik qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni qo'shiq kuylash va mumtoz musiqani tinglash hamda idrok qilishga o'rgatish.

Darsni jihozlash: Reja konspekt, plakatlar, kartochkalar, CD disklar, tarqatma materiallar, magnit tasmalar.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning borishi:**

O'quvchilar bilan salomlashib davomatni aniqlayman. Uyga berilgan vazifani tekshirish uchun savollar beraman.

O'tgan darsda qanday qo'shiqni organganmiz?

Bu qo'shiqni mualliflari kim, mazmuni kim haqida?

Musiqa savodidan qanday topshiriq berilgan?

Mumtoz musiqa haqida qanday ma'lumotga egasiz?

So'ngra o'quvchilarga kuylash holatini eslatib, ularni ovozlarini sozlayman.

1. Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylataman.

2. Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylataman.

3. Ikki ovozda kuylash uchun mashqlar kuylataman.

O'tgan darsda o'rgatilgan M. Burxonov, musiqasi A. Oripov she'ri "O'zbekiston davlat madhiyasi" qo'shig'ini ifodali qilib takrorlab, mustahkamlayman.

Yangi Muqimiy she'ri, o'zbek xalq kuyi, «Ey nozanin» qo'shig'ining mazmuni tarixi bilan tanishtirib, kuylab beraman. Bu qo'shiqda insonlarni mehr-muhabbati, istirobi, bir-biriga hurmati, rashki haqida kuylanadi. Bu qo'shiq re-minor tonligida / kuplet shaklida og'ir, vazmin xarakterda o'rtacha tempda 2/4 o'lchovida yozilgan. Endi qo'shiqni o'quvchilarga ifodali qilib mayin ovozda ijro etib beraman. So'ngra o'quvchilarga qo'shiq mazmuniga oid savollar beraman:

Qo' shiq nomi va mualliflari kimlar?

Qo'shiq qanday ladda, tempda yozilgan?

Qo'shiq mazmuni nima haqida?

Qo'shiq qanday o'lchovda va shaklda yozilgan?

Qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib, notalar nomi bilan yoki biror bo'g'inda 2/4 o'lchoviga dirijorlik qilib o'rgataman.

So'ngra qo'shiqni magnit tasmasida o'zbek xalq cholg'u asboblari ijrosida tinglataman. Mumtoz musiqa haqida o'quvchilarga ma'lumot beraman. Mumtoz musiqa o'z qadrini yo'qotmagan chuqur mazmunga ega bo'lgan yetuk namunaviy, uzoq tarixga ega bo'lgan asar.

Mumtoz musiqa ikki xil shaklga ega. Ulardan biri cholg'u musiqasi bo'lsa, ikkinchisi ashula yo'lidir. Cholg'u musiqasi tarkibida eng sodda xalq kuylaridan tortib, to murakkab maqom namunalarigacha o'z ichiga oladi. Shular orasida maqom cholg'u yo'llari bilan birga, juda ko'p an'anaviy mumtoz asarlar ham bor. Mumtoz musiqani o'zbek bastakorlari turli davrlarda yaratganlar. Mumtoz kuylar azaldan o'zbek xalq cholg'ulari: tambur, dutor, rubob, doira, chang, surnay kabi sozlarda ijro etib kelingan. Bunday kuylarga «Cho'li-iroq», «Munojat», «Tanovar», «Jonon», «Mirzadavlat», «Rohat», «Aliqambar» kabi asarlar kiradi. Bu kuylarni ijro etgan va yaratgan bastakorlar Usta Olim Komilov, Yunus Rajabiy, Turg'un Alimatov, Muhammadjon Mirzayev, Komiljon Otaniyozov va boshqalar. Hozir sizlar bilan o'zbek xalq kuylaridan «Baljuvon» kuyini magnit tasmasida tinglaymiz.

Tinglangan asarlari bo'yicha o'quvchilarga savollar beraman.

Hozir tinglagan kuyingizni nomi nima va uni kim yaratgan?

Bu kuy qanday o'zbek xalq cholg'u asboblarida ijro etilgan?

Mumtoz musiqa deganda nimani tushunasiz va uning tarixi?

Mumtoz musiqani qanday turlari mavjud va uning asoschilari kimlar? Berilgan javoblar yuzasidan o'quvchilarni baholayman. Baholarni ovoz chiqarib, e'lon qilaman.

Darsni yakunlayman, uyga vazifa beraman. Mumtoz musiqalar nomlarini yozib kelish, yuqoridagi kuylardan birortasini tinglab tahlil qilib kelish va o'zbek xalq cholg'u asboblari rasmini chizib keling. qo'shiq so'zlarini yodlab, dirijorlik ishoralarini o'rganib keling deb o'quvchilar bilan xayrlashaman.

## 7-SINF UCHUN BIR SOATLIK DARS ISHLANMASI. MAVZU: XORAZM MAQOMLARI

**Darsning mavzusi:** "Xorazm maqomlari".

1. Qo'shiq: «Ey mehribonim» Xorazm xalq kuyi, Chokariy she'ri.
2. Musiqa savodi: Intervallar haqida bilimlarni mustahkamlash.
3. Musiqa tinglash: Xorazm Dugoh maqomidan "Peshrav"kuyini tinglash

**Darsning maqsadi:**

Ta'limiy: O'quvchilarga Xorazm maqomi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: Milliy musiqaga muhabbat. qiziqish uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: Intervallar haqida ma'lumot berish. Bilimlarni mustahkamlash.

**Darsni jihozlash:** 7-sinf darsligi. reja-konspekt. musiqa cholg'u asbobi (pianino, rubob) DVD, SD disklar. tarqatma materiallar. kartochkalar.

**Darsning turi:** Aralash.

**Darsning borishi:**

O'quvchilar bilan salomlashib. davomatni aniqlayman. Uyga berilgan vazifani tekshiraman. kartochkalar tarqatib, savollar beraman:

"Saft" va "Mo'g'ulcha" aytim yo'llari haqida ma'lumot bering.

Olti maqom nomlarini ayting.

Mushkulot va nasr bo'limining asosiy aytim yo'llari qanday nomlanadi?

O'tgan darsda tinglagan asar mazmunini yoritib bering. So'ngra o'quvchilar ovozini sozlayman.

Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylataman.

Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylataman.

Oldingi darsda o'rgatilgan «Soqinomai safti kalon»qo'shig'ini (xalq kuyi, Bobur g'azali) takrorlaymiz.

Bugun sizlar bilan. yangi "Ey mehribonim" (Xorazm xalq kuyi, Chokariy g'azali) qo'shig'ini o'rganamiz.

So'ngra qo'shiq mazmuni va asar ijrosi bilan tanishtirib, tahlil qilib musiqiy jumlalarga bo'lib o'rgataman. Bu qo'shiqda insonlardagi bir-biriga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, sog'inch haqida kuylanadi. Qo'shiq majo'r tonligida yozilgan, o'rtacha tempda, mayin, ifodali qilib kuylanadi. Endi o'quvchilarga qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib o'rgataman.

Shu tariqa qo'shiqni I kupletini o'rgataman.

Bugun sizlar bilan «Xorazm maqomlari» mavzusi bilan tanishamiz. Xorazm maqomlari muayyan tizimdagi turkum shaklida XIX asrning birinchi yarimida qaror topgan bo'lib, bu turkum Buxoro maqomlari singari asosan, olti maqomdan iborat.

1. «Rost» maqomi.

2. «Buzruk» maqomi.

3. «Navo» maqomi.

4. «Dugoh» maqomi.

5. «Segoh» maqomi.

6. «Iroq» maqomi.

XIX asrda yashab ijod etgan shoir va musiqashunos olim Paxlavon Niyoz Muhammad (tahallusi Komil Xorazmiy 1825–1897) o'zi kashf etgan «Tanbur chizug'i» nomli o'ziga xos nota yozuvi vositasida Xorazm maqomlarini yozib olish tajribasini boshlab bergan edi. Bu ishni unung o'g'li Muhammad Rasul Mirzaboshi davom ettirgan.

Hozir sizlar bilan birga Xorazm Dugoh maqomidan «Peshrav» kuyini CD diskda tinglaymiz.

So'ngra tinglangan asar yuzasidan savol-javob o'tkazaman.

Peshrav kuyi qanday mazmunga ega ekan?

Qanday xalq cholg'u asboblarida bu kuy ijro etilgan?

Endi, intervallar haqidagi bilimingizni mustahkamlaymiz.

1. Interval deb nimaga aytiladi?

2. Intervallar necha turga bo'linadi?

3. Sof intervallar nomini ayting.

4. Katta-kichik intervallarni nomini ayting.

Quyidagi berilgan notalardan yuqoriga qarab raqamlarga monand intarvallar tuzing va ovozda mashq kuylang.

Bugun sizlar bilan Xorazm maqomlari, xalq qo'shiqlari va intervallar bilan tanishdik. Uyga vazifa Xorazm maqomlari haqida bilimlarni mustahkamlash. Qo'shiqni o'rganish, intervallarga misollar tuzib kelish. Xayr dars tamom.

## 2.6. Musiqa madaniyati darslarida ikkiovozlik qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish

### 6-amaliy mashg'ulot

Maktab o'quvchilarini qo'shiq kuylash malakalari, asosan musiqa madaniyati darslarida va xor to'garaklarida shakllanadi. Chunki vokal-xor ishlari vositasi bilangina sof intonatsiya, ohangdosh, ikki va ko'povozli, xor ijrochiligiga erishish mumkin. Inson ovoz apparati o'ziga xos murakkab lirik asbob bo'lib u o'zining rang-barang tembr boyligi, nihoyatda nozik, musiqani ifodalash xususiyatlariga egaligi bilan hamma musiqa asboblaridan ustun turadi. Inson ovozi kuy va so'zni organik payvandlash natijasida musiqa nutqining asl ma'nosini ochib beradi. Bu borada inson ovoziga teng keladigan birorta ham musiqa asbobi yo'q. Shuning uchun ham inson ovozi ko'pincha "gapiruvchi musiqa asbobi" deb ham yuritiladi.

Insonning ovoz apparati – tomoq, hiqildoq, halqum, nafas ravog'i, ovoz pardalari (bog'lamlari), rezonatorlar va har xil mushaklardan iborat. Ovoz hosil qilganda esa, og'iz bo'shlig'i nafas o'pka, hiqildoq konussimon ovoz pardalari, eshituv organlarini birgalikdagi harakatlari orqali amalga oshiriladi. Dastlab, o'quvchilarni ko'povozli kuylashga o'rgatishning zamonaviy shakl va uslublarini, ularni musiqa darslari va xor to'garaklarida kuylash ustida to'xtalamiz. 1970-yillar boshida O'zbekistonning umumta'lim maktablari o'quvchilarni ko'povozli kuylashga o'rgatish

muammolariga doir, rossiyalik olimlar Olga Petrovna Sokolova va Aleksandr Ivanovich Yevseyevlar yirik tadqiqot ishlari olib borganlar. O.P. Sokolovaning izlanishlarida asosiy e'tibor kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga oid unison va garmonik eshituvni (idrokni) rivojlanishiga, ikki ovozli kuylashning dastlabki malakalarini hosil qilishga qaratiladi. (O'quvchilarni ikki ovozli xor asarlarni kuylashga o'rgatishning boshlanishida, jo'rovozlikda takrorlanmaydigan birovozli ijro usulini o'qituvchining sinf bilan duet bo'lib kuylashini va ikkiovozgina shartlariga mos keladigan boshqa usullarni alohida ko'rsatib o'tadi. O'rgatishning boshlang'ich davrida parallel emas, balki kontrast harakat qiluvchi yo'liga ega bo'lgan qo'shiqlarni kuylash muhim ekanligini asoslab beradi. Ammo tajribalarimizni aniqlashicha o'zbek bolalarining birinchi darslaridanoq musiqiy o'quvi, musiqiy qobiliyati, O'zbekiston sharoitida to'liq rivojlangan bo'lishi sababli, to'g'ridan-to'g'ri ko'povozli kuylashga o'tish mumkin ekan, degan xulosaga kelindi. A.I. Yevseyev o'z tadqiqotlarining tayyorlov davrida unisonga e'tibor berib, unisonni ikkiovozli kuylashning asosi deb bildi. Uning izlanishlarida o'quvchilar ikki, uchovozli kuylashga o'tishlari uchun, yordam beruvchi melodik kantillena-tayyorlov davrining muhim payti hisoblanadi. O. Sokolova va A.I. Yevseyevlar izlanishlari hozirgi zamon boshlang'ich maktabda ko'povozlikni shakllantirish talablariga mos keladi.

Bu izlanishlar O'zbekiston maktablarida o'quvchilarni ikki va ko'povozli qo'shiqlarni kuylashi, bugungi kunda ular o'tkazgan tajribalar natijasidir. 1990-yillarga kelib boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'povozlikni murakkab bo'lmagan shakllarini to'la miqdorda o'zlashtirish qobiliyatlarini namoyon eta boshladilar. Bu hol hozirgi zamon bolalarining aqliy va jismoniy jihatdan ancha tez rivojlanayotganligidan dalolatdir. Katta bolalar xori rahbari, Rossiya xalq artisti Vladimir Sergeyevich Popov «Boshlang'ich sinflar xorida ko'povozlik» maqolasida shunday deydi: Boshlang'ich sinflarda ko'povozli kuylashni biz juda muhim deb hisoblaymiz. Aks holda, bolalarni musiqiy rivojlanishi to'liq bo'lmaydi. Chunki, birovozli kuylashda o'quvchilarni kuy eshitish qobiliyati murakkablashadi, xor bo'lib kuylash uchun kerak bo'lgan garmonik eshituv qobiliyati deyarli rivojlanmaydi.

Demak, gap ko'povozlikning kuylash imkoniyatlari ustida emas, balki bolalarning musiqiy o'quvini garmonik o'sishi, har tamonlama rivojlangan, madaniyatli, ma'naviy pok, yuksak didli inson bo'lishi haqida borar edi. Ko'pincha, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ikkiovozlikka o'tish, o'quvchilar va o'qituvchi uchun qiyinchilik tug'diradi. Shunday bo'lgan taqdirda o'qituvchi birovozli qo'shiqni o'rgatib o'z maqsadiga erishgan deb hisoblaydi. Ammo o'qituvchining bu xatosi, o'quvchilarni **birinchidan,** kopovozli kuylash orqali hosil bo'ladigan sof intonatsiya, garmonik eshituvlarni his etish, ovoz apparatlarini rivojlanish malakalaridan mahrum qiladi, ikkinchidandan ancha murakkab bo'lgan va sifati jihatidan yangi musiqani o'rganishda o'quvchilar musiqiy eshituvga katta turtki bo'ladigan umumiy pedagogik tamoyillari ikki ovozda kuylashga o'rgatishning asosiy tamoyili bo'lib hisoblanadi. O'quv yilining II yarmidan boshlab ikkinchi sinfda dastlabki ikkiovozli, ammo nihoyatda oddiy mashqlar, ya'ni hajm jihatdan kichik-kichik, o'rta registrda kuylash uchun qulay bo'lgan ladlardan misollar keltirish mumkin. Dastlab, majo'r ladlaridagi mashqlardan foydalanish ma'qul, chunki bolalar bu mashqlarni minor ladidagi mashqlarga qaraganda osonroq bilib olishadi. Eng oddiy mashqlarni ham, ancha murakkab mashqlarni ham asosan solfedjio yo'li bilan o'rganish va kuylash kerak, chunki notalarning muayyan nomlari shu notalarga mos keladigan tovushlarning balandlik holatini ham aniqlab beradi. Mashqlar maxsus ko'rgazmali qurollar yoki kompyuter yordamida ko'rsatib berilishi kerak. Kuylashni boshlashdan oldin bolalar notalar nomini xotirada saqlab, har bir ovoz alohida, so'ngra birgalikda kuylashlari kerak. Tersiya, sof kvarta, kvinta singari ohangdosh intervallarni yangrashini tonika doirasida tasavvur qilmoq kerak. Ikki tovush qo'shilishidan hosil bo'ladigan intervalning nomini nazariy jihatdan mustahkamlash uchun, amaliy ravishda o'zlashtirish kerak. Intervallarni faqat ikkiovozli mashqlar sifatida kuylab qolmay, balki tinglash uchun ham topshirish kerak. Intervallarga mo'ljallangan mashqlarni asta-sekin murakkablashtirish kerak. Shuningdek, melodiya tili sodda bo'lgan ikkiovozli qo'shiq parchasini kuylatish lozim. Maktab oquvchilarini ko'povozda kuylash malakalarini shakllantirish, asosan musiqa madaniyati

darslarida va darsdan tashqari xor to'garaklarida, qo'shiq kuylash va ovoz sozlash mashqlari ustida ishlash jarayonida amalga oshiriladi. Bolalar ovoz apparati – tomoq, hiqildoq, halqum, nafas ravog'i, ovoz pardalari (bog'lamlari), rezonatorlar va har xil mushaklardan iborat. Ovoz hosil qilganda esa og'iz bo'shlig'i, nafas, o'pka, hiqildoq, konussimon ovoz pardalari, eshituv organlari birgalikdagi harakatlari orqali amalga oshiriladi. Hiqildoq – ovoz paydo qilish apparati vazifasini bajaradi. Hiqildoq uzuksimon, qalqonsimon va ikki shoxsimon (uch burchak) tog'aylardan iborat bo'ladi. Ular muayyan muskullar yordamida oldinga va orqaga harakat qiladi. Odam ovozi juft bo'lishi bilan birga harakat qilish jarayonida o'zining ijobiy ta'sirini to'g'ri ko'rsatishdan ham mahrum qiladi. Shunday ekan, musiqa o'qituvchisi o'z faoliyatida har qanday qiyinchiliklarni yengib, musiqa darslariga ijodiy yondashib, duch kelgan muammolar yechimini topishga tayyor bo'lishi kerak. Shu bilan birga ikki va ko'povozli asarlarni o'quvchilarga o'rgatib, ularga ma'naviy ozuqa berish bilan birga ovoz apparatlarini ham shakllantiradi. Bu sohada metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilgan va tizimli ravishda olib boriladigan ish natijasida muvaffaqiyatga erishiladi.

Ikkiovozli qo'shiqlarni o'rgatishga kirishishdan oldin tayyorgarlik ishlari olib boriladi, bu davrda ikkiovozli qo'shiq aytishga zamin hozirlanadi. Dastlab, o'qituvchi o'quvchilarni vokal-xor mashqlarini kuylash yordamida, ovoz apparati, xotirasi, musiqiy o'quvi, ovoz jarangdorligi, sof intonatsiya kuylash ustida ish olib borishi kerak bo'ladi. Ikki va uch ovozli qoshiq o'rgatish metodlari quyidagilardan iborat:

O'quvchilar tovush baland-pastligini eshitishlari va sezishlari orqali musiqiy o'quvi, xotirasi, diqqat-e'tibori shakllanadi.

– Ikki ovozli qo'shiq kuylash malakasini aks-sado, ya'ni birinchi ovoz kuylagan tovushni ikkinchi ovoz xuddi shunday qilib takrorlaydi.

– Qo'shiq kuylash paytida har bir o'quvchi faol ravishda musiqiy tovushni va bir-birlari ovozlarini diqqat bilan eshitish kerak. «Kanon» shaklida kuylash, o'quvchilarni garmonik o'quvini o'stiradi. Musiqiy asar jo'rsiz ijro etiladi, bir ovoz ikkinchi ovozni quvlagandek ijro etiladi.

– Birinchi ovoz yuqoriga harakat qiladi, ikkinchi ovoz joyida qoladi, uchinchi ovoz esa pastga harakat qiladi. Tersiya, kvarta, kvinta intervallari oralig'ida kuylash ham o'quvchilarni musiqiy eshituvini o'stiradi.

– «Akappella» shaklida jo'rsiz kuylash, talaffuz, sof intonatsiya, musiqiy o'quv, ansabl malakalarini, xotirani rivojlantiradi.

Bir ovozda kuylash ustida ish olib borish davridayoq o'qituvchi o'quvchilarni ikkiovozda kuylashga asta-sekin tayyorlab borishi kerak.

Nafas orqali chiqayotgan havo hiqildoq tog'aylari orasida tortilgan ovoz pardalariga urilib tebratadi va ovoz chiqaradi. Rezonartorlar – tovushning baland-pastligi, yo'g'on-ingichkaligi, hiqildoq bo'shlig'ining katta-kichikligiga, pardalarning tarangligiga, ularning uzunligi va qalinligi, til halqum-hiqildoq muskullarining qisqarishiga bog'liqdir. Ovoz pardalari lotincha «lig vokale» deyiladi. Bu pardalar yuqori va pastga joylashgan bo'lib, yuqoridagisi soxta, pastdagisi esa chin ovoz pardasi deyiladi. Ayollar hiqildog'i, erkaklarnikiga qaraganda yuqoriroqda, bolalarniki esa undan ham yuqoriroqda joylashgan bo'ladi. Shuning uchun ham ovozlar har kimda har xil baland-past bo'ladi. Shuni aytish kerakki, inson erkin nafas olib, nafas chiqarganda ovoz chiqmaydi, chunki bunday vaqtda ovoz ravog'i erkin holda bo'lib, ovoz pardalari taranglashmagan, deyarli harakatda bo'lmaydi. Ovoz ravog'i toraya boshlashi bilan tovush chiqa boshlaydi.

Diskant – bolalarning yuqori ovozi bo'lib, uning qamrovi «do 1» dan, — «fa», «sol» ikkinchi oktavagacha ko'tariladi. Diskant yengil, o'zgaruvchan, yumshoq yangraydigan ovoz bo'lmog'i uchun har xil kuy va ohanglarni juda ta'sirchan ijro eta oladi.

Alt – bolalarning pastgi ovozi. U kuchli va birmuncha yo'g'on, jarangdor tembrli bo'lishi bilan birga, ba'zi hollarda mayin xarakterga ham ega bo'ladi. Alt tovushining diopazoni kichik oktava «lya», dan «re2», «mi2» gacha bo'ladi. Ammo shunga e'tibor berish kerakki, Alt ovozining juda ham yuqori pardalari qollanilsa, bolalar zo'riqib kuylaydi, shuningdek juda past pardalarda kuylansa, ovoz kuchsiz bo'lib qoladi. Shuning uchun ham juda yuqori teksiturada yozilgan asarlar bolalar xoriga tavsiya etilmaydi. Bunday paytlarda asarni bolalar xorining ovoziga moslashtirish kerak. Alt ovozi diskantlarga nisbatan sustroq bo'ladi. Bunday hollarda o'qituvchi qo'shiq o'rgatishda e'tiborliroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Mutatsiya davrida ham musiqa o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Mutatsiya lotinchada, «mutatio» – o'zgarish degan ma'noni anglatadi. Bolalar bilan musiqa darslarida yoki xor to'garagida ishlaganda ularni yoshi, ovoz diapazoni, qiziqishi, musiqiy qobilyati, fiziologik va psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarur. O'g'il va qiz bolalarda 13-16 yoshda yurak kengayadi, muskullar mustahkamlana boradi, ovozida va organizmida o'zgarish davri boshlanadi. Bu davrda o'g'il bolalarda ovoz o'zgarishi sezilarli o'tadi. Hiqildoq va ovoz pardalarida qizarish paydo bo'ladi va ovoz o'zgara boshlaydi, qiz bolalarda esa, uncha sezilarli bo'lmaydi, ammo juda extiyorkorlik talab etiladi, chunki ovoz takomillashib, diapazon kengayishi ham mumkin. Bu paytda bolalar injiq, shoshqaloq, barcha narsaga pala-partish munosabatda bo'lishadi, shuning uchun o'qituvchi ular bilan do'stona munosabatda bo'lishi kerak. Bu paytda ular bilan vokal-xor ishlari olib borish, repertuar tanlashda ham alohida e'tibor beriladi. Shunday qilib, mutatsiya davrida extiyotkorlik bilan qo'shiq kuylash ham bolalar ovozini saqlash yo'llaridan biri hisoblanadi. Musiqa o'qituvchisi bolalarni qo'shiq kuylashga o'rgatish jarayonida ularda vokal-xor ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham katta e'tibor berishi kerak.

Har bir qo'shiqni kuylashdan oldin, maxsus vokal-xor mashqlarini kuylashni ahamiyati katta. Mashqlar kuylash oldidan bolalarni diqqat-e'tiborini bir joyga to'plab, ovoz apparatini ishchan xolatga keltiradi va ma'lum darajada kuylash ko'nikmalarini hosil qilish yoki ularni mustahkamlash ishlarini bajaradi. Vokal-xor mashqlari doimo qo'shiq o'rgatishni boshlashdan oldin kuylash lozim. Mashqlarni kuylashga 5-7 daqiqa vaqt ajratiladi. O'qituvchi qanday mashqlarni tanlash va ularni qanday navbatda ijro etish oldindan puxta o'ylab rejalashtirishi kerak. Oqituvchining o'zi mashqni chiroyli, mayin, savodli qilib kuylay olishi va cholg'u sozida ijro etib berishi kerak. Har bir mashq ma'lum maqsadni ko'zlagan bo'lishi kerak.

Shuningdek, mashqlar qo'shiqdan biror qiyinchilik (talaffuz, ritmik, sof intonatsiya) nuqsonlarni bartaraf etish uchun o'rgatilishi lozim. O'qituvchi har bir mashq vazifalarini aniq bilmog'i lozim. Vokal-xor mashqlarining kopchiligi kompleks mashqlar bo'lib, bir vaqtning o'zida bir necha maqsadlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan: nafas olish va sof intonatsiya; talaffuz va ansanbl, ovoz hosil qilish va soz, ikkiovozlik va talaffuz, ko'povozlik va nafas, soz va ansanbl. Buning uchun o'qituvchi oldiga aniq maqsad qo'ymog'i lozim. Ovoz sozlaganda odatda turli xildagi 3-4 mashqlar kuylanadi. Ma'lum vaqt o'tgach o'quvchilar u yoki bu malakani egallagandan so'ng, boshqa mashqlar bilan almashtirib turiladi. Hamma mashqlar xarakteri, tempi, ladi jihatidan xilma-xil bo'lmog'i, birovozli, ikkiovozli bo'lishi mumkin, ammo bunga o'qituvchi maqsadli yondashishi kerak bo'ladi.

## TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Inson ovozining o'ziga xos xususiyatlari va tuzilishini izohlab bering.
2. O'zbekistonda ikki va ko'povozda kuylashni rivojlantirish haqida rossiyalik olimlarning olib borgan tadqiqotini izohlab bering.
3. Ikki va ko'povozli metodlar va usullarni izohlab bering.
4. Bolalar ovoz apparatining tuzilishi qanday?
5. «Mutatsiya» nima va uning xususiyatlari?

# OVOZ SOZLASH UCHUN MASHQLAR

## To‘g‘ri nafas olish uchun mashqlar

1.




2.




3.




4.




## Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar

5.




6.




7.




8.



## Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar

9.




10.




11.




12.




13.




14.

## Notalarning nomi bilan kuylash uchun mashqlar



## Ikki ovozda kuylash uchun mashqlar

15.



16.




17.



## 2.7. 5-sinfda kuylash uchun qo'shiqlar

### 7-amaliy mashg'ulot

### O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi

Abdulla Oripov she'ri — Mutal Burxonov musiqasi

**Maestoso**




f
mf
cresc.
gay to a-bad il - mu fan, i-jod,
lol mash'-a-li, tinch - lik pos-bo-ni,
Shuh-ra-ting por - la -
Haq-se-var o - na
Naqarot:
fff
a tempo
sin, to-ki bor ja - hon!
yurt, man-gu bo'l o - bod!
Ol - - tin bu
p
ff
vo - diy-lar - jon O'z-be - kis - ton,
Aj - dod
8vb


lar mar - do - na ru - hi sen - ga yor! U - lug'
xalq qud - ra - ti jo'sh ur - gan za-mon O - lam - ni mah - li - yo ay - la -
1. gan di - yor! Bag'-ri
2. gan di - yor!

# Aziz ustozlar

To‘lqin Ilhomov she’ri

Sodir Boboyev musiqasi

**Allegretto**




a - ziz us - toz - lar.
Dom - la - jon - lar, o - na - jon - lar,
a - ziz a - ziz us - toz - lar
Bo - shi - miz - ni si - la - din -


giz, biz - ga oq yo'l ti - la - din -
dom - la - jon - lar
giz, o - na - jon -
lar, a - ziz us - toz - lar.
dom - la - jon - lar,
o - na - jon - lar.




Doim aziz hurmatingiz,
Unutmaymiz mehnatingiz.
Domlajonlar, opajonlar,
Aziz ustozlar.

Naqarot:

Boshimizni siladingiz,
Bizga oq yo'l tiladingiz.
Domlajonlar, opajonlar,
Aziz ustozlar.

Sizga izzat, sizga hurmat,
Yosh qalblarda bo'lur har vaqt.
Domlajonlar, opajonlar,
Aziz ustozlar.

Sizlar bizning baxtimizsiz,
Dillardagi ahdimizsiz.
Domlajonlar, opajonlar,
Aziz ustozlar.

# Bolalarning ko'zlari

Qambar Ota she'ri

Muhammadjon Otajonov musiqasi






Vatanim deb charaqlar,
Xalq baxtidan yaraqlar,
Doim do‘stni so‘roqlar.
Bolalarning ko‘zlari.

Tinchlik bo‘lsin mustahkam,
G‘am ko‘rmasin biron dam.
Yashnab kulsin chinakam
Bolalarning ko‘zlari.

# Qish zavqi

Abdusamat Yunusov she'ri

Shermat Yormatov musiqasi

**Yengil**






Tabiatga boq ukam,
Oppoq ko‘rpa to‘shabdi.
Oq harirda boqishi,
Kelinchakka o‘xshabdi

Naqarot:
Tarnovlarga osilib,
Sumalaklar qotibdi.
Qor tagida ona Yer
Tinch uyquda yotibdi.

Yur, ukajon, hovliga
Qor bo‘ronlar o‘ynaymiz.
Birga yasab Qorbobo
Shodlanamiz, quvnaymiz.

Naqarot:
Tarnovlarga osilib,
Sumalaklar qotibdi,
Qor tagida ona Yer
Tinch iyquda yotibdi.

# Yangi yil tilaklari

Po'lat Mo'min she'ri

Yefim Shvars musiqasi

**Andantino**






Yangi yilda yaxshilarni
Tabriklaymiz qutlaymiz
Dangasalik, xafalikni
Ko'ngillardan quvlaymiz.

Yangi istak, yaxshi istak
Doim olg'a yetaklar.
Yo'limizga, ko'nglimizga
Sochilganday chechaklar.

# Sumalak

To'lqin Bahromov she'ri

Shermat Yormatov musiqasi





Su- ma - lak ji - lo - la- nar,
p
pp
Dur
yo - g‘ar,
Of - tob - da ji - lo - la- nar,
Nur
yo -
g‘ar
3
3


Tom-chi-lar— bil-lur rang-da, Qa-rang, qa-rang,
qa-rang-a! Ko'z yo-shin qil-mas kan-da,
At-tang, at-tang, at-tang-a! Qish-ni ku-za:-
sa ke-rak, su-




Tarnovlarda sumalak,
Suv tomadi chak-chak.
Sumalak jilovlanar,
Dur yog‘ar,
Oftobda tillolanar
Nur yog‘ar.

Tomchilar billur rangda,
Qarang, qarang, qarang.
Ko‘z yoshin qilmas kanda
Attang, attang, attang.

Qishni kuzatsa kerak, sumalak.
Bahordan berib darak, sumalak.
Chak-chak-chak-chak,
Chak-chak-chak.

# Sariq jo'jalar

O. Po'latov she'ri

Farhod Alimov musiqasi




Solo
Har kun u - lar- ga
Yo' qol-sa bi - ri,
don dun be - ra- man.
to - pa-man shu on.
Xor
Har kun u - lar - ga
don dun be - ra - man.
to - pa-man shu on.
Solo
Ba - ri but - mi deb,
Jo' -ja as-rash-ning
sa-nab ko'-ra - man.
zav-qi bir ja - hon.
ff
Xor
Ba-ri but-mi, deb,
Jo' ja as-rash-ning
sa-nab ko' ra-man. Heyi
zav-qi bir ja- hon.
Solo
Jo'-ja -jo'-ja.
Jo'-ja - la-rim-ning
Jo'-ja -jo'-ja.
Jo'-ja - la-rim-ning


1.
pat-la-ri sa-riq.
Qa rang, ko'z la-ri
mi-si-li ta-riq.
2.
Xor
mi-si-li ta-riq.
Jo' ja-la-rim-ning
pat-la-ri sa-riq
mi-si-li ta-riq.
f
Jo'ja jo'ja.
mf
Qa-rang, ko'z-la-ri
mi-so-li ta-riq.




Jo'jalarimning
Patlari sariq
Qarang ko'zlari
Misoli tariq

Har kun ularga
Don-dun beraman
Bari butmi deb
Sanab ko'raman.

Yo'qolsa biri
Topaman shu on
Jo'ja asrashning
Zavqi bir jahon.

# Yomg‘ir yog‘aloq

Po`lat Mo‘min she’ri

Nadim Norxo‘jayev musiqasi









Shivir-shivir, shivirlab
Yomg'ir yog'di shitirlab
Bo'g'otlarga berkindi
Sho'x chumchuqlar pitirlab.

Naqarot:
O'ynab-o'ynab tushar suv
Kuylab, kuylab tushar suv
Yer bag'rini to'ldirib
Quvnab, quvnab tushar suv

Yomg'ir yog'ar paqirlab
Chuchvarasi vaqirlab
Har tomchi qut baraka
Yashnaydi dala qirlar

# Oymomojon rom bo‘ldi

Quddus Muhammadiy she’ri

Shermat Yormatov musiqasi

**Sho‘ge quvnoq**




o - chin bo' - lib qo' - na - miz yo - rug' yul - duz yu - zi - ga.
qir - mi - zi xol qo' - ya - miz
Naqarot
O'z - be - kis - ton
bay - ro - g'in
oy us - ti - ga ti - ka - -
A
miz
Oy - us - ti - ga ti - ka - miz
os - mon - ning qo' - ri - g'i - g'a
ol - tin chi - git.




Oymomojon rom bo‘ldi
Osmon gumbaz tom bo‘ldi.
Osmon gumbaz tomiga
Lochin bo‘lib qo‘namiz
Yorug‘ yulduz yuziga
Qirmizi xol qo‘yamiz.

Naqarot:
O‘zbekiston bayrog‘in
Oy ustiga tikamiz.
Osmonning qo‘rig‘iga
Oltin chigit ekamiz.

Oymomojon rom bo‘ldi
Osmon gumbaz tom bo‘ldi.
Endi yulduz oy bilan
Qilamiz bordi keldi.
Ertakdagi orzumiz
Bizning elda hal bo‘ldi.

# Parvozdagi qushchalar

Mirzapo'lat Mirzayev she'ri

Rustam Abdullayev musiqasi




lik
Har tong u-chay siz bi-lan ko'k - ni qu-chay siz bi-lan
Ho Ho o'y - nay - lik siz bi-lan
bir-ga kuy-lay-lik chiqib yuk-sak
bir-ga o'y-nay-lik ho ho
o-lam - ga nur - kel - ti-ray o-nam - ga
Ho, kuy - lay - lik ho, Bir-ga o'y-nay - lik, ho,




Parvoz qilgan qushchalar,
Chiroylisiz bunchalar,
Birga o'ynaylik ho,
Birga kuylaylik.

Har tong uchay siz bilan.
Ko'kni quchay siz bilan.
Birga o'ynaylik ho,
Birga kuylaylik.

Chiqib yuksak olamga,
Nur keltiray onamga,
Birga o'ynaylik ho,
Birga kuylaylik.

Rauf Tolipov she'ri

# Salom quyoshjon

Nadim Norxo'jayev musiqasi









Quyosh, quyosh, quyoshjon.
Salom, salom jonajon.
Moviy ko'kda yaraqla,
Nuring sochib charaqla

Naqarot:

Quyosh senga o'rtoqman
Sendek sho'xman quvnoqman.
Kulib-kulib yur quyosh,
Nurdan solib arg'imchoq.
O'ynayman shod xushchaqchaq,
Nur qo'lingni ber quyosh.

Baxtli go'zal zamonda,
Men yayrayman bo'stonda.
Tong yashnaydi dilimda.
Do'stlar tutar qo'limdan.

# 6-SINDA KUYLASH UCHUN QO'SHIQLAR

## Bolalar

Jumaniyoz Jabborov she'ri

Xabibullo Rahimov musicasi




Biz quv-noq - miz,
sho'x er - ka - miz,
Yo tog' - dan sha - lo - la - lar,
Va-tan - ga por - - loq er - ta - miz,
Bo - la - lar,
Bo -
la - lar,
Bo - la - lar.....
Bo - la - lar,




Xuddi bog‘lar gul-chechagi,
Qirlarda yo lolalar.
O‘zbekiston kelajagi –
Bolalar, bolalar, bolalar!

Biz quvnoqmiz, sho‘x, erkamiz,
Yo tog‘dan shalolalar,
Vatanga, porloq ertamiz
Bolalar, bolalar, bolalar!

Sevinch bo‘lib yog‘dik dilga,
Misli shabnam jalalar,
Biz iftixor, quvonch elga,
Bolalar, bolalar, bolalar!

Boshingizdan quyosh sochdi,
Mangu zarrin tolalar,
Iqbol bizga bag‘rin ochdi,
Bolalar, bolalar, bolalar!

# Munajjim bobom

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

**Allegro moderato**




Os-mon-lar - da nur ko'z - la-rin- giz,
Cha-raq - lay - di
yul-duz - la-rin - giz.
A - mir Te-mur ru -
-hi bo'-lib yor,
Yash-na moq - da bu o-zod di - yor.
Sa-mar - qand - da, Sa-mar - qand - da, bor - day - siz mu-dom
8va
Ey, mu - naj - jim, Ey, mu - naj - jim,




Osmonlarda nur ko‘zlaringiz,
Charaqlaydi yulduzlaringiz.
Amir Temur ruhi bo‘lib yor,
Yashamoqda bu ozod diyor.

Naqarot:
Samarqandda bordaysiz mudom,
Ey munajjim, Ulug‘bek bobom.

Fan ko‘ksida yashaysiz hamon,
Ardoqlagay jahon-u zamon.
O‘chmagaydur hech izlaringiz,
Biz yerdagi yulduzlaringiz.

Naqarot:
Samarqandda bordaysiz mudom,
Ey munajjim, Ulug‘bek bobom.

# Xush keldingiz

Hamid G'ulom she'ri

Sobir Boboyev musiqasi






Dilimizda doimo kuy bo‘lsin,
quyosh bo‘lsin.
Elimizda doimo Yurtboshimiz
bosh bo‘lsin.

Sizni qutlaydi do‘stlar,
Nafasi bahor avlod.
Ish ijodda doimo,
Parvozga tayyor avlod.

Naqarot:
Xush keldingiz bo‘ldik shod
Aziz mehmonlar bizga.
Baxtimiz qilib isbot,
Gullar tutamiz sizga.

Mirzapo'lat Mirzayev she'ri

# Dono bola

Nadim Norxo'jayev musiqasi

**Allegro moderato**






Hech kim bilan janjallashma
Deyishadi menga doim
Goh o'zlari arazlashib
Qolishadi adam oyim

Naqarot:
Quloq soling
Hoy kattalar
Amal qiling so'zingizga
Janjallashib bermang ozor
Jajji o'g'il-qizingizga.

Arazlashib qolishsa gar
Nimadandir adam, oyim.
Yarashtirish tashvish, g'ami
Faqat menga tushar doim.

Men adamni eritaman
Tizzasiga qo'yib boshim.
Aldasam ham bo'laverar
Chunki katta emas yoshim.

# Istiqlolim

Po'lat Mo'min she'ri

Avaz Mansurov musiqasi




Is - tiq - lo - lim.
O.....
O.....
O.....
O.....
O.....
O.....
O.....
O'y - xa - yo - lim,
til - da bo -




Istiqlolim - istiqlolim,
O‘zgalarga yo‘q malolim.

Istiqlolim - istiqlolim,
Yaxshilikdir o‘y-xayolim.

Istiqlolim - o‘y-xayolim.

Istiqlolim - istiqlolim,
Barq urmoqda gul niholim.

Istiqlolim - istiqlolim,
O‘zbekiston o‘z iqbolim.

Istiqlolim - o‘z iqbolim.

## Gushlar

Komil Gangriguliyev she‘ri

Veli Axmedov musiqasi

**Moderato**




Gaydun bezab, jayin gizi,
Gayduk dani, payin gizi.
Galing gushlar, sayrang gushlar,
Yashil bag'a, yayrang gushlar.

To'lqin Ilhomov she'ri

# Ona qo'llari

G'afur Qodirov musiqasi






Bahor kelsa shoxlarda,
Bulbullar kuy chaladi.
Ona soz olsa qo'lga
Ajib kuy taraladi.

Zumrad bahor quyoshi,
Yashnatar chechaklarni.
Aziz ona qo'llari
Ulg'ayar go'daklari.

Naqarot:
Xormang ona qo'llari
Tolmang ona qo'llari

# Slavsya

( Ivan Susanin operasidan )

**Tez tantanali**

Mixail Ivanovich Glinka musiqasi



# Kelajak bizniki

Miraziz A'zam she'ri | Komil Kenjayev musiqasi

**Allegretto**




shim. bo - shi - miz.
ki - yim - bo - shi - miz. Mag'-rur - miz har do -
har do - im
bo - shi - miz.
im ba - land bo - shi - miz. Oq ko'y -
lak oq pax - ta, o'z xiz - ma - ti - miz.
Lya, lya, lya, lya, lya. Lya, lya,
Qo-ra shim - qo-ra jun, o'z meh - na - ti - miz. Qo-ra shim qo-ra jun,




Ko'k yuzin yashnatar
Minglab yulduzlar.
Yer yuzin yangratar
O'g'il va qizlar. } 2 marta

Naqarot:
Oq ko'ylak qora shim,
Kiyim-boshimiz,
Mag'rur har doim,
Baland boshimiz.
Oq ko'ylak, oq paxta
O'z xizmatimiz
Qora shim, qora jun
O'z mehnatimiz

Mehnatkash bolamiz,
Qaynab toshamiz.
Oyni ham olamiz,
Undan oshamiz. } 2 marta

Yuramiz ilgari,
Qadamlar chaqin,
Kelajak bizniki,
Yo'limiz yorqin } 2 marta

# Chamandagi gullarmiz

Po'lat Mo'min sheri

Nadim Norxo'jayev musiqasi






Bizlar ko‘pmiz dunyoda,
Suv oqqanday daryoda.
Biz yursak qatorlashib.
Ko‘chalar ketar toshib.

Olamni kuldiraylik,
Shodlikka to‘ldiraylik.
Bizlar o‘qib, ishlaymiz,
Chin do‘stlikni istaymiz!

Naqarot:
Qizlarmiz,o‘g‘illarmiz,
Chamandagi gullarmiz.

Qo‘shiq aytsak baralla.
Top-toza tongi palla –
Ovozimizni tinglab,
Oftob chiqar yiltirab.

H. Rahmat she'ri

# O'zbegimdan aylanay

Nadim Norxo'jayev musiqasi






O‘zbekiston ona yurt,
Dunyoda durdona yurt.
Xalqi tanti mehnatkash,
Do‘stlikda yagona yurt.

Hammani teng siylaydi,
Tinchlik omad tilaydi.
O‘ylagani yaxshilik,
Kundan-kunga gullaydi.

Qalbidek pok osmoni,
Butdir iymon vijdoni.
Fe’li ongdir shu sabab,
To‘kisdir dasturxoni.

O‘zbegimdan aylanay,
O‘zbegimdan o‘rgilay,
Men ham shu yurt farzandi,
Xizmatiga shaylanay.

## 7-SINFDA KUYLASH UCHUN QO'SHIQLAR

### Eh orzular

Rauf Tolipov she'ri — Nadim Norxo'jayev musiqasi




Siz toliqmas qanotim,
Siz bor qiziq hayotim.

Dadil tashlamay odim,
Dilga tushgan yog'dular.

# Ey nozanin

Muqimiy g'azali

O'zbek xalq kuyi

**Allegro**




to'l - g'o - na- man (o)
Pa-ri - lar - dek o- chib yu- zing,
ni- hon bo'l- ding (o)
Pa-ri - lar - dek o -chib yu - zing




Ey nozanin ishqing bilan devonaman,
Oqshomlari uyqum kelmay to‘lg‘onaman.
Parilardek ochib yuzing nihon bo‘lding,
Xudba-xudba rashkim kelib, qizg‘onaman.

Ulfatlaring, o‘rtoqlaring, oshnalaring,
Shum raqiblar yo‘l ko‘rsatib begonaman.
Muqimiyga ochib yuzing nihon bo‘lding,
Toleim yo‘q ajab sho‘rlik peshonaman.

# Soqiynomai savti kalon

Bobur she'ri

Xalq kuyi






## Qorasoch

O‘zbek xalq kuyi

Botir Umidjonov qayta ishlagan

**Shoshilmay**



# Biz tinchlikni istaymiz

Barot Isroilov she'ri

Komil Kenjayev musiqasi

**Tempo di marcia**




shod tinch-lik bi - lan dil-lar o -
kuy-lay-miz shod, kuy-lay-miz shod...
tinch-lik bi-lan, tinch-lik bi - lan
bod. Do - i - mo tinch bo'l-sin ja-
dil-lar o-bod, dil-lar o- bod...
do-i-mo tinch, do-i-mo tinch
hon, tinch-lik bo'l - sa yurt fa - ra -
bo'l-sin ja-hon, bo'l-sin ja-hon,
tinch-lik bo'l - sa yurt fa - ro -




Tinchlik istar butun olam,
Tinch yashashni sevar odam.
Barcha ellar do'st-qadrdon,
Do'stlik uyi — O'zbekiston.

Naqarot:
Biz tinchlikni kuylaymiz shod,
Tinchlik bilan dillar obod.
Doimo tinch bo'lsin jahon,
Tinchlik bo'lsa yurt farovon.

Do'stlik, tinchlik shiorimiz,
Tinchlik eli diyorimiz,
Barcha ellar do'st-qadrdon,
Do'stlik uyi — O'zbekiston.

# Vatanginam

Po'lat Mo'min she'ri

Avaz Mansurov musiqasi

**Vals tempida**




Va- tan - gi- nam Oq sut ber- gan O- nam - da- yin bit - ta -
Naqarot:
gi- nam Va- tan - gi- nam. Bax-tim - ga tong - O'z-be-kis - ton.
Xor:
Bax-tim - ga tong O'z-be-kis - ton. Bax-tim - ga tong
O'z-be-kis - ton. Bax-tim - ga tong O'z-be-kis - ton.
Yakkaxon (2 marta xor):
Va- tan - gi- nam, Va- tan - gi- nam, Va-ta - nim.




Manim uchun olamdayin
Kattaginam - Vatanginam.
Oq sut bergan onamdayin,
Bittaginam - Vatanginam.

Naqarot:
Baxtimga tong - O'zbekiston,
Baxtimga tong - O'zbekiston,
Vatanginam - Vatanginam,
Vatanim...

Gul faslida ohorlarga
Aylanaqol, Vatanginam.
Qo'shig'imda ohanglarga
Aylanaqol, Vatanginam.

Naqarot:

Vujudimga gulday mehring
O'ydingmi yo, Vatanginam?
Yuragimga butun mehring -
Qo'ydingmi yo, Vatanginam?

# Chuchmo‘ma

Qambar Ota she'ri

Nadim Norxo‘jayev musiqasi

**Allegretto**




Yayrab o'ngu so'limda
Zavq baxsh etding dilimga.

Bahorgacha sog'inib,
Boqdim shuncha yo'lingga.

# Muallimlar

Safar Barnoyev she'ri

Habibullo Rahimov musiqasi




Qol-gan zi-yo, zar yo siz, Qol-gan zi - yo,
zar yo siz. O - - na- jon
mu - al - lim - lar O -
- ta- jon mu - al - lim -
lar

## 2.8. Musiqa savodi

### 8-amaliy mashg'ulot

### Notalarning bo'linishi va sanalishi



— Butun nota, 1i, 2i, 3i, 4i ga sanaladi.

— Yarim nota, 1i, 2i ga sanaladi.

— Chorak nota, 1i ga sanaladi.

— Nimchorak (sakkiztalik) nota, 1 yoki i ga sanaladi.

— O'n oltitalik nota. Ikki nota 1 yoki i ga sanaladi.

### Notalarning hajm jihatidan joylanishi




**Pauzalar**. Musiqa asarlarida uchraydigan tinish, to'xtash davri — pauza deb ataladi. Pauzalar ham notalar singari cho'zim va sanoqqa egadirlar.

## Nota va pauzalarning tenglama sxemasi:

Butun nota — Butun pauza
Yarim nota — Yarim pauza
Chorak nota — Chorak pauza
Nimchorak nota — Nimchorak pauza
O‘n oltitalik nota — O‘n oltitalik pauza
O‘ttiz ikkitalik nota — O‘ttiz ikkitalik pauza




## Alteratsiya belgilari

Musiqa tovushlarini yuqoriga yoki pastga o‘zgartiruvchi belgilar alteratsiya belgilari deyiladi. Alteratsiya belgilari nota oldiga (chap tomoniga) qo‘yiladi va nota nomi bilan qo‘shib o‘qiladi.

| | | |
|---|---|---|
| | — **diyez** belgisi | — tovushni yarim ton yuqoriga ko‘taradi; |
| ♭ | — **bemol** belgisi | — tovushni yarim ton pasaytiradi; |
| x | — **dubl diyez** belgisi | — tovushni bir ton yuqoriga ko‘taradi; |
| ♭♭ | — **dubl bemol** belgisi | — tovushni bir ton pasaytiradi; |
| ♮ | — **bekar** belgisi | — ko‘tarilgan yoki pasaytirilgan tovushni o‘z holiga keltiradi. |



sol sol-diyez si-bemol si-bekar do-dubl-diyez lya-dubl-bemol

## Intervallar

Bir vaqtda yoki ketma-ket olingan ikki tovush oralig‘i —interval deb ataladi. Interval tovushlari baravar eshitilsa — garmonik interval, birin-ketin eshitilgan holat esa — melodik interval deb ataladi. Asosiy intervallar: prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septima va oktavalardan iboratdir.



1 2 3 4 5 6 7 8

Intervallarning katta-kichik, sof, orttirilgan hamda kamaytirilgan turlari mavjud. Interval oraliqlari ton va yarim ton miqdorida belgilanadi.

# Intervallar jadvali

| T/r | Intervallarning nomi | interval notalar | katta | kichik | sof | orttirilgan | kamaytirilgan |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Prima | 0 ton | | | 0 ton | | |
| 2. | Sekunda | 1 ton | 1 ton | 0,5 ton | | | |
| 3. | Tersiya | 2 ton | 2 ton | 1,5 ton | | | |
| 4. | Kvarta | 2,5 ton | | | 2,5 ton | 3 ton | |
| 5. | Kvinta | 3,5 ton | | | 3,5 ton | | 3 ton |
| 6. | Seksta | 4,5 ton | 4,5 ton | 4 ton | | | |
| 7. | Septima | 5,5 ton | 5,5 ton | 5 ton | | | |
| 8. | Oktava | 6 ton | | | 6 ton | | |

## Sur'at (temp) turlari va ularning yozilishi

### Vazmin sur'atlar

**Largo** — largo — juda cho'zib.
**Lento** — lento — cho'zibroq.
**Adagio** — adajio — og'ir-vazmin.

### O'rtacha sur'atlar

| | | |
|---|---|---|
| **Andante** | — andante | — sekin-asta, oshiqmasdan. |
| **Andantino** | — andantino | — andantedan sal tezroq. |
| **Moderato** | — moderato | — o'rtacha tezlikda. |
| **Sostenuto** | — sostenuto | — salobatli. |
| **Allegretto** | — allegretto | — biroz jonlanib. |
| **Allegro moderato** | — allegro-moderato | — o'rtacha tez. |

### Tez sur'atlar

| | | |
|---|---|---|
| **Allegro** | — allegro | — tez. |
| **Vivo** | — vivo | — jonli. |
| **Vovace** | — vivache | — jadal. |
| **Presto** | — presto | — tez, oshiqib. |
| **Prestissimo** | — prestissimo | — juda tez. |

### Sur'atlarni tezlashtirish va sekinlashtirish belgilari

| | | |
|---|---|---|
| **Molto** | — molto | — orttirib. |
| **ma non troppo** | — ma non troppo | — kamaytirib. |
| **ritenuto** | — ritenuto | — sekin-asta og'irlashtirib. |
| **a tempo** | — a'tempo | — avvalgi sur'atga qaytish. |

### Ijro etish xarakterini bildiruvchi belgilar

| | | |
|---|---|---|
| **Animato** | — animato | — jonli. |
| **Meno mosso** | — meno mosso | — sekinroq. |
| **Maestoso** | — maestozo | — tantanali. |
| **Cantabile** | — kantabile | — musiqiy. |
| **Dolce** | — dolche | — nozik. |
| **Poco a poco** | — poko a poko | — sekin-asta. |
| **Non troppo** | — non troppo | — o'rta-miyona. |

### Dinamik ishoralar (tuslar)

| | | | |
|---|---|---|---|
| ***mf*** | — | messo forte | — o'rtacha kuchli. |
| ***f*** | — | forte | — kuchli. |
| ***ff*** | — | fortissimo | — juda kuchli. |
| ***p*** | — | piano | — mayin. kuchsiz. |
| ***pp*** | — | pianissimo | — juda mayin, juda kuchsiz. |
| $<$ | — | kreshchendo | — tovushni asta-sekin kuchaytirish. |
| $>$ | — | diminuendo | — tovushni asta-sekin susaytirish. |
| ***sf*** | — | sforsando | — keskin, kuchli zarb. |
| ***sp*** | — | subito piano | — keskin, mayin zarb. |
| $>$ | — | aksent | — noxunning pastga qarata kuchli zarb bilan ijro etilishi |

## 2.9. 5-sinfda musiqa tinglash uchun asarlar
### 9-amaliy mashg‘ulot

### Boychechak

Shermat Yormatov qayta ishlagan — O‘zbek xalq kuyi




Boychechagim hilloli,
Hamyon, hamyon tilloli.
Hamma bozor bir bozor,
Atroflari lolazor.

Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.
Bola, bola. bola, bola, bola, bola, bola, bola,
Boychehcak.

# Do‘ppi tikdim

(“Maftuningman” kinofilmidan)

Yulduz va qizlar qo‘shig‘i

Turob To‘la she’ri

Monas Leviyev musiqasi




ji-lo ber- sam gul-la-ri - ga
Ko'- zing o-lur
be-zak - la-ri til-lo-dan til-lo-dan ko' zing o-lur
be-zak-la-ri til-lo dan
til-lo - dan
Gu - li

Allegro moderato




Och - sa di-lim zo - ra. Ko'-z'ing o - ta-shi-ga ol - ma u - ni.
lo - la! Ko'-z'ing o - ta-shi-ga sol - ma u - ni lo - la
no - la qi-lur no-la Di-lu jo-ning i - la kuy-la go'-zal
Di-lu jo - ni bi-lan gu-li lo - la
lo - la Gu-li lo - la no - la qi-lur
gu-li lo - la Di-lu jo - ni bi-lan


no - la Di - lu jo - ning i - la kuy - la go'-zal lo - la
gu - li lo - la
Gu - li jo - n bi - lan
no - la qi - lur no - la. di - lu jo - ning i - la kuy - la go'-zal lo - la!
no - la gu - li lo - la
lo - la gu - li
Gu - li lo - la! no - la qi - lur no - la. di - lu
lo - la Di - lu jo - ni bi - lan no - la, gu - li
jo - ning i - la kuy - la go'-zal, lo - la! Gu - li lo - la
lo - la! gu - li lo - la! Di - lu




## Hayinchak

**Mayin, sekin**

**o'zbek xalq kuyi**




Hayinchak, ho hayinchak,
Hayinchakda kelinchak...
Saltligini sog'ingan,
Kelinchak, ho kuyinchak.

Hayinchak, ho hayinchak,
Hayinchakda kelinchak...
Boyni qo'yga kuzatib,
Uchavergin hayinchak.

Hayinchak, ho hayinchak,
Hayinchakda kelinchak...

# Terimchilar qo‘shig‘i
## (“Mirzacho‘l” vokal-simfonik syutasi)

G‘ofur G‘ulom she’ri | Solomon Yudakov musiqasi

**Jonliroq**



## Hoji darg'a ariyasi

**(«Maysaraning ishi» operasidan)**

Solomon Yudakov musiqasi

**Allegretto tranquillo**




shu tun men-ga zor en - di, shu tun men-ga zor en - di!
f
f
O - ling, Mul-la do'st, ka-lit-ni,
p
kay - lab ko'-ring ham - yon - ni!
f
p


He - mi - ri yo'q ham - yon - da,
f
p
Ol - may qo' - ying jo - non - ni!
Jon!
Ol - may qo' - ying jo - non - ni!


23
ten.
ten.
Oy - xon i - la har tun - da qil - sam yal-la - lo, yal -
mf
25
f
a tempo
mf
lo, yal - la - lo! Oh, o'r - gi - la - yin dey - man,
f
p
27
jo - nim be-ra-yin dey - man. Oy - xon i - la har ke - cha
p


qil - sam yal-la - lo yal-la - lo,
f
ff
Jon!
ff
fff

# Otmagay tong

Sobir Abdulla she'ri

(«Tohir va Zuhra» musiqali dramasidan)

To'xtasin Jalilov musiqasi

**Moderato**




Tohir
cresc.
bo'l - ma - sa.
Qay-dan ishq o' - ti-ga ur - sin
mf cresc.
o'z - ni u par - vo - na- lar,
Par- pi- rap
f
mf
- rin yo- quv - chi sham' - i jo - non bo'l - - ma
p
mf
dim.
sa. Ne qi- lay bu jon - ni ham yo' -
mf
mf




## "Figaroning to'yi"
## operasidan uverttyura

V.A.Motsart



# Ertak

Georgiy Mushel musiqasi



2




## Sust xotin

O‘zbek xalq kuyi

**Shoshilmay**




Yomg‘ir yog‘dir, ho‘l bo‘lsin,
Yeru jahon ko‘l bo‘lsin.
Maysalar quloch yozsin,
Sutu qatiq mo‘l bo‘lsin.

Yomg‘ir yog‘dir, ko‘k bo‘lsin,
Qurg‘oqchilik yo‘q bo‘lsin.
Arpa, bug‘doy bosh tortsin,
Kayvonilar osh tortsin.

# 6-SINFDA MUSIQA TINGLASH UCHUN ASARLAR

## Jonon

Muhammadjon Mirzayev musiqasi

**Yengil**




## Norim-norim

Muhammadjon Mirzayev musiqasi



# Guluzorim

Alisher Navoiy she'ri

Hoji Abdulaziz Rasulov musiqasi






## Dilxiroj

O‘zbek xalq kuyi



# Sharq taronasi

Usmon Azim she'ri

Dilorom Omonullayeva musiqasi

(Festival madhiyasi)



# Qaydasan

Turob To'la sh'eri

Ikrom Akborov musiqasi




gim. Qo'-lim-da sen - ga deb qu-yil-gan sha-
rob, ko'z-la-rim yo'- ling - da a-nor yuz - li -
1.
2.
gim. Qo'- lim-da -gim. Kel,
mf
f
mp
3


kel,
gul - yor ay - tib kel.
Yang - ra-sin
har - yon.
Dil-ra-bo
ku-ying - ga
to'l - sin
os - mon.
A...


ff
A...
pp

# Elizaga

Lyudvig Van Betxoven musiqasi

**Poco moto Harakatchan**




pp
pp
p
dim.
pp


f
fp
pp
pp
mf
p
pp



**40-simfoniya**

Volfgan Amadey Motsart

**O'rtacha tez**



# 7-SINFDA MUSIQA TINGLASH UCHUN ASARLAR

## Baljuvon

Buxoro - cholg'u yo'li



## Qashqarcha

Moderato

O'zbek xalq kuyi



## Qo‘sh haydash qo‘shig‘i

O‘zbek xalq kuyi






## Mayda-mayda

O'zbek xalq kuyi



## Farg'onacha

O'zbek xalq kuyi



## Xorazm lazgisi

O'zbek xalq kuyi

**Allegro moderato**



## Kovushim

O'zbek xalq kuyi

**Sho'xroq**




Kovushimning charimi,
Ho'kizning o'rtan belidan.

Yirtilib, yorilishi,
Issiq-sovuqning zahmidan.

# MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. 5-sinfni birinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan «Boychechak» asarini ijro etib tahlil qilib bering.

2. 5-sinfni ikkinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan «Mirzacho'l» vokal-simfonik syuitasidan «Terimchilar qo'shig'i» asaridan bir parcha ijro etib mazmunini ochib bering.

3. 5-sinfni uchinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan «Tohir va Zuhra» musiqali dramasidan «Otmagay tong» qo'shig'ini tinglatib tahlil qilib bering.

4. «Figaroning to'yi» operasidan namuna ijro etib tahlil qilib bering.

5. 6-sinfni birinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan «Gulzorim» asaridan bir parchasini ijro etib mumtoz musiqa haqida ma'lumot bering.

6. 6-sinfni ikkinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan «Qaydasan» asarini CD diskida tinglab, zamonaviy musiqa va uning tarixi haqida so'zlab bering.

7. 6-sinfni uchinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan biror asarni ijro etib qardosh xalqlar musiqasi haqida ma'lumot bering.

8. 6-sinfni to'rtinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan «Elizaga» asarini jonli ijro etib Yevropa musiqasi tarixi haqida so'zlab bering.

9. 7-sinfni birinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan Qashqadaryo - Surxondaryo mahalliy uslubiga mansub «Mayda-mayda» asarini ijro etib tahlil qilib bering.

10. Samarqand – Buxoro mahalliy uslubiga mansub biror asarni ijro etib tuzilishi va mazmunini tahlil qilib bering.

11. 7-sinfni ikkinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan Toshkent - Farg'ona mahalliy uslubiga mansub biror asarni tanlab milliy cholg'u asbobda ijro etib tahlil qilib bering.

12. Xorazm mahalliy uslubiga mansub «Oshiq G'arib va Shohsanam» dostonidan bir fragment ijro etib tahlil qilib bering.

13. 7-sinfni uchinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan Toshkent - Farg'ona mahalliy uslubiga mansub maqomlardan birini magnit tasmasida ting'lab mazmuni va tarixini izohlab bering.

14. 7-sinfni to'rtinchi choragida musiqa tinglash uchun berilgan asarlardan namuna ijro etib tahlil qilib bering.

15. Xorazm mahalliy uslubiga mansub folklor asarlaridan birini ijro etib tahlil qilib bering.

# III-BOB

## 3.1. Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi o'quvchilarni ommaviy va to'garak ishlariga jalb etib, ona-Vatanga, tabiatga mehr uyg'otib, badiiy didni o'stirish, odobli, axloqli, mehnatsevar insonlar qilib voyaga yyetkazish. Mazkur maqsadni amalga oshirishda maktabda musiqa darsidan tashqari ommaviy va to'garak ishlari olib boriladi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ikki shakli mavjud.

1. Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli.
2. Musiqa tarbiyasining to'garak shakli.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy o'quvini tekshiruvdan o'tkazmay yalpi tarzda jalb etiladi. Bularga: «San'at g'unchalari», «Kelajak ovozi», «Yangi avlod», «Mustaqillik bayrami», «Navro'z», «O'qituvchi va murabbiylar kuni», «Konstitutsiya kuni», «Onajonlar bayrami», «O'zbekiston Vatanim manim» ko'rik tanlovlari, ijodiy uchrashuvlar, shoir va bastakorlar bilan uchrashuvlar kiradi. Musiqa o'qituvchisining ommaviy ishlar rejasi maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Ommaviy musiqiy ishlar rejasi musiqa o'qituvchisi va maktab ma'rifiy-ma'naviy ishlar mudiri maktab yetakchisi bilan hamkorlikda, bayramlar, tadbirlar o'quvchilar yoshiga qarab tuziladi. To'garak ishlari rejasini esa musiqa o'qituvchisining o'zi o'z xohishi va imkoniyatlariga qarab mustaqil tarzda tuzadi. O'qituvchi to'garak ishlariga o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, xohish-istagi, ovoziga qarab tanlab oladi. To'garak ishlari haftasiga 2 – 3 bor to'garakni guruhlarga bo'lib ishlaydi. O'quvchilar tadbirlarda qo'shiqlar, raqslar ijro etib, ko'rik tanlovlarda qatnashadilar. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni o'qituvchi o'z imkoniyatlariga qarab turli to'garaklar tuzishi mumkin.

1. Xor.
2. VIA.
3. Ashula va raqs ansambllari.
4. Vokal ansambllari.
5. Cholg'uchilar ansambli (dutorchilar, rubobchilar).
6. Raqs ansambli.
7. Yakkaxon qo'shiqchilar.
8. Orkestr (xalq cholg'u asboblari orkestri).
9. Folklor dastasi.
10. Doirachilar ansambli.

Maktabdan tashqari musiqiy tarbiya shaklida bolalar musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatrlari, muzeylariga boradilar. Sinfdan tashqari musiqiy-tarbiyaviy ishlarni rejasi bir yilda bir marta o'quv yilining boshida tuziladi. To'garak ishlarini muvaffaqiyati maktab sahnasidadir. To'garak ishlari asosini musiqa madaniyati darslari tashkil etadi. To'garaklarga o'quvchilarni qiziqishi, musiqiy qobiliyati ovoziga qarab qabul qilinadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda musiqa o'qituvchisining asosiy vazifasi o'quvchilarni ko'proq ommaviy va to'garak ishlariga jalb etib, ularning bo'sh vaqtidan unumli foydalanishga o'rgatib, ma'naviy pok, barkamol insonlar qilib voyaga yetkazish.

## SINFDAN TASHQARI MUSIQA TARBIYASINI TO‘GARAK ISHLARINI REJALASHTIRISH

| Belgilangan oy, kun | Qo‘shiqning nomi va mualliflari | Ovoz sozlash uchun mashqlar | Bajariladigan ishlar | Belgilangan soat |
|---|---|---|---|---|
| 1 | «Boychechak» qo‘shig‘i Shermat Yormatov xor uchun qayta ishlagan | Sof intonatsiya talaffuz ustida ishlash uchun mashqlar kuylash | Qo‘shiqni musiqiy jumlalar va ovozlarga bo‘lib o‘rgatish | 2 |
| 2 | Qo‘shiqning naqaroti ustida ishlash | Nafasni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun mashqlar kuylash | Ikkinchi ovoz bilan talaffuz va sof intonatsiyaga erishish | 2 |
| 3 | Qo‘shiqning kirish qismini ovozlarga bo‘lib o‘rgatish | Ansambl ustida ishlab, ovoz uyg‘unligiga erishish | Har bir ovoz bilan alohida ishlab, sof intonatsiya va ansamblga erishish | 2 |
| 4 | Qo‘shiqni badiiy ijrosiga erishish | Ikki ovozda kuylash malakalarini rivojlantirish | Qo‘shiqni dinamik belgilari, talaffuzi va ansambl ustida ishlash | 2 |
| 5 | «O‘zbekistonim Vatanim manim» J. Jabborov she’ri, D. Ommonulayeva musiqasi | Talaffuz ustida ishlash uchun mashqlar kuylash | Qo‘shiqni musiqiy jumlalarga bo‘lib o‘rgatish | 2 |
| 6 | Qo‘shiqni musiqiy jumlalarga bo‘lib 1-kupletini o‘rgatish | Ikki ovozda mashqlar kuylash | Har bir ovoz bilan alohida ishlash | 2 |
| 7 | Qo‘shiqni naqarotini o‘rgatish | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | Birinchi ovozdagi o‘quvchilar bilan alohida ishlash | 2 |
| 8 | Qo‘shiqni ikkinchi ovoz ustida ishlash | Nafasni to‘g‘ri yolga qo‘yish uchun mashqlar kuylash | Ikkinchi ovozdagi o‘quvchilar bilan alohida ishlash | 2 |
| 9 | Naqarot qismida sof intonatsiya va ansamblga erishish | Ansambl ustida ishlash | Ikki ovozda qo‘shilib kuylashga erishish | 2 |
| 10 | Qo‘shiqni bandi va naqarotini qo‘shib o‘rgatish | Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylash | Qo‘shiqni dinamik belgilari va talaffuzi usida ishlash | 2 |
| 11 | Qo‘shiqni oxirigacha o‘rgatish | Nafasni to‘g‘ri yolga qo‘yish uchun mashqlar kuylash | Qo‘shiqni baddiiy ijrosiga erishish | 2 |

## Salom qo‘shiq bayrami

Po‘lat Mo‘min she’ri

Nadim Norxo‘jayev musiqasi

**Allegro moderato**






Qo‘shiq do‘stu – hamrohimizdir,
Baxtimizga guvohimizdir.
Bizni derlar barkamol avlod
Ona-Vatan o‘z bog‘imizdir

Naqarot:
Salom salom qo‘shiq bayrami
Bayramlarning shodu hurrami
Dillar uzra taralgan ohang,
Qurshab olgay butun kurrani.

Kelajakka qilsak parvozlar
Raxnadir bizga ustozlar
Yetajakmiz orzu murodga
Baxtimizni qo‘shiq e’zozlar.

**MUNDARIJA**

KIRISH ..... 3
I BOB. MUSIQA O'QITISH METODIKASI PRAKTIKUMI FANINING NAZARIY ASOSLARI ..... 4
1.1. MUSIQA O'QITISH METODIKASI PRAKTIKUMI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI ..... 4
1.2. MUSIQA O'QITUVCHISINING MUSIQA MADANIYATI DARSLARIGA TAYYORGARLIGI ..... 6
1.3. PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING MUSIQA O'QITUVCHISI FAOLIYATIDAGI O'RNI ..... 8
1.4. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA DARSLARINI REJALASHTIRISH ..... 10
II BOB. MUSIQA O'QITISH METODIKASI PRAKTIKUMI FANINING METODOLOGIK ASOSLARI ..... 13
2.1. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQAMADANIYATI DARSLARINI REJALASHTIRISH ..... 13
2.2. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI STRUKTURASI ..... 30
2.3. BOSHLANG'ICH SINFLARDA QO'SHIQ KUYLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH ..... 37
2.4. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA TINGLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ..... 65
2.5. O'RTA SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI REJALASHTIRISH ..... 73
2.6. MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA IKKIOVOZLIK QO'SHIQ KUYLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH ..... 89
2.7. 5-SINFDA KUYLASH UCHUN QO'SHIQLAR ..... 95
2.8. MUSIQA SAVODI ..... 163
2.9. 5-SINFDA MUSIQA TINGLASH UCHUN ASARLAR ..... 167
III-BOB. SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI MUSIQA TARBIYASI ..... 203

**GULNORA SHARIPOVA**

**G'AYRAT NAJMEKDINOV**

# MUSIQA O'QITISH METODIKASI PRAKTIKUMI

*5111100 – "Musiqa ta'limi yo'nalishi"dagi*
*Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma*

Toshkent – «TURON-IQBOL» – 2014
100182. Toshkent sh., H. Boyqaro ko'chasi, 51-uy
Tel: 244-25-58. Faks: 244-20-19

Muharrir *S. Alimboyeva*
Musahhih *S. Abdunabiyeva*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Sahifalovchi *A. Muxammadiyev*

Nashriyot litsenziyasi AI № 223, 16.11.12
Bosishga 28.04.2014 da ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^1/_8$.
«Times» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Shartli b.t. 24,18. Nashr taboq 25.
Adadi 400 nusxa. 19-raqamli buyurtma.

«TURON-MATBAA» MCHJ da chop etildi.
Toshkent. Olmazor tumani, Talabalar ko'chasi, 2-uy.